



NURMATOV F.A. JUMAYEV A.T.

# GIMNASTIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VАЗИRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Nurmatov F.A. Jumayev A.T.

## GIMNASTIKA VA UNI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RТА  
MAXSUS TA'LIM VАЗИRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

«BOOK TRADE 2022»  
TOSHKENT – 2022

Mazkur o'quv qo'llanmada gimnastika sport turining paydo bo'lish tarixi, saf mashqarli qoidalari, texnikasi hamda Gimnastika atamalari ularni o'rnatish usuliyatlari, xorij gymnastika tajribalari, hakamlik asoslari, musobaqlarni tashkil qilish va o'tkazish usullari kabi masalar yorilgan bo'lib, undan jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliishi talababari, magistrantlari, maxsus sritqi yo'naliishi talababari hamda MOF tinglevchilarini, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik lisey va kash-hunar kollejlari jismoniy tarbiya o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

B'eztom учебном пособии рассказывается об истории гимнастических видов спорта, правилах техники и терминологии гимнастике их преподавании, опыта зарубежной гимнастике, основы судейства, организации и проведения соревнований.

С учебного пособия могут пользоваться студенты направления физической культуры, магистранты, студенты зононого отделения, преподаватели физической культуры общеобразовательных школ, академических лицеев и профессиональных колледжей.

This tutorial describes the history of gymnastic sports, the rules of technology and their teaching, experiments in foreign gymnastics, arbitration, organization and conduct of competitions, physical education students, masters, special correspondence students, teachers, general schools, academic lyceums and vocational colleges can use him.

#### Tuzuvchilar:

F.A.Nurmatov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sport va chaqiriqacha harbiy ta'lim fakulteti Jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri

A.T.Jumayev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sport va chaqiriqacha harbiy ta'lim fakulteti Fakultetlararo jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi

#### Taqribachilar:

A.A.Abdullayev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktubgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri dosent

A.K.Eshtayev – O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va sport Universiteti Gimnastika nazariyasi va uslubiyat kafedrasi mudiri, p.f.n. dosent

ISBN 978-9943-8821-4-0

## KIRISH

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun ziyor shart-sharoitlar va infatuzilmanni yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtiroy etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda oly ta'lim muassasalarini yangi avlod o'quv idabiyotlari bilan ta'minlash, ya'ni bo'lajak "Jismoniy madaniyat" o'qituvchilarini bugungi zamон tabalariiga to'la javob beradigan pedagog kadralar etib tayyorlashga qaratilgan darsliklar va o'quv idabiyotlari yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan birdir.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan munazam shug'ullanishi uchun zamон tabalariiga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqlari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol topitirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidori sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantririshga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar analga oshirilmoqda.

Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon championatlari, Osiyo o'yinlari va championatlari hamda xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-e tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariiga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada sport o'yinlari ommalashib berayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sporting inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va

ma'naviy sog'lonlikning asosi ekanini targ'ibot-tashviqot qilish, ha-yotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odattardan as-rash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zatur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saral-ab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanТИrish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanТИrish dasturi (keyingi o'rnlarda Dastur deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Quyidagilar Dasturning asosiy yo'naliishlari etib belgilansin:

jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlanТИrisha yo'naliitirigan qonunchilikni yanada takomillashtirish; jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-teknik bazasini mustahkamlash, zamona viy sport komplekslarini quirish, ularni zamona viy sport uskunalarini va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlanТИrish;

jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport makkablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash;

ta'lim muassasalarini o'quvchi va talabalar, aholining keng qatlamlari o'rasisida sog'iomlashirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarni tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash; ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda, aholi o'rasisida sog'iom turmush tarzini targ'ib qilish, Dasturning mazmun-mohiyati hamda uni amalga oshirish jarayoni to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarni olib borish.<sup>1</sup> Chunki, barkamol avlod tarbiyasini va raqobatbardosh kadrlarni

tuyyortashni zamon tabalariiga to'la javob beradigan o'quv adabiyotlar-siz amalga oshirish mumkin emas.

Yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishning mayoriy-huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tononidan 2017-yil 7-fevrальda imzolangan "O'zbekistonni rivojlanТИrish bo'yicha harakkatlar strategiyasi"ni bu farmon bilan 2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlanТИrishning beşta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakattar strategiyasi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasini rivojlanТИrish Bosh vazirining 2016 yil 2-fevrальdagи 07/0-73-soni topshirig'i, 11.02.2016 yildagi 66-tonli hamda 01.03.2016 yildagi 89-tonli buyruqlariga muvofiq xalqaro tajribalar asosida takomillashtirilgan uslubiy va me'yoriy xujattlar hamda zamona viy o'quv adabiyotlar bilan olyi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini ta'minlash belgilab qo'yilagan.

Sifatli o'quv adabiyoti nafaqat o'rganuvchilarning qiziqishini oshiradi balki yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarning mahoratini ortiradi. Ya'ni, yaxshi o'qish ham, samarali o'zlashtirish ham o'quv adabiyoti bilan chambarchas bog'liqidir. Har qanday fanni o'qitish va o'zlashtirish bevosita shu predmetga doir tushuncha va atamalarning mohiyatini teran anglash bilan, jismoniy mahoratni egallash bilan bog'liq. Chunki, tushuncha va atamalar mazmuni yig'indisi o'quv fanning o'zagini tashkil qiladi. Har qanday tushuncha o'z shakli, mezoni va o'z qo'llanish sohasiga ega bo'lsagina to'laqonli hisoblanadi.

Shu asosda biz tomonimizdan tayyorlangan «Sport mahoratini oshirish (gymnastika)» o'quv qo'llanmasi jismoniy madaniyat ta'lim yo'nishi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun o'quv dasturiga muvofiq xorijiy adabiyotlar asosida yaratildi.

O'quv qo'llanmaning yaratilishiha asosiy bo'limlari va mavzularini yoritishda muqaddam nashr etilgan Суцко Г.К. «Гимнастика и методика преподавания» ТДПУ, 2008 г., Малинина Н.Н. «Гимнастика и методика преподавания» Ташкент, 2001 г., Туленова Ж.Б., Малинина Н.Н., Иноzemцева Л.А. «Умурвожлантиручи манускрипти УРМ ўргатни методикаси» Тошкент: 2005 йил larning adabiyotlarning tajribalaridan, hamda xorijda yaratilgan qator o'quv qo'llanmlar asos bo'lib xizmat qildi.

<sup>1</sup> Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlanТИrish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

# I BOB. GIMNASTIKA BO'YICHA SPORT MAHORATINI OSHIRISH

## 1.1. Gimnastikaning vujudga kelishi tarixi

Gimnastikaning chegaralangan ko'rinishi bundan tahminan 3000 ming yil oldin Xitoylilar va Misrlililar tomonidan ishlataligan bo'lishi mumkin. Biroq "gimnстика" termini Grek va Rimliklarga biror marta ham tilga olimagan. Biroq o'sha davrlarda maxsus og'ir kiyimlarda katta kuch takab qiladigan jismoniy mashqlarni amalga oshirishning deyarli iloji bo'Imagan shunga qaramay atletlar bu kiyimlarni yechib yalang'och holatda o'z mahoratlarini ko'rsatishgan. Bu atletlar keyinchalik "gimnastlar" nomi bilan mashhur bo'lishgan. Bu so'zning o'zi esa, gerekha "gymnos" so'zidan kirib kelgan. Bu davr davomida "gimnatsist" termini kurash sportida, nayza uloqtirish va yugurishda ishtirok etuvchi atletni tasvirlashda ishlataligan. Keyinroq "gimnast" termini gimnaziyada o'rgatiladigan hamma sport turlarini tasvirlashda ishlataligan.

XIX asming boshlariiga kelib, Shvedlarning erkin gymnastikasi va Jon gymnastika jihozlari gymnastika o'qitish ta'limi va klublar uchun standart etib olindi<sup>1</sup>.

Jismoniy tarbiya vositasi sifatida gymnastika uzoq vaqt nobaynida rivojanib kelgan. Uning qaror topishi ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan, odam haqidagi fanning rivojanishi bilan, shuningdek, urush qilish usullarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan. Bular hammasi gymnastikaning mazmunan o'zgarishiga, uning o'qitish uslubiy va hatto mashqlarni bajarish texnikasining o'zgarishiha ham muhim ta'sir ko'rsatgan. XVIII-XIX asrlardagi gymnastika tizimiga kirgan ayrim mashqlar qadimgi Rimda hamda bir qancha G'arbiv Yevropa mamlakatlari o'rta asrlardayoq harbiy-jismoniy tayyorlarlik ko'rishiда qo'llanilgan edi. Yog'och otda, narvon va raqib qal'alariга hujum qilishni o'rgatishda qo'llaniladigan boshqa inshootlardagi mashqlar shular jumlasiga kiradi.

Yunonlar va rimliklar tarafdarları o'z harbiy kuchlarini oshirish va jangovorlikni oshirish maqsadida gymnastikaning jismoniy talablarini

ishlab chiqqan. Misol uchun gymnastika bir askar mahoratini oshirishda gymnastika tayyorlarligidan tashqari badiiy gymnastika harakatlari (oyin kulgu) bilishi zarur bo'lgan. Akrobatic mashqlar va arqon ustidagi mashqlarini darbadarlikda yurgan artistlar namoyish qilardilar.

Uyg'onish davridagi gumanistlar yoshlarni har yoqlama tarbiyalashga katta ahamiyat bera boshladilar. Gymnastika mashq'ulotlarini ular insoning sog'ligini mustahkamlash va jismoniy kuchini rivojlanishning eng yaxshi usuli deb bilardilar. XVI asrda jismoniy tarbiyaga oldi bir qancha asarlар paydo bo'ladi. Shu sababli XV asrdayoq dvoryan yoshlar maktablarida ayrim gymnastika asboblari va mashqlaridan toydalilgan va ular keyinchalik sport gymnastikasiga asos bo'lgan deb hisoblash o'rnilidir.

V.A. Komenskiy, Jan Jak Russo (1712-1778), Pestalotsksi (1746-1827 yillar). Bularning jismoniy tarbiya sohasidagi xizmatlari shundan thoratki, ular gymnastikaning chinakkam tikanishiga turki berdi.

Russo jismoniy mashqlar inson tanasini mustahkamlaydi va toplaydi, kuch va harakat imkoniyatlarini rivojanishi uchun kerakli sharot yaratib beradi, yashash uchun tayyorlaydi, aqliy kamol topishga hamda salomatligini mustahkamlashga yordam beradi, deb hisoblagan.

Pestalotsi bolalarda mavjud bo'lgan kuch va qobiliyatni mashq orqali rivojlantrishni jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi deb bilgan. Itto'g'in gymnastikasi harakkati oyinlar va qo'l mehnati to'ldirib borishi kerak bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Albatta, bu bilan u bo'g'in mashqlarining ahamiyatiga haddan tashqari yuqori baho berib yuborgan edi, shunga qaramay u ishlab chiqqan uslub o'sha zamон gymnastikasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan va keng qo'llanilgan. Nemis olimi Tust-Muts ko'peynag gymnastika mashqlarining, jumladan gymnastika jihozlarida bajariladigan mashqlarning texnikasini ishlab chiqdi. Bu mashqlarda harakat formasiga katta ahamiyat beriladi. Uning qancha mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham keng tarqalib, gymnastika taraqqiyotiga yordam berdi.

Unda turnik bruslar, yakka cho'pda bajariladigan oddiy mashqlar tasvirlangan edi. Kitobda mashq'ulotlar vaqtida o'quvchilarning o'zaro musobiqalashuvi, harakatlar ijrosi aniq bo'lishiha qoyiladigan talablar ishlab chiqilgan edi.

XIX asming birinchi yarmiga kelib, gymnastika taraqqiyotida uch yo'nalish ko'zga tashiana boshladi:

<sup>1</sup> P. Edwards M.A. Gymnastics, London, The Royal Navy, 1999. P 39.

- gigiyenik yo'nalish (gymnastika odamning salomatligini mustahkamlash va jismoniy kuchini rivojantirish vositasi hisoblanardi);
- atletik yo'nalish (gymnastika murakkab mashqlarni, shu jumladan, gymnastika jihozlarida bajariladigan mashqlarni qo'llash yo'li bilan insomning harakat sifatini rivojlantrish vositasi, deb hisoblanardi);
- amaliy yo'nalish (gymnastika urushda uchraydigan turli to'siq-lardan oshib o'tishni askarlarga o'retish vositasi hisoblanardi).

Nemis gymnastika tizimi. Napoleon qo'shinlari Prussiyani egallab turgan davrda tarkib topa bosholadi. Bu tizimning asoschisi F.Yan (1778—1852) edi. F.Yan gymnastikadan mamlakatni bosqinchilardan ozod qilish maqsadida yoshlarga harbiy tayyorgarlik berish uchun foydalananishga intildi. Gymnastika jihozlaridagi mashqlar va harbiy o'yinlar bu tizimning asosini tashkil qilar; chunki ular, Yanning fikricha, odamning jismoniy kuchini rivojlantririb, irodasini mustahkamlar edi. U o'zining gymnastikasini «turnukunst» (epchilik san'ati), shogirdlarini esa, «turnerlar» deb atadi. Keyinchalik nemis gymnastikasi «turnen» nomini oldi.

Yan Frizen Eyzelen bilan birgalikda gymnastika mashqlari texnikasini ishlab chiqdi. «Nemis gymnastikasi» darsligi nashr etilib, unda o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan jihozlarda bajariladigan hamma mashqlarning tavsifi berilgan edi. Mashqlarni bajarayotganda shug'ullanuvchilardan bosmi to'g'ri tutish, oyoq uchlari cho'zilgan bo'lishi, gavdani harbiycha to'g'ri tutish, to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qilish talab qilinardi. Mashq 'ulotlarda musobaqa usulidan foydalanilardi, bu esa, shug'ullanuvchilarning qiziqishini juda ham oshiarva ular bir xildagi mashqni behisob takrorlashga intilishardi. U davrda turli harakatlar kombinatiyatlari qo'llanilmas edi.

### O'zbekiston hududida gymnastikaning paydo bo'lishi tarixi.

Markaziy Osiyo hududida, jumladan, O'zbekistonda gymnastikaning davolash, sog'iomlashtirish, amaliy jismoniy tarbiyaning yo'nalishlari ilmiy asoslangan tarixiy negizlarga ega. Qadim zamonalardan aholi turli xil jismoniy mashqlar, harakati o'yinlarni katta bayram va to'yorda taskkillashtirishgan. Navro'z, Hosil bayrami va boshqa tantanalarda o'tishlar, ammalloq, olomon-poygalar, chovgon o'yinlari, dorbozlar chiqishlari kabi ko'ngilochar tadbirleri muntazam ravishda o'tkazilib turilgan.

Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari»da jismoniy tarbiyaga katta e'tibor borgan. O'z kitobida salomatlikni muhofaza qilish qoidalarini ko'rib chiqor ekan, buyuk mutafakkir jismoniy mashqlarni sog'omlashtirish va davolash amaliyotida tutgan o'mi va ahaniyati haqida mukammal tarza so'z yuritadi. Ibn Sino olimlar orasida birinchi bo'lib, jismoniy mashqlarni odam organizmiga ijobiy ta'sirini «Uzlusiz chuqur nafas olish jarayonini keltirib chiqaruvchi erkin harakat jismoniy mashq deyliladi», deb ta'riffagan. Olimlarning raisi (Ibn Simoni shunday deyishgan) ta'kidlashicha, salomatlikni muhofaza qilish tartibida eng asosiyi badantartibiya mashqlari bilan shug'ullanish, undan so'ng ovqathanih va uyuq tartiblariga rioya qilishdir. Agar odam o'z vaqtida me'yorida badantartibiya mashqlari bilan doimo shug'ullanib, kun tartibiga rioya qilsa, u hech qanday davolash chorasi va dori-darmonga ettyoj sezmaydi. Buyuk olimning yozishicha, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanmay qo'ygan odamni sog'lig'i so'nib, harakatlanishni to'xtatish natijasida kuchi susayib boradi. Olimning fikricha, jismoniy mashqlar mushaklar, bo'g'inalar, asab totalarini mustahkamlaydi, natijada insonlar o'z ishlarini toliqmasdan uzoq muddatta bajarib, xastalikdan muhofaza etishadi. Ibn Sino jismoniy mashqlar bilan shug'ullananganda insomning yoshi va salomatligini qay darajada ekantiligini inobatga olishni ta'kidaydi.

«Tib qonunlari»da bolalar, o'smirilar, keksalar qachon va qay tarzda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi haqida ma'lumot berib o'tiladi. Ibn Sino mashqlarni boshlash va tugatish vaqti, uqalash, hammomda va sovuq suvda cho'milish (chiniqish), tanani tozalikda saqlash va boshqa gigiyenik talablar haqidagi fikr-mulohazalar虫 bugung'i kungacha olmlar diqqat markazidadir.

1879-yilda maxsus ta'lim hay'ati Turkiston o'lkasidagi cherkov qoshidagi to'rt yillik bilim yurti uchun dastur ishlab chiqdi. Ushbu dasturga muvofiqus tili, arifmetika, geografiya, tozayozish va chevaretkni o'rganish darslari bilan bir qatorda, gymnastika mashq 'ulotlaridan dars o'tish nazarda tutilgan edi. Biroq bu dastur uch yillik o'quv jarayoniga mo'jallangan dasturga almashtirildi. Yangi dasturda gymnastikaga o'r'in topilmadi. O'sha payda gymnastika boshlang'ich bilim yurtlarda o'tilar, ammalloq mutaxassislarining yetishmasligi, dars o'tish xonalari va sport jihozlari yo'qligi sababli darslar mukammal darajada o'tilmasdi. Gymnastika mashq 'ulotlari faqat Toshkentdag'i erkaklar gymnaziyasida

muntazam ravishda o'tkazilardi. Gimnaziyalarda jismoniy tarbiya darslarini zaxiradagi harbiy zabitlar o'tishgan.

1904-yilda Toshkentda «Gimnastika va jismoniy tarbiya jamiyat» tuzilib, uning nizomida gimnaziyalarda jismoniy tarbiya havaskorlari a'zo bo'lish huquqidan mahrum ekanligi qayd etilgan. Gimnastika tushunchasiga yugurish, sakrash va iрг'itish mashqlari kirgan.

Toshkentda shved va fransuz gimnastikasi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha qisqa muddatlari o'quv kurslari tashkil etilib, ularda o'qish haqi juda baland bo'lgan. Shu sababli kurs tinglovchilar soni 10-15 nafardan iborat bo'igan.

1910-yil 26-dekabrdan 1911-yilning 2-yanvarigacha "Bilim yurtlar o'qituvchilarining birinchi Turkiston qurultoyi"da jismoniy tarbiya muammolari ko'rib chiqilib, jismoniy tarbiya bo'yicha maxsus sho'balar ochilgan, dastur mundarajalar, dars soatlari, o'qitish usluubyattari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu qurultoy qatnashchilari jismoniy tarbiya darslari erkak va ayollar bilim yurtlari uchun majburiyligini ta kidab o'tdi.

1912-yildan boshlab Toshkentga Peterburg, Moskva, Varshava shaharlaridan gymnastika sporti bo'yicha murabbiyrlar kela boshladilar. Harbiy okrug bosmaxonasinghning ishchilarini gimnastika sho'basini tashkil etishdi.

Stokgolm shahrida o'tadijan 1912-yilda Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish uchun Rossiya terma jamoasini saralash musobabasi Turkiston (Toshkent)da bo'lib o'tgan. Ushbu sana O'zbekistonda sport gymnastikasini bunyod etilgan kuni, deb hisoblanadi. Keyin Qo'qon, Farg'on va Samarcand shaharlarida gymnastika jamiyatatlari tuzilgan.

1912-yilda toshkentlik gimnastlar Moskvada o'z mahoratlarini namoyish etishgan. 1915-yilda Toshkentda ayollar gymnastikasi bo'yicha o'quv kurslari ochildi. Shu kurslarni tugatgan Polina Garfung O'zbekistonda gymnastikan rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Oktabr inqilobidan so'ng gymnastika ommaviy tarzda rivojlangan. Aholini jismoniy va sport orqali sog'i omlashtirish davlat ishiba aylangan. Shu tarzda gymnastika Buxoro, Kattaqo'rg'on, Namangan, Urganch shaharlariga tarqala boshlagan.

## 1.2. XX asrda mamlakatimizda gymnastikaning vujuda kelishi va rivojlanishi

"Bolalar sport klub" 1917-yilda ochilib, unda gimnastika mashqlari va o'yinlar o'tkazilardi. 1919-yil Toshkentda Turkiston Olimpiya o'yinlari o'tkazildi. 1920-yil 10-oktabreda O'rta Osiyo o'yinlari O'zbekiston gymnastlari yutug'i bilan yakunlandi. 1921-yilda Turkfrontning «Yangi savodxonlik boshqarmasi» qoshida jismoniy tarbiya markaziy sho'rolari tashkil topdi. Uning maqsadi turli jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini birlashtirish va Turkiston mehnatkashlarini jismonan tarbiyalashni rejaga muvofiq boshqarish edi.

1920-yilda Farg'onda viloyat harbiy qo'mitasi qoshidagi «Beobug'» bo'limi «Besh yillik maktablarning 1 va 2-sinflarida jismoniy tarbiyadan ta'lim berish bo'yicha qisqa dastur»ni ishlab chiqdi. Dasturda gimnastika, yugurish, sakrash o'yinlari bilan shug'ullanish ko'zda tutiyan. Mazkur dastur mundarajasida quyidagilar bayon etilgan: «Gimnastikaning maqsadi to'g'ri jismoniy rivojlanishga erishish, inson organizmi faoliyatidagi kamchiiliklarni turzatish, harakkatarni koordinatsiyalash qobiliyatini yuzaga keltirish, tartib-intizomi rivojlantirish va asab tizimini mustahkamlash».

Mashg'ulotlarni toza havoda yoki shamollatilgan xonalarda o'tkazilishi kerak. Jismoniy tarbiya kengashi qoshidagi ilmiy sho'batomidan jismoniy taibiya bilan shug'ullanuvchilarni tekshirish bo'yicha antropometrik tashkil etildi. Sobiq Butunrossiya Markaziy Ijroqo'mita Hay'atining 1923-yil 27-iyuldagagi qaroriga muvofiq Turkiston Ijroqo'mita qoshida madaniyat bo'yicha o'ika sho'rolari tuzilib, unga republikada jismoniy tarbiya va madaniyat ishlarni boshqarish topshirildi.

1927-yili Butuno'zbekiston spartakiadasi o'tkazilib, uning dasturidan gymnastika o'r'in oldi. Moskvada 1928-yil o'tkazilgan sobiq Butunittifoq spartakiadasida o'zbekistonlik gimnastlar faxrli 4-5 o'rinni egallashdi. Toshkentlik gimnast Mechislav Murashko esa, sobiq sobiq ittifoq mutlaq championi bo'igan.

1929-yili Toshkentda birinchi marta jismoniy tarbiya to'garaklari tashkil etilib, unda gymnastika sporti bo'yicha musobabalar o'tkazilgan. Bu davrda gymnastikada to'rt kurash mayjud bo'igan: yakkacho'p,

halqlar, «eshak» va erkin mashqlarda sportchilar bellashgan.

O'tgan asming 30-yillardan boshlab, bolalar va o'smirlar orasida sport gymnastikasini rivojlantrish bo'yicha juda katta ishlar olib borildi. Toshkentdagji olimlar uyi qoshida ochilgan bolalar sho'basiga N.V.Kravchenko murabbiylilik qilgan.

1933-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan 1-O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari spartakiadasida jamoa birinchiligidagi birinchi o'rinni o'zbekistonlik gymnastlar qo'liga kiritishdi. 1935-1937-yillarda «Spartak», «Lokomotiv», «Dinamo» ko'ngilli sport jamiyatlarining tashkil topishi respublikada gymnastikanı yanada rivojlanishiga turki bo'idi. Ushbu sport jamiyatlarida gymnastika bolalar va o'smirlar sport mакtablari (BO'SM) tashkil etilib, unda 100 dan ortiq yosh sportchilar tahsil olishgan. Ularga o'sha davming yetakchi murabbiylari N.Salnikov, N.Kotin, A.Petuxovlar saboq berishgan. Ushbu maktablarda saboq olgan sport ustasi A.Abramyan, mamlakatning mutlaq championi G.Konovalova, A.Borodin, N.Tarasov va V.Merkulovlar esa, o'z davringilg'or sportchilar edi.

1934-yili Toshkentda jismoniy tarbiya texnikumi ochilib, unda Moskva institutining bitiruvchisi Yan Xalilovich Murtazin, Rashid Hamidov va Umar Asadovlar gymnastikadan saboq berishgan. 1936-yiida texnikum talabalari R.Hamidov va P.Zaviruxa Respublika championlari unvoniga sazovor bo'liishi.

Shu texnikum bitiruvchilar: dotsent Muhammadali Tojiev, G.D. Jorjaladze - O'zDJTida «Gymnastika» kafedrasi mudiri, Karim Jo'rayer, Rixsi Olimova, Qoziyeva, A. Yefemenko - ToshDU «Jismoniy tarbiya» kafedrasi mudiri, 1990-2000 yillarda O'zbekiston Respublikasi Gimnastika federatsiyasining raisi, dotsent Y.A. Isohoqov va boshqalar O'zbekiston Respublikasida sport gymnastikasi rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shishgan.

### 1.3. Mustaqillikda davrida gymnastikaning rivojlanishi

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi gymnastlari, murabbiylari yangi sharoitda katta yutuqlarga erishishmoqda. Sportchilarimiz xalqaro sport maydonlarida o'z kuchlarini sinab ko'rishga puxta tayyorgarlik ko'rishi yapti. Bu hol o'zbek sportchilariga Jahon, Olimpiada o'yinlariga mustaqil ravishda chiqishga imkon yaratdi. O'zbekistonlik gymnastlar

O.Chusovitina, R.Galiyeva sport gymnastikasi bo'yicha Jahan championatlarida ishtirok etib, oltin medalga sazovor bo'lishgan. 1996-yilgi Olimpiada o'yinlarida O.Chusovitina, A.Dzyundzyak, I.Valyevlar gymnastika ko'pkurashida kuchilar 10 ligi qatoridan o'rinishdi.

1993 yilda O'zbekistonda Sport gymnastikasi federatsiyasi tashkil topib, uni Xalqaro gymnastika federatsiyasi (FIJ) o'z tarkibiga qabul qildi.

1994 yilda Xirosimada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida O.Chusovitina tayaniib sakrash va qo'shpovalarda 2 ta bronna medalim qo'iga kiritdi. 1998 yilda Bankokda o'tkazilgan musobaqalarda E.Gordeyeva, A.Dzyundzyak, B.Bayatanova, S.Bahriiddinova, O.Chusovitina kabi mahoratlari sportchilar ishtirok etdi. Bugungi kunda respublikada R.G.Sarkisov, R.S.Sirkin, A.Olushev kabi malakali sport murabbiylari ishlamoqda. Olimpiya zaxiralari qatorida ayollar orasida V.Ochillova, N.Almatova, F.Xo'jayeva, A.Kambekova, R.Nasibulina, A.Habibrahmonova, erkaklardan A.Marketov, L.Valiyev, A.Fokin, A.Karimjonov, R.Ailov, K.Hasanov, I.Rahmatov kabi sportchilar o'sib chiqdi.

O'zbekiston gymnastika federatsiyasi vakillari FIJ va Osiyo uyushmasi anjumanlarida ishtirok etishadi. Barcha ishlar Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi (MOQ) bilan hamkorlikda olib boriladi. Muntazam ravishda hay'at yig'ilishlari o'tkazilib, terma jamoa a'zolarini tasdiqlash masalalari, sportchilarini bo'lib o'tgan musobaqalarda erishgan yutuqlari muhokama etiladi. Yetakchi sportchilarni xalqaro musobaqalarda qatnashishlari uchun mablag' ajratadigan homiyilar bilan ishlar olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi gymnastika federatsiyasi va ushbu go'zal sport turini ravnaq topishiga kuchini ayamaydigan insonlar o'z hissasini qo'shib kelishmoqda. Mahoratlari gymnastlar O.Chusovitina, N.Dzyundzyak, ulaming izdoshlari mahoratini oshirishda xizmat qilayotgan S.Kuznetsova va boshqa taniqli murabbiylar o'z ustozlari V.Vnukhova, G.Petrov, V.Aksenov, Z.Bondarenko, V.Kuryand, R.Sarkisovlar qoldirgan merosdan unumli foydalani, mamlakatimiz sport shon-sharatini xalqaro musobaqalarda baland ko'tarishmoqda (1-jadval).

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Shved gymnastikasi deganda nima deya olasiz?
2. Birinchi xalqaro anjuman gymnastikadan qachon va qaerda o'tdi?
3. Gimnastika yo'nalishi deganda nimani tushunasiz?
4. Nemis gymnastikasi tizimi qaysi yili paydo bo'lgan?
5. Gimnastikaning vujudga kelishi qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?
6. Yangi davr gymnastikasiga asos solgan qaysi mutafakkirlarni bilasiz?
7. Mustaqillikda davrida gymnastikaning rivojlanishi haqida nimani bilasiz?

## **II BOB. GIMNASTIKANING JISMONIY TARBIYA VA SPORT MAHORATINI OSHIRISH TIZIMIDAGI O'RNI**

### **2.1. Gimnastika bo'yicha sport mahoratini oshirishning maqsad va vazifalari**

Jismoniy tarbiya vositasi sifatida gymnastika uzoq vaqt mobaynida rivojlanib kelgan. Uning qaror topishi ijtimoiy tuzuv o'zgarishi bilan, odam haqidagi fanning rivojlanishi bilan, shuningdek, urush qilish usullarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan. Bular gymnastikaning mazmunan o'zgartirishga, uning o'qitish metodikasi va hatto mashqlarni bujarish texnikasining o'zgartirishiga ham muhim ta'sir ko'rsatgan.

Jismoniy tarbiya xalqlarni vattanparvarlik ruhida tarbiyalashning turkibiy qismi, kishilarni mehnatga, Vatan himoyasiga tayyorlashning jismoniy jihatdan barkamol bo'lib yetishtirishning ta'sirchan vositasidir.

Gimnastika yunoncha «gymnos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yalong'och» degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, yunoncha (mashq qildiraman) so'zining kishi salomatligini mustahkamlash, uni har tomonlama jismoniy tarbiyalash va harakat qobiliyatlarini, kuchi, chaqqonligi, harakat tezkorligi, chidamliligi va boshqa xususiyatlarini takomillashtirish uchun ishlataligan maxsus tanlangan jismoniy mashqlar metodik usullarining tizimi ham degan ma'nosi bor. Gimnastika o'z xususiyatlariga ko'ra bir qator jismoniy (egiluvchanlik, chidamlilik, chaqqonlik, kuch, tezkorlik) sifatlarini hamda go'zallikni ham tarbiyalaydi.

Gimnastika – bizning nutqimizda ishlataladigan gymnastika termini faqatgina Olimpia o'yinlaridagi musobaqlashish degan ma'nosidan tashqari tirmashib chiqish, yoga va raqsga tushish orqati tanani boshqarish degan ma'noni ham beradi.<sup>1</sup>

#### **Gimnastikaning asosiy vazifalari:**

1. Inson organizmi forma va funktsiyalarini, kishilarning jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama takomillashtirishga, salomatligini mustabkamlashga, uzoq yillarda davomida faoliyat ko'rsatib yashashlarini ta'minlashga yo'naltirilgan mukammal rivojlanтирish.
2. Hayotiy muhim harakat, ko'nikma va malakalarini (shu jumladan,

<sup>1</sup> CrossFit. Gymnastics training guide. Copyright 2015. P 6.

amaliy va sport ko'nikmalarini) shakllantirish va maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

### 3. Axloqiy-irodaviy va estetik xususiyatlarini tarbijalash.

Ayniqsa, bolalar va o'smirlarni jismontiy shakllantirishda gymnastikaning ahamiyat katta. Gymnastikaning xilma-xil vosita va metodlari yordamida boshlang'ich jismonyi tarbiya vazifalari, muvaffaqiyatiroq hal qilinadi, bolalar va o'smirlarda jismonyi hamda harakat qobiliyatlarini rivojlantrish uchun asos yaratiladi, ularning funktional va ko'nikish imkoniyatlari ancha kengayadi.

Gymnastikaning juda katta gigiyena-sog'lomlashtirish ahamiyati ham bor.

Gymnastika bilan hamma – bolalaru kattalar, keksalaru yoshlar, yaxshi tayyorlarlik ko'rganlaru endi boshlovchilar, sog'lom kishilaru va hatto betob kishilar shug'ullanishi mungkin. Gymnastika bilan makktabgacha yoshdag'i bolalar muassasalarida, maktablarda, o'rta va oliv o'quv yurtlarida, O'zbekiston armiyasi va flotida ham shug'ullanadilar. Ko'pchilik o'z uylarida radiodan eshitib, televizordan ko'rib turib shug'ullanadilar.

Gymnastikaning bunchalik keng yoyilganligiga sabab – uning vositalarining barchaga tushunarli va xilma-xil ekanligida, jismonyi tarbiyaning turli vazifalarini hal qilish uchun mashqlar tanlash imkoniyati katta ekanligidadir.

Gymnastika maslah'ulotlarida hayotiy zarur malaka hamda ko'nikmalar orturiladi va takomillashtiriladi. Bu fanning juda katta ta'limiyl estetik, aqliy-pedagogik ahamiyati ham bor.

Nihoyat, gymnastika – aqliy ta'lim bilan jismonyi tarbiya birligining yorqin namunasidir. Gymnastikada qo'llaniladigan metodlar shug'ullanuvchilarning intellektual faoliyati faoliyini rag'battantirish imkonini beradi. Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, gymnastikaning o'ta ta'sirchanligi boshlang'ich jismonyi tarbiya bosqichlarida, insomning jismoniq qobiliyatlarini har tomonlama va garmonik rivojlantrish pojdevori yaratilayotgan vaqtida namoyon bo'ladi.

Gymnastikaning bu asosiy funktsiyasi uning ko'p asrlik taraqqiyot tarixi mobayynida shakllandi va qaror topdi, bu uning jismonyi tarbiyaning ko'p tomonlama mazmunidagi aniq vazifalarini tashkil etadi.

Sport faoliyatida gymnastikaning uchta mustaqil turi bor. Sport gimnastikasi, akrobatika va badiy gymnastika.

## 2.2. Gymnastikaning sport mahoratini oshirishdagi asosiy vositalari

Maxsus islab chiqilgan harakat formalari gymnastikaning tipik vositalari (mashqlari) hisoblanadi. Ular yordamida odamning hayotiy muhim harakatlantiruvchi qobiliyatlarini takomillashtiriladi. Ko'p mashqlar odamlarning mehnat, harbiy va turmush faoliyatidan (yurish, yugurish, tirmashib chiqish, sakrash, emaklash, muvozanat saqlash, uloqtirish, to'siqlardan oshib o'tish, yuk tashish) va hokazolardan olinjan.

Gymnastika mashqlari pedagogik vazifalarga hamda harakatlan- tivuchi faoliyat tizimiga muvofiq tarzda quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi:

1. Saf mashqlari – safda birgalikda bajariladigan, shug'ullanuvchilarda faoliyat strukturasiga muvofiq bo'lib harakat qilish malkakalarini, qad-qomatni rostlovchi, ritm va sur'at hissasini tarbiyalashga yordam-lashadigan harakatdir.

2. Umumrivojlantruvchi ayrim bo'g'in, qismlarda bajariladigan, ya'ni har tomonloma jismonyi tayyorlarlik uchun, organizmning funktional imkoniyatlarini kengaytirish va qadd-qomatni tarbiyalash uchun qo'llaniladigan mashqlardir.

3. Erkin mashqlar – tanani ayrim a'zolari bilan qilinadigan turli harakatlarni, sluningdek, akrobatik va xoreografik mashqlarni birga qo'shib bajarishdir.

4. Amaliy mashqlar – yurish, yugurish, uloqtirish, tirmashib chiqish, oshib o'tish, emaklab o'tish, muvozanat saqlash, to'siqarda oshib o'tish va hokazzolar.

5. Sakrash (tayanmay va tayanib) sakrovchilarni rivojlantrish, shuningdek, oyq va qo'llarning kuchini, harakat tezligi aniqligini, chaqqonlik va dadillikni rivojlantrish uchun qo'llaniladi.

6. Jhozlarda bajariladigan mashqlar – sport gymnastikasining eng xarakterli vositalaridir. Ulardan ko'zdautilgan va statik holatlarni ham o'z ichiga olgan muvozanat saqlash mashqlarini birashtiradi.

7. Badiy gymnastika mashqlari – gymnastika asboblari (ang'amchi, gardir, to'p, cho'kmalar va h.k.) bilan va gymnastika asboblarisiz ijro etiladigan mashqlar.

Gymnastikaning asosiy vositalari **OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRUGI CHURCHIO DAVLAT KISHINING BAKSIRMAK KAMG'FON PISHI**

uchun ko'proq qanday ta'sir ko'rsatishni hisoblagan holda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) jismoniy histatlari va harakatlantruvchi qobiliyatlarini umuman rivojlantrishga qaratilgan mashqlar (saf mashqlari, URM mashqlari, o'yin va estafetalar).

b) hayotiy zarur ko'nikma va malakalarni shakkantirishga qaratilgan mashqlar (amaliy mashqlar, tayanmay sakrashlar),

v) harakkatlantiruvchi qobiliyat va irodaviy xislatlarni intensiv rivojlantrish va takomillashtirishga qaratilgan mashqlar (erkin), tayanib sakrashlar, jihozlarda bajariladigan mashqlar, akrobatika mashqlari va badiy gymnastika mashqlari.

Ginnastika asosiy vositalarining hammasini mana shu taxlidida ajratish ginnastikaning biror turi uchun, turli pedagogik vazifalarni hal qilish uchun muayyan mashqlar tanlashni osontashtiradi.

### 2.3. Ginnastikaning sport mahoratini oshirishdagi xususiyatlari

Ginnastikaning sport mahoratini oshirishdagi xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Kishi organizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish. Kishilarni barcha organlarining funksiyalari ginnastika mashqlari yordamida takomillashadi. Demak, kishini umumiy jismoniy rivojlantrish va uning harakatlantruvchi qobiliyattarini har yoqlama kamolga yetkazish vazifalarini ginnastika yordamida hal qilsa bo'ladi.

2. Nihoyatda xilma-xil jismoniy mashqlarni qo'llash.

3. Tanaga tanlab ta'sir ko'rsatish.

4. O'quv jarayonining qat'iy me'yorda bo'lishi va jismoniy yuksi aniq tartibga solish.

5. Mashqlarni uzuksiz murakkablashtirib borish va kombinatsiya-lash hamda bir xildagi mashqlarni bir qancha maqsadlarda qo'llanishing mumkinligi. Biroq mashqni variantlarini o'rganishga o'tiladi, bora-bora shu mashqning o'zi ham murakkablashtiriladi, biroq elementni ikkinchisiga qo'shib bajarib, kombinatsiyalarga yangi harakatlar kiritiladi va hokazo. Bunda o'reganilayotgan o'quv materiali sifat va miqdor jihatdan ham yangicha ifodaga ega bo'ladi, hamda tanaga boshqacharoq ta'sir etadi va zarur o'zgarishlarni keltirib

chiqardi. Bir xil mashqlardan turlicha vazifalarni hal qilish uchun toydalishda ularni metodik jihatdan xilma-xil o'zgartirish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.

Ginnastikaning metodik xususiyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liqidir. Ularni to'g'ri hisobga olib ish ko'rilsa, shug'ullanuvchilarning har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarligi, harakatlantruvchi qibiliyatlarini garmonik rivojlantrish vazifalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya vazifalari hal etiladi.

### 2.4. Ginnastika sport mahoratini oshirish vositasi sifatida

Ginnastika o'sib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berish tizimidagi pedagogik ilm sohasi, o'tilishi shart bo'lgan o'quv darsi hisoblanadi. Dars sifatida u maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlari va oly o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Ilmiy soha sifatida ginnastika jismoniy tarbiya haqidagi fanning ginnastikaga xos bo'lgan vositalar, metodlar va mashq'ulotlar tashkil etish formalari yordamida odamning jismoniy rivojanishi va kamol topishi qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'lagidir.

Ginnastika – ilmiy-amaliy sohadir. Uning nazariyasi, tarixi, dars berish metodikasi mashq'ulot tashkil etishdagi tipik vosita va formalari bor. Ginnastika tarixi uning jismoniy tarbiya vositalari va metodlaridan biri sifatida rivojanish va qator topish jarayonini ochib beradi. Ginnastika vosita va metodlarini takomillashtirish bilan aloqador masalalarni yoritadi.

Ginnastikadan dars berish metodikasi bo'limida esa, ta'lim va tarbiyaning umumiy asoslari (ginnastika, uning alohida turlari) va mashq guruhiylariga qo'llanishi mumkin bo'lgan turli kontingentlar bilan mashq'ulot uyushtirish metodlari qarab chiqiladi.

Amaliy mashq'ulotlar har yoqlama jismoniy rivojanish maxsus jismoniy xislatlarni takomillashtirishga, ginnastika mashqlari texnikasini bilib olishga, shuningdek, professional-pedagogik ko'nikma va malakalarni ottirishga qaratilgan bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Gimnastikaning xususiyatlariغا nimalar kiradi?
2. Gimnastikaning asosiy vositalari kishining maksimal kamol topishi uchun ko'proq qanday guruhlarga ajratish mungkin? Gimnastikaning asosiy vazifalari.
3. Gimnastika mashqlari pedagogik vazifalarga ko'ra nechta asosiy guruhlarga bo'linadi?

### **III BOB. SPORT MAHORATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQLAR**

#### **3.1. Jihozlarda bajariladigan mashqlar**

Dastlabki holatlar – mashqlar ijrosi boshlanishi oldidan turishlar va boshqa holatlar.

Turishlar: asosiy turishlar safga turishga mos keladi. Turishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib turish, oyoqlarni keng kerib turish, chalishtrib turish. Bunda oyoq kafslari juftlanadi, o'ng (chap) oyoqda erkin turish.

O'tirishning quyidagi turlari bor: oyoqlarni kerib o'tirish, burchakli o'tirish, oyoqlarni kerib burchakli o'tirish, bukiilib o'tirish, oyoqlarni quchoqlab o'tirish, sonda o'tirish va boshqalar.

Cho'kkayish – shug'ullanuvchilarning oyoqlari bukilgan holat yarim cho'kkayish, ortga engashib yarim cho'kkayish «suzuvchi start» deb ham ataladi va hokazo.

Tashlanish – tayanch oyoqni biron tomonga tashlab bukish harakati yoki shundan keyin hosil bo'lgan holat.

Tayanishlar – yelkalar tayanch nuqtasidan yuqori bo'lgan holatlar. Tayanishlarning quyidagi turlari bor:

Cho'kkayib tayanish, o'ng tizza tayanish, o'ng tizza bilan chap qo'lgan tayanish va chap tizza bilan o'ng qo'iga tayanish, tik bukilib tayanish, bilaklarga tayanib yotish, orqadan tayanib yotish va hokazolar.

Qo'l va bel harakatlari – harakatlar barovar, galma-gal, ketma-ket, shuningdek, o'ng qo'l o'ng tomonga, chap qo'l chap tomonga, buning teskarisi, parallel (ikki qo'l bir tomonga), simmetrik va nosimmetrik bo'llishi mumkin. Ular asosiy va oraliq tekisliklardan qo'llarni bukmay va bukib bajariladi. Qo'llar bukilgan atamaga «shukish» so'zi qo'shiladi. Masalan, qo'llarni bukib orqaga uzatish, qo'llarni bukib yon tomonlarga uzatish va hokazo. Oyoqlarni bukishda ham shu atama ishlataladi. Masalan, o'ng oyoqni bukib oldinga uzatish yoki orqaga shu holatda uzatish.

Qo'llarning dastlabki holati; qo'llar belda, yelkalarda, bosh ortida, ko'krak ortida va hokazo. Doira qo'l oyoq boshni aylana bo'ylab harkatlantirish, shuning oyoqlarni snayjad tepasidan aylantirish.

Engashish – gavdani bukishni bildiradigan atama. Engashishning quyidagi turlari bor: to'la engashish, kirishib engashish. Yarim engashish, oyoqlarni keng ochib engashish, oyoqlarni keng ochib engashish.

Oyoqlarni quchoqlab engashish, orqaga engashish yerga yotish.

Muvozanat – shug'ullanuvchilarning bir oyoqda turgandagi, shuningdek, osilib yoki tayanib turgandagi gorizontal holati. quyidagi turlari bor: o'ng oyoqda engashib muvozanat saqlash; yonlama, orqaga engashib, oyoq ushlab va hokazo.

Tutish – snaryadni ushlash usuli. Tutishning quyidagi turlari bor: ustidan tutish, ostidan tutish turlicha tutish, teskari tutish, chalishitma tutish, keng tutish, tor tutish. Juft tutish chuqur tutish.

Osilish – quyidagi turlari bor: oddiy osilish, aralash osilishlar.

Tayanish – oddiy va aralash bo'ladi. O'turish – snaryadda o'tirgan holat; quyidagi turlari bor: bruslarda oyoqlarni kerib o'turish, sonda o'turish va hokazo.

Ko'tarilish – osilib turishdan tayanishga yoki pastroq tayanishdan yuqori tayanishga o'tish.

Pastga tashlanish-ko'tarilishga teskari harakat.

Aylanish – gimnastikachining tayanishda boshlab snaryad yoki atrofida (turnik, yog'och va hokazo) aylanna harakatlantishi.

Burilish - gavdaning vertikal o'q atrofida harakatlantishi.

Oyoqni osmonga qilib turish – gimnastikachi tanasining biron qismiga tayanib, oyoqlarni yuqoriga uzaqgan vertikal holat.

Tebranish – aylanish o'qiga nisbatan erkin xakatlantish.

Yoysimon tebranish – tayanishdan yoysimon harakat qilib osilishga o'tish.

Uchish – bu shug'ullanuvchilarning snaryad (odatda xalqa) bilan birgalikda bir marta tebranma harakat qilishdir.

Qo'l orqasidan aylanish – muayyan holatdan yelka bo'g'inini buraltirib, gavdaning gorizontal o'q atrofida aylanishi. Bunday aylanish yo'nalishga qarab oldinga va orqaga bo'ladi. Zaruriy bo'lsa qanday tebranish yordamida bajarilishini ko'rsatish.

O'tkazish – oyoqni snaryad tepasidan harakatlantirish.

Doira – oyoqni yaxlit (ellepsimon) harakatlantirish. Chalishtirish – oyoqlarni bir birining o'miga qarama-qarshi yetkazish.

Kirish – snaryad yonida dastlabki holatda turgan gimnastikachining

hayatch qo'lli atrofida doira yasab burilib, dastlaklarga tayanib qolishini ko'ntuovch atama.

O'tish – ijrochining snaryadda (biron elementni bajarayotganda) qo'llarni tutib, o'ng yoki chap tomonga silish.

Chiqlish – kirishga teskari harakat qilib (koming) boshqa qismiga o'tish.

Uchib o'tish – gimnastikachining qo'llarini qo'yib yuborish snaryadning bir tomonidan ikkinchi tomoniga brusing bir yog'ochidan ikkinchi yog'ochiga o'tish.

Sokrab tushish-snaryadda osilib yoki tayanib turgan holatda sakrab tushish.

Sakrash – oyoqlarda depsingandan keyin erkin parvoz qilib, ma'lum masofidan (balandligiga, uzunasiga) yoki to'siqdan o'tish.

Thyanib sakrash – qo'llarda qo'shimcha tayanib (to'rt berib) bajoriladi.

Siljish-depsingandan keyin oyoqlarni orqaga dastlabki silish.

### 3.2. Akrobatik mashqlar

Dumalanish - tayanchiga birin-ketin qo'l tekkezib gavdani aylantirish (bo'sh orqali to'ntarilmaydi). Dumalanishning quyidagi turlari bor: oldinga dumalanish, yonga dumalanish, orqaga bukilib dumalanish singari va hokazo.

G'ujanak bo'lish – gavdani bukligan holati. G'ujanak bo'lishning yotib, o'tirib va cho'kkayib g'ujanak bo'lish, shuningdek keng g'ujanak bo'lish turlari bor.

O'mbaloq oshish – gavdaning aval tayanib, kema-ket bosh orqali to'ntariladigan aylanna harakati. O'mbaloq oshishning quyidagi: oldinga do'mbaloq oshish sakrab do'mbaloq oshish, orqaga do'mbaloq oshish va hokazo turlari mavjud.

To'tarilish – gavdaning bitta yoki ikkitanning fazasi bo'lgan to'liq aylanib oladigan (qo'llarga tayanib, bo'shra tayanib yoki ham qo'llarga, ham bo'shra tayanib) aylanna harakati. To'ntarilishning quyidagi: yonga to'tarilish, boshda g'rib to'ntarilish, to'ntarilib bir oyoqda tushish, sakrab to'ntarilish kabi turlari bor.

Orqaga to'tarilish – gavdani qo'llarga tayanib orqaga aylanadijan harakati. Qo'llarda, boshda turib qolishgacha aylanib bajoriladijan va

boshqa xillari ham bo'ladı.

Charxpalak-gavdanı uchish fazasi (qo'llarga tayanib) to'liq to'ntarilib oladigan bir tekis aylamma harakati. Ikki oyoqdan boshlab yana ikki oyoqqqa tushib shuningdek, bir oyoqdan boshlab va oyoqlarni almashib bajarilishi mumkin.

Randat - orqaga bukilib ikkila oyoqqa tushadigan to'ntarilish.

Qurbat - qo'llarda turib orqaga sakrab oyoqlarga tushish.

Salto - gavdaning xavoda erkin to'ntarilishi. Saltoning quyidagi; oldiga salto, siltanib salto, orqaga salto yarim burilib salto va hokazo.

Ko'pri - tayanchga orqa o'girib gavdaning maksimal darajaga egilib bukilgan yoysimon holati. Ko'prikning quyidagi; ko'pri, bir qo'lda ko'pri, bir oyoqda ko'pri bilakkarda ko'pri, teskari ko'pri.

Masalan, chap oyog'u o'ng qo'lda ko'pri turish va hokazo turlari mayjud.

Shpagat-oyoqlarni niyat darajada kerib o'tirish (har ikkala oyoqningbutun uzunasi bo'ylab tayachga tekizib o'tirish). Shpagatning quyidagi; shpagat, o'ng oyoq, o'ng qo'lni yoki chap qo'lni oldinga uzatib shpagat, engashma shpagat va boshqa turlari bor.

Yarim shpagat-shpagatga o'xhash.

Ammo oldindagi oyoq bukilgan holat, engashma yarim shpagat va hokazo.

Turishning quyidagi usullari mayjud: kurakkarda turish, kallada turish, qo'llarda turish va hokazo.

Sapchitish-turning sakrab tushgan akrobatni qaytarish.

Sakrama harakat (surat bilan sakraslar) ijrochi parozini oshirish uchun qo'llaniladi. Qolgan atamalar gymnastika atamasiga muvofiq tuziladi.

### 3.3. Badiyi gymnastika mashqlari

Odimlash-joydan joyga ko'chishning xilma xil turlari. Odimlashning quyidagi; odimlash, oyoq uchiga ko'tarilishdan boshlab odimlash, lukillab odimlash, almashib odimlash, palka qadami bilan odimlash turlari mayjud.

Yugurish - har birida uchish fazasi bo'lgan odimlash. Yugurishdagi nomlar odimlashdagi nomlarga o'xhash.

Burilish - gavdaning vertikal yoki uzunasiga o'q atrofidiagi aylamma harakati.

Sakranish - oyoqlarda depsingandan keyin erkin parvoz etish. Harakat qo'luni va gavdaning xavodagi holatiga qarab sakrashning quyidagi; to'g'ri sakrash, bukilish sakrash, kerishib sakrash, ochiq sakrash, yopiq sakrash, odimlab, sanchib sakrash, charxpalaksimon sakrash, tayanib sakrash, tashlanib sakrash, yarim xalqasimon sakrash turlari mavjud.

Qo'llurni prujinasimon harakatlanirish. Barcha bo'g'narni baraviga bukitib prujinasimon yaxlit harakat qilish. Turli yo'nalishlarda bojniladi.

To'iqnsimon - do'ngsimon yarim cho'kkayishdan boshlandigan, bo'g'inlarning ketma-ket biri yozilib, bukilishdan iborat murakkab yaxlit harakat.

Qo'lni to'iqnlashtirish - qo'lni bukish va panjası osiltirishdan boshlanib, keyin yozish bilan bir vaqtida panjası ko'tarishdan iborat to'iqnsimon harakatlanirish.

Ginnastika mashqlarini tushunishda ularni qisqa va aniq qilib yozishning muhim ahaniyati bor. Yozish qo'yilgan maqsadga qarab umumlashtirilgan, konsert, qisqartirilgan, grafik tarzda yoki shu usullarning birlashmasidan iborat bo'lishi mumkin.

Ginnastika mashqlarining atama yozuvini yuqorida bayon etilgan qoidalarga asosan hamda belgilangan usullarda bo'ladı. Yozish qoidaliga quyidagilar kiradi; ginnastika mashqlarining ayrim guruhlari uchun belgilangan yozuv tartibda yozuvda qo'llaniligidan grammatik tuzilish va belgilari rioya qilish.

#### URM ni yozilishi

1. Harakat boshlanadigan dastlabki holat (d.x)
2. Harakatning nomi (egilish, bukilish, cho'kkayish va hokazo)
3. Harakat yo'nalishi (o'ng chap, orqaga va hokazo)
4. Pirovard holat (zarurat bo'lsa)

Masalan, d.x-oyoqlar kerilib, qo'llar yuqoriga ko'tarilgan holda chap tomonga egilish. qo'llar yuqoriga ko'tarilgan holda chap tomonga egilish.

#### Erkin mashqlarni yozib olish

1. Mashqning nomi (kinga mo'ljalangan)
2. Jo'r bo'ladigan musiqa.
3. Daslabki holat.
4. mashqning mazmuni.

## Jihozlardagi mashqlarning yozib olishiniishi

1. D.X.
2. Harakat nomi.
3. Ijro etish usuli.
4. Yo'nalish.
5. Pirovard holat.

## Akrobatika mashqlarining yozilishi

1. To'liq aylanilmaydigan elementlarni (masalan do'mbaloq oshish).
2. Goxo bir holatdan ikkinchisiga o'tish maxsus atama qo'llanilishini talab qilmaydi.
3. Ijrochining biron elementdan keyingi holat.
4. Pirovard holat.

## Badiiy gymnastika mashqlarining yozilishi

1. Umumlashtirilgan yozuv.
2. Aniq atamali yozuv.
3. Qisqa yozuv.
4. Grafik yozuv.
5. Tekstli va grafik yozuvni birlashtirishda qo'llanishi bu yozishni amalda keng tarqalgan qulay usuldir. Masalan (1-jadval):

1-jadval

Nº	D.H.	Sanoq	Atamali tasvir	Grafik yozuv
1	Oyoqlarni kerib turish	1 2-3	Qo'llarni ikki yonga uzaq, oldinga engashish. Yerga qo'llarni tekkizib, ikki marta prujinasimon engashish. D.H.	

Shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik toifasini inobatga olib, o'quv bazasining holatini va qanday sharoitda o'tkazilishini inobatga olib, gimnastika o'quv-mashg'ulot jarayoni uchun rejalashtirishning ishchi hujjatlarini tuzish texnologiyasi (dastlabki mashg'ulotlarni tahlilqilish, ma'lumomnomala rrayorlash, mashg'ulotlarni bajarish ketma-ketligi) yagona mantiqiy jadval asosida amalga oshiriladi.

Lekin tabiiyki, bu hujjatarning mazmuni har bir sport tayyorgarligi toifasi uchun boshqa-boshqa bo'ladi. Rejalashtirishning ishchi hujjatlari tayyorlash jarayoni texnologiyasini tushunish oson bo'ishi uchun, umumiy ta'lim maktablaridagi sport gymnastikasining sho'basi hujjatlarini qapab chiqamiz.

*Dastlabki ma'lumotlar.* Sport gymnastikasi sho'basi. O'quv bo'limlari to'rtga bo'linadi: 2 tasi o'smirlar bo'limi va 2 tasi qiz bolalar bo'limi bo'lib, shug'ullanuvchilarning hammasi o'smirlar toifa mezonlari bajargan bo'lishi lozim. Shug'ullanuvchilar 9-10 yoshda. Mashg'ulotning taylorlov davri 3 oyga yaqin (30 mashg'ulot) davom etadi. Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta 2 soatdan o'tkaziladi.

*Vazifalar.* Dastlabki ma'lumotlarning tahlilidan keyin, avalo, rejalashtirilayotgan davrdagi o'quv-niashg'ulot jarayonining vazifalari aniqlanishi kerak. Ulami bunday ifodalash mumkin:  
a) Il o'smirlar toifasining tasnif dasturi va hajmi dasturning ayrim

elementlari va birikmalarini bilib olish;

b) jismoniy sifatlarning rivojanish darajasini toifa mashqlari shug'ullanuvchilar oldiga qoyadigan talablardan biroz yuqori darajaga yetkazish;

c) shug'ullanuvchilarida harakat faoliyatini gymnastika uslubida belgilab qoyilgan turli parametrlarda bajara bilish malakalarini takomillashtirish;

d) shug'ullanuvchilarining sport gymnastikasi mashg'ulotlariga qiziqishini yanada bajaror bo'lishiha erishish.

*Vositalar:* Vazifalar belgilab olingandan keyin, ularni amalga oshirish vositalarini tanlash ham uncha qiyin bo'lmaydi. Bizning misolda quyidagilar shunday vositalar jumlasiga kiradi: gymnastika ko'pkurashi mashqlari; buyumlarsiz, mayda buyumlar bilan bajariadigan umumrivojlantruvchi mashqlar; joydan-joyga o'tish turhari; xoreografiya (moslamalar yonida bajariladigan mashqlar); jismoniy va texnik tayyorgarlik, oyin va estafetalar; kinofilmalar suhabatlar.

### 7.3. Mashg'ulotlar ishlammasini tayyorlash tartibi

1. Mashqlarning alohida turlari mashg'ulotning qachon, qayerda o'tkazilishini aniqlash. Gimnastika ko'pkurashi mashqlari jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining asosiy qismida o'quv bo'lmlarida o'tkaziadi; umumrivojlantruvchi mashqlar mashg'ulotlarini xoreografiya tayyorlov qismida frontal tarzda; joydan-joyga o'tishurlari, oyin va estafetalar ham mashg'ulotning tayyorlov yoki yakunlovlchi qismida frontal tarzda o'tkaziladi.
2. Mashg'ulotning asosiy qismidagi mashq turlari sonini aniqlash. Mashq turlari sonini to'g'ri belgilash uchun shug'ullanuvchilar tarkibini, mashg'ulot davrini, mashg'ulotlar qancha davom etishimi hisobga olish kerak. Bizning misolda mashq turlarining soni jismoniy tayyorgarlikni ham qo'shib hisoblaganda to'rttadan oshmasligi lozim. Agar turlar soni kamaytirlisa, ya'ni har bir tur bilan shug'ullanish vaqt oshirilsa, unda o'rgatishni samarasasi kamayishi va shug'ullanuvchilarida buturlarga bo'lgan qiziqishning yo'qolish xavfi tug'iladi. Turlar soni ko'paytirib yuborilganda esa, o'rgatish mutlaqo samarasiz bo'lishi mumkin.
3. Ish rejası shaklini chizib qoyish. Bunda faqat shu shaklga riyoa

qilish shart degan gap emas. Bordi-yu uni qulay va ko'rgazmali boshqa shakli bilan almashtirish mumkin bo'lsa, o'sha shakldan foydalansa ham bo'ladi.

4. Nazariy mashg'ulotlar vaqt va o'mini belgilab, bu ma'lumotlami ish rejasiga kiritish. Ikkita shunday mashg'ulotni nazarga tutishni tovsiya etamiz: biri gymnastika va mashg'ulotlar gigiyenasi haqida suhabat, ikkinchisi esa, "11 o'smirlar tofasi", mashqlari kinofilmimi namoyish qilish. Birinchi mavzudagi suhabatni rejalashtirishning dastlabki davda o'tkazish, kinofilmni esa, shu davoming ikkinchini yarmida, shug'ullanuvchilar toifa mashqlarining elementlari bilan amalda tonishib olganlardan keyin namoyish qilish kerak. Suhbatga, qolaversa, film namoyish qilishga 30 daqiqa vaqt ajratilsa bo'ladi. Shuning uchun beshinchit mashg'ulotda ham, yigimanchi mashg'ulotda ham to'plan (majmuali) rejalashtirsma bo'ladi.

5. Ish rejasidagi gymnastika ko'pko'rashidan tashqari, hamma tuzilgandan keyin belgilangan mavzular raqami bilan almashiriladi. Hagar bir mashg'ulotdagi mazkur mashqlarning o'mini belgilashdan oldin quyidagilarni amalga oshirish kerak: birinchidan, xoreografiya mashqlari o'zinig asosiy vazifasidan tashqari, mushaklarchigilini yozish vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun xoreografiyanı va umumrivojlantruvchi mashqlarni bitta mashg'ulotga mo'ljallab rejalashtirmaslik kerak. Ikkinchidan, yana shu sabablarga ko'ra, joydan-joyga turli xil ko'chishlar va estafetali oyinlarni bitta mashg'ulotda o'tkazmaslik kerak.

6. Gimnastika ko'pko'rashi mashqlari turlarining jadvalini tuzish. Mashq turlarini kunlarga bo'lib almashtirishning eng yaxshi shaklini tanlashdan boshlash kerak. Quyidagi shakllar talabaga ma'qul bo'lishi mumkin: har ikki mashg'ulotning birida turlarni batamom almashtirish, bir turni ikki yoki uch marta takrorlash. Bu shakllarning birinchesi ham, ikkinchisi ham, uchinchisi ham muayyan sharoitda eng yaxshi shakl hisoblanadi. Bizning misolda ikkinchi va uchinchchi shakllar maqsadga muvoqidi.

Mashg'ulotning aynan tayyorlov davri uchun jadval tuzayotganda mashq turlarining qanchalik og'ir-yengilligini inobatga olish va shunga muvoqiq butun rejalashtirilayotgan vaqt mobaynida bu mashq turlarini qancha takrorlanishini hisoblab olish zarur.

Ishchi dasturda har qaysi mashq turlari mavzularga bo'linadi. Mavzudagi material soni bir mashq'ulotga mo'jallangan bo'lishi kerak. Mavzuning tartib raqanii mazkur mashq turi materialini o'tishdagi ustubiy izchilikni ko'rsatadi. Ko'pgina gymnastika mashqlarini bir mashq'ulot mobaynida o'rganib olish mumkin bo'limgani uchun har bir mavzuga yangi mashqlardan tashqari o'rganib olish jarayonida o'zlashtirilmasgan mashqlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yangi mashqlarni o'rgatishni niyojasiga yetkazish uchun, ularni necha marta takrorlash kerakligini oldindan aniq ayтиб berishga murabbiylar kafolat berishmaydi. Shuning uchun ish dasturida o'rtacha statistik ma'lumotlarga ko'ra, taxminan rejalashtirilib, keyinchalik o'quv-mashq'ulot jarayonida tuzatishlar kiritib boriladi. Ish rejasи va o'quv dasturi ishchi dastur tuzish uchun dastlabki ma'lumot bo'ladi.

### Ishchi dasturni tuzish tartibi

Dasturning tasnifi va hajmi uning hamma elementlarini hamda bu elementlarni o'regatishdagи yordamchi mashqlarni ixtiyoriy tartibda yozib olish.

1. Har bir mavzu nechta mashq'ulot davomida o'rganiishimi ko'rsatib, ularga tartib raqamlari qoyib, mashqlar qanday ketma-ketlikda o'rganiishimi belgilab chiqish kerak. Gymnastika ko'p-kurashining har bir turidagi mavzular soni shu turdagи ish rejasи jadvalida ko'zda utilgan mashq'ulotlar sonidan kamroq bo'lishi kerak, chunki ba'zi mavzular boshdan oxirigacha to'liq takrorlanishi mumkin.

2. Ishchi dasturni uzil-kesil yozib chiqish.

3. Dasturda kerakli mashq'uiotlarning soni ko'rsatilib, ularni o'reganish tartibi mavzular bo'yicha royxat qilib berilgan bo'lishi kerak. Masalan, *I mavzu*.

1. Bir oyoqdadepsinib, qo'llarda turish.
2. Shuning o'zini qo'llarni birin-ketin qoyib bajarish.
3. G'ujanak bo'llib, oldinga va orqaga umbaloq oshish.
4. Bukihib oldinga umbaloq oshish.

Reja tuzish uchun ishchi reja va ishchi dastur bo'lishi lozim. Eng avvalo, sarlavhani yozib mashq'ulot vazifalarini ko'rsatib qoyish kerak. Talaba-sportchilarni belgilangan kunda, ularni bilan (gymnastika tayoqchasi bilan mashq bajarish, tirmashib chiqish, sakrash, qo'shpovalarda mashqlar bajarish) shug'ullanishlaridan xabardor qilib

qoyish. Shu mashqlarni bajarib, nimalarga erishish kerakligini esa, murabbiy shug'ullanuvchilarga mashqlarni bajarishg'kirishganlaridagina oyishi darkor.

Shundan keyin mashq turlari almashinishini (mashq'ulot tuzilmasini) belgilash kerak. Keyin mavzu tartib raqami va vaqtini qoyib chiqib, har bir mashq turini ko'rsatish, hamma mashqlarni shug'ullanuvchilarga taklit etiladigan taitibda batafsil izohlab yozish lozim.

7. Ma'ruza matnlarida qaysi bir mashq mashq'ulotning qaysi qismida o'kazilishimi yozish, shuningdek, mushaklar chigilini yozish mashqlarining sonini ko'rsatish shart emas

### Nazorat savollari:

1. Ishchi rejasini tuzish tartibi qoidalarini bilasizmi?
2. Ish dasturni tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi.
3. Gymnastikada o'quv ishini rejalashtirishning ahamiyati va vazifalariga ta'rif bering.
4. Ish dasturni tuzish borasidagi fikringiz?
5. Reja matnni tuzishni tushuntiring.

## VIII BOB. SPORT MAHORATINI OSHIRISHDA MUSOBAQALARING O'RNI VA AHAMIYATI

### 8.1. Musobaqaarning mohiyati

*Ginnastika musobaqlari* – o'quv-mashg'ulot jarayonining tarkibiy qismidir. Ular talaba (sportchisi)larning ginnastikadan tayyorgarligini tekshirishning asosiy usuli. Musobaqalar muayyan bir o'quv davri uchun (chorak, semestr, yarim yillik, butun o'quv yili) o'quv ishiga aniq va obektiiv ravishda yakun yasashga yordam beradi.

Shuningdek, ular musobaqa qatnashchilarining axloqiy-irodaviy tayyorgarligini tekshirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi va jamoada uyushqoqlik va intizomlik hissini rivojlantiradi va shuningdek, iroda va jasoratni tarbiyalashga yordam beradi. Musobaqa u yoki bu tashkilot qatnashchilarining ko'rsatgan natijalariga qarab, o'quv-mashg'ulot jarayonining kelajakdagi yo'nalishi belgilanadi, o'quv mashg'ulot ishining usuliga o'zgartirishlar kiritiladi.

Bundan tashqari, musobaqalar eng yaxshi ko'rgazmali tashviqot vositasidir. Namunali tashkil qilingan va tantanali o'tkazilgan musobaqalarни qatnashchilar ham, tomoshabinlar ham uzoq vaqt eslab qolishadi. Musobaqalar ginnastikaning yoshlar o'rtasida keng tarqalishiga va ularning ginnastika sho'balari, sport klublarining mashg'ulotlariiga doimo qatnashib yurishlariga jaib etadi.

Musobaqaarning turlari

O'zbekistonning turli sport tashkilot va muassasalari, shujumladan, umumta lim maktablar, o'rta va oliv o'quv maskanlari hamda KSJ (Ko'ngilisportjamiyatlari)ning sport ishida ginnastika musobaqalarini uyuşhtirish va o'tkazish borasida muayyan an'analar paydo bo'ldi. Ular maqsadi, shakli, ko'lamiga qarab, quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Yo'nalishi (maqsadi) bo'yicha. Olimpiada o'yinlari, Juhon championati, Multi sport o'yinlari, Mika sovrini tasnifiy musobaqalar. Xalqaro Ginnastika Federatsiyasi boshchiligidida o'tkaziladigan turnirlar, mamlakat birinchiligi, kubogi, saralash musobaqalar, eng kuchli gymnast, g'olib jamoalarni anqliash musobaqalar, o'rtoqlik uchrashuvlari, O'zbekiston ginnastika federatsiyasi boshchiligidagi o'mmaviy musobaqalar (osonlashtirilgan dastur bilan, ko'pkurashi bo'yicha va h.k.).

2. Shaxsiy, jamoa va shaxsiy-jamoali birinchilik va saralash musobaqlari tasnify (C-I), jamoali musobaqlar finali (C-IV), ko'pkurash (C-II) va sport jihozlaridagi final musobaqlar (C-III).

3. Tuman, shahar, viloyat, mamlakat birinchiligi yoki championati.

4. Ko'ngilli sport jamiyatları, bolalar, o'smirlar maxsus sport maktablar va temra jamoaga saralash musobaqlari.

5. Ochiq musobaqlar, konkurslar, biron-bir tantanali kunga bo'ishlangan musobaqlar.

Odatda, har bir musobaqa bir necha vazifa qo'yiladi. Masalan, o'quv yiliga yakun yasash mumkin, shuning bilan birga, eng yaxshi ginnastarini temra jamoaga (tuman, shahar va h.k. birinchiliklari uchun) nomzodlar tarkibini ko'rsatish mumkin. Bu musobaqa nizomda aniq ko'rsatiladi.

### Musobaqalar dasturi

Musobaqalarning vazifasi, qatnashuvchilar tarkibi va o'tkazilish shartiga qarab, dasturlar bir-birdan jiddiy farq qilishi mumkin. Massalon, sportchining texnik tayyorgarligini anqliash va unga biror sport toifasini berish uchun davlat (tasnif) dasturlari mavjud. Turli xil sport musobaqalarni uchun dasturlarni musobaqa o'tkazadigan tashkilotning o'zi (bolalar, o'smirlar maxsus sport maktabları, kasb-hunar kolleji va boshq.) tuzishi mumkin. Bunday musobaqlar osonlashtirilgan dastur va soddalashtirilgan qoida bo'yicha, XGF qoidasiga tayangan holda o'tkaziladi.

### Musobaqa nizomi

Musobaqa o'tkazish to'g'risidagi nizom uni o'tkazadigan tashkilot tomonidan tasdiqlangan bo'lib, unda ishtiroychilarni va musobaqa o'tkazadigan mas'ul shaxslarni tayinlash bilan bog'liq barcha tashkilot ishlari rejalashtiriladi. Nizom musobaqani o'tkazadigan tashkilot tomonidan sport tadbirleri taqvimi assosida ishlab chiqiladi va musobaqa boshlanishidan kamida 3 oyoldin ishtirok etadigan jamoalar (bolalar va o'smirlar sport maktabları) ga tarqatiladi.

Musobaqa nizomida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) maqsad va vazifalar;
- 2) o'tkazish joyi va vaqt;
- 3) musobaqani boshqarish;
- 4) dastur;

5) ishtirokchilarga musobaqa qatnashishga ruxsat berish va g'oliblarni aniqlash shartlari;

6) g'oliblarni mukofotlash.

Odatda, har bir jamoada eng yaxshi natijalar, masalan, 6 tadan 4-2 tasi hisobga olinadi. Bunda ayrim ishtirokchilar, jamoalar o'tasidagi sport bellashuvining borishi aniq ifodalananadi, bu esa, musobaqalardagi kurashni keskinlashtirib yuboradi.

## 8.2. Musobaqa tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish

Bo'lajak musobaqa tayyorgarlik ko'rish ishlari, musobaqaning ko'lamidan qat'i nazar, uning boshlanishidan ancha ilgari olib borilishi kerak. Bunda barcha tadbirlarni uch bosqichga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

*Birinchi bosqichda* musobaqaqaning muddati, miyosi, o'tkazish joyi belgilanadi va uning nizomi tasdiqlanadi, shuningdek, vazirligi sport bo'limganda hakamlar hay'ati (yoki bosh hakam) tayinlanadi va tasdiqlanadi, musobaqani tayyorlash hamda o'tkazish rejasini ishlab chiqiladi. Rejada quyidagilar nazarda tutiladi:

a) ta'minot massalalan joy va jihozlarni tayyorlash, musobaqa ishtirokchilarini qabul qilish, xizmat ko'rsatidigan shaxslarni tayinlash va h.k.;

b) bosh hakam tomonidan tuziladigan musobaqa dasturi. Musobaqalarning har kungi jadvalini (ishtirok etadigan jamoa va ularning tarkibi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarga asosan) tuzzadi.

*Ikkinci bosqichda* musobaqa jadvali aniqlanib, hakamlar hay'ati tanlanadi va tasdiqlanadi, qaydnomalar tayyorlanadi va h.k. Tayyorgarlik ishlarini musobaqaqami tashkil etadigan tashkilotlar va bosh hakamlar hay'ati birgalikda olib boradi.

Eng murakkab ish – musobaqalar uchun joy tayyorlash va joyini sifatlari jijozi bilan ta'minlash. Musobaqalar uchun bino yoki ochiq maydoncha tanlanganda gimnastika jijozi va tomoshabinlami qulay joylashtirishini nazarda tutish lozim. Hakamlar hamda kobilyat uchun xonalar, dushxonalar, shifokorlar uchun joy ajaratilgan bo'lishi kerak. Hakamlar hay'ati va katta hakamlar uchun stollar, texnik ko'rsatkichlari va boshqalar bo'lishi zarur.

Shifokor va xizmatchi xodimlami, axborotchi hakamlarni o'z

vaqtida taklif qilish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, musobaqani yanada yuqori saviyada o'tkazishga yordam beradi. Boshqa tayyorgarliklarni boradi. Bunday tayyorgarlik ishlariiga quydagilar kirdi:

\* jihozlarni joylashtirish chizmasini turish va mas'ul shaxslar (musobaqa sohibi)ni tasdiqlash;

\* jamoalar tarkibini (dastlabki talabnomalar asosida), musobaqa dasturining turlari teng bo'lishiha erishish maqsadga muvofiqdir;

\* ish va qo'shma bayonnomalarni, axborot jadvallarni tayyorlash.

*Uchinchchi bosqichda* qatnashuvchi jamoa (tashkilot) lar vakillari bilan kengash o'tkaziladi, jihozlamning mustahkamligi tekshiriladi, sportchilar jihozlarni sinab mashq o'tkazadilar va musobaqa turlari bo'yicha hakamlar boshchiligidagi o'tkaziladi, bunda musobaqa qilingan hamma mas'ul shaxslarning musobaqa o'tkazishga tayyorligi tekshiriladi.

Bo'lajak musobaqa boshchilik qilish jamoalar vakillari bilan o'tkaziladigan yig'ilishga bog'liq bo'ladi, bunda musobaqa o'tkaza-digan tashkilot vakili, ularga bosh hakamlar hay'atini tanishtiradi, nizomning alohida bandlarini aniqlab, qayta ko'rib chiqadi, hakamlar ish texnikasini tushuntiradi, musobaqani o'tkazish jadvali va tartibini e'lon qildi. Shu bilan birga, musobaqani ochilish marosimida saflanish joyini, ishtirokchilarning musobaqa qchiqishini, ularning tarkibi va kiyimini, ochilish va yopilish marosimini, mukofotlash tartibini va boshqalami aniq belgilab olmoq zarur.

Ishtirokchilarga bir xil sharot yaratish va ularmi yaxshiroq yushtirish maqsadida jihozlarda mashq qilib ko'rish musobaqadan bir kun oldin o'tkazilishi va bunda jihozlarda mashq bajarishda qur'a bo'yicha aniqlangan tartib saqlanishi kerak.

Jamoalarning vakillari uchun (yig'ilishga) papkalar va musobaqa materiallarim tayyorlab qo'yish kerak: sportchilar chiptalari, dastur, eslatmalari, musobaqani o'tkazish jadvali, shuningdek, qaydnomalar uchun daftarcha va boshqalar.

Musobaqa ishtirokchilarining namoyishi, ularni tanishtirish bilan ochiladi. Bu tantanali qismni bayramona, aniq o'tkazish lozim. Odatda, u birinchi kunning yarmidan keyin o'tkaziadi (ayrim hollarda

musobaqa ishtirokchilaridan ba'zilari bir kun qatnashmasa, birinchi va ikkinchi kunning orasida, masalan, erkaklarni ham, ayollarni ham tanishtirish zarur bo'ladi). O'rgan yil birinchiligi g'oliblamning bayroq ko'tarishdag'i ishtiroki – namoyishning muhim qismidir.

Musobaqani boshqarish (navbaadagi sportchiarning chiqishi, jihoz turlarida mushaklar chigalni yozishning boshlanishi va tugashi), bir jihozdan ikkinchisiga o'tish va boshqalar bosh hakam o'rribosari yoki hakamlar tomonidan amalg'a oshiriladi.

*Musobaqa turlarida baholash (hakamlik qilish).* Musobaqa turida 6 hakamlar brigadasi (4+2) («A» - hakamlar guruhi sportchilarini qo'ygan xatosi, mahorati (artistizm); «D» - hakamlar guruhi bajarilgan mashqlarni maksimal qimmatini baholaydi) ishtirok etadi. Sportchilar chiqishidan oldin hakamlar guruhi musobaqa dasturi, ishtirokchilari va musobaqalarni o'tkazish shartlari haqida xabardor bo'lishlari shart. Musobaqa gilami chizig'idagi hakamlarga, xronometraj hakamlarga ko'rsatmalar beriladi. Bu musobaqada qatnashish tajribasiga ega bo'lmagan sportchilar ishtirok etganda muhindir.

Musobaqalarni moddiy-texnika jihatdan ta'minlash (jihozlarni o'matish hamda almashadirish, zaxira qismalarini almashtirish, magneziya, yog'och, konifol va boshqalar bilan ta'minlash) ishlari musobaqa sohibi rahbarligida olib boriladi, u bosh hakam yoki uning o'r'in-bosariga bo'ysunadi.

Shifokor nazorati va zarur bo'lganda birinchi tibbiy yordamni musobaqa shifokori bosh hakamning (tibbiyot ishlari bo'yicha) yordamchisi amalga oshiradi.

Axborotchi hakam jamoalar kurashining borishi haqida muntazam ma'umot berib boradi, shuningdek, har bir turdan keyin musobaqada kim oldindaligi to'g'risida xabar berib turadi.

Musobaqa qoidasiga binoan musobaqalar ertalab soat 10.00 dan oldin boshlanmasligi va soat 20.00 dan kech tugallanmasligi kerak.

Bir smenaning davom etishi bolalar va o'spirinlar jamoalarini uchun 2 soatdan va o'smirlar uchun 3 soatdan oshmasligi lozim. Oddiy dastur bo'yicha gimnastaming chiqishidan keyin murakkab dastur (yoki yuqori toifatilar) bo'yicha gymnastlar chiqishi boshlanadi. Musobaqa yakunida oxirgi smenada ozjamoalar musobaqalashishini esdan chiqarmaslik kerak. Bu kotibiyat uchun musobaqani tezroq yakunlashga imkon beradi. Jamoalarning chiqishidan keyin

ishtirokchilarni mukofotlashdan oldin bo'ladigan tanaffusning o'rmini to'linish uchun esa, ushbu musobaqa ishtirokchilari orasidan eng yaxshi sportchilarini va shuningdek, bolalar guruhlari yoki boshqa sport turari (deebatka, badiy gymnastika) vakillarining ko'rgazmali chiqishlari tashkil qilish lozim.

Musobaqalar tantanalri ravishda barcha marosimlar (g'oliblarni humot shohsupasiga chaqirish, g'olib jamoaning tantanalri marshi, tushirishi va boshq.ga rioya qilingan holda yakunlandi).

*Afurohaqaga yakun yasash.* Tugagan musobaqani tez yakunlash hush kolibning mohitona ishlashini talab qiladi. Musobaqa davomida hush kotib har bir qaydnomada o'rtacha va yakuniy ballarning to'g'ri chiqarilganligini tekshiradi va shundan keyin, o'tgan tur natijalari bilan qo'shib, tugallangan ko'pkurash turining natijasini hisobga olgan holda ballar yig'indisini aniqlaydi. Agar musobaqa bir necha sменада o'tkazlsa, unda o'tgan sменаларинген eng yaxshi natijalarini ham hisobga olmoq zarur.

U yoki bu dastur (toifa) bo'yicha musobaqanining tugallanishidan keyin, ishtirokchilarining ko'rsatgan natijalari tekshiriladi va jamoa natijalari hisoblab chiqiladi.

*G'oliblarni mukofotlash.* Musobaqa g'oliblarni musobaqa yopilishidan oldin mukofotlash lozim. Ammo hisoblab chiqish munakkab bo'lsa (dasturning har xil bo'lishi, jamoalar tarkibiniig bir si'l bo'imasligi va h.k.lar) va uni qisqa vaqt ichida yakunlash imkon bo'imas, mukofotlashni musobaqa yakuniga bag'ishlangan maxsus kechada o'tkazish kerak.

Mukofotlash marosimi har doim tantanali, ishtirokchilarga, tomoshabinlarga qiziqarli bo'lishi lozim.

*Musobaqani yopish namoyishi.* Musobaqani yakunlovchi namoyishga barcha ishtirokchilarni yoki faqat oxirgi smena sportchilarini jalb qilish mumkin. Jamoalar o'ng qanotdan shu musobaqada egallagan o'tinlariga muvofiq joylashadi. Musobaqa yakuni e'lon qilinadi va shu jahoti g'olib jamoalar mukofotlanadi. Bayroq lushirilgandan keyin, namoyishning barcha ishtirokchilari tantanalri marsh bilan g'olib jamoa o'tidan zaldan chiqib ketishadi.

*Musobaqa hisobotini tuzish.* Musobaqa tugagandan keyin bosh hisobam (bosh kotib bilan bingallikda) hisobot tuzadi, unda quyidagilar

ko'rsatiladi:

- musobaqaning nomi va dasturi, o'tkazilgan joyi va muddati;
- jamoa va shaxsiy birinchilikning natijalari, shuningdek, toifalar talablarini bajargan va tasdiqlagan sportchilar to'g'risida ma'lumotlar;
- ko'pkurash turlari (dastur) bo'yicha hakamlar guruhining tarkibi;
- o'tkazilgan musobaqani uyuştirish va o'tkazishdagi ayrim kamchiiliklar va keyingi musobaqlarda e'tiboga ohsh uchun takliflar.

Bu umumiylis hisobot musobaqaning bosh hakami va bosh kotibi tomonidan imzolanib, dastlabki musobaqalar tugallanggach, 30-40 minutdan keyin, yakuniy musobaqlarda, ertasi kuni ishtirokchi tashkilotlarning vakillariga yakuniy musobaqlarda qatnashadigan sportchilar ro'yxati tarqatilib berilishi kerak.

### 8.3. Ommaviy sport musobaqlarini o'tkazish

Ommaviy musobaqaqlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda ularda ko'p sportchilar qatnashishini hisobga olish muhim, chunki maktablarda ommaviy musobaqalarni uyuştirishga boshqacha yondashish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktab o'quvchilari orasida gymnastikadan ommaviy musobaqlar o'tkazish keng tarqalgan. Erkin mashqlarini, ertalabki griyyenik gimnastika shaklidagi mashqlarni bajarish uchun birdaniga butun jamoani (har bir ishtirokchi uchun alohida belgilarni bo'lsa, yaxshi bo'ladi) maydonchada joylashtirish kerak. Mashqlarning sifatini baholaydigan hakamlar guruhi sportchilarning mashqlarini yaxshi ko'rindig'an joyda o'tirishadi.

Jamoa sportchilari musobaqa dasturidagi mashqlar bajarilishini yakunlab, «erkin» holatida bo'ladi va hakamlar ko'rsatkichlar orqali ularni baholarini ko'rsatadilar, kotiblar esa, bu baholarini umumiylis qaydnomaga ko'chiradi. Musobaqa shunday tashkil qilinganda jamoa mashq bajarish uchun 3-5 minut vaqt sarflaydi, xolos.

Jamoalamni bir turdan ikkinchi turga o'tish tartibini bayonnomada ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu turlamni almashtirishdagi noaniqlikni bartaraf etadi va unga sarflanadigan vaqtini qisqartiradi.

Zal, gimnastika maydonchasi, o'yingoh kotibi maktab hovlisining hajimiga va hokazolarga qarab, u yoki bu to'da uchun musobaqa dasturining turlari (jihozlar) ni sektorlar bo'yicha yoki doira bo'ylab joylashtirishi mumkin.

Ommaviy musobaqalarni boshqarish uchun bong bo'lishi kerak, bungi urilgunda barcha jamoalar joy almashtirish uchun tayyorlanadilar, harakat musiqasi jo'rligida amalga oshiriladi, bunda ishtirokchilar jadvalga muvoqqa navbatdagi turga o'tadi. Ommaviy musobaqalar shu tarzda uyuştirilganda har bir jamoa sardori va kuzatuvchi o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklandadi. Ular ishtirokchilarni uyuştirishlari va o'qituvchilarni qo'shishda musobaqaning bir turidan ikkinchisiga almashishlarini ta'minloydi.

Gimnastika bo'yicha ommaviy musobaqalar tashkilotlar, o'quv musobaqlari va boshqa jamoalarda (semestr, yarim yillik va h.k. o'quv tashkilotlari), shuningdek, «Alponish va Barchinov» sog'iomlashshtirish testining gymnastika talablariga binoan o'tkazilishi mumkin.

Musobaqa oxirida kotibiyat (har bir jamoa) har bir qatnashchi va butun jamoasing erishgan natijalarini (ommaviy musobaqa nizomiga muvoqqa) hisoblab chiqadi va bosh hakamlar hay'ati (ko'pincha bosh hakam) aniqlangan ballar yig'indisiga ko'ra qatnashchilarni mukofotlaydi. Undan tashqari, musobaqa oxirida eng kuchli jamoalar va ishtirokchilar (shaxsiy) aniqlanadi, ular muayyan musobaqaning ilolblari sifatida mukofotlanishadi.

### 8.4. Gimnastikada hakamlik qilish

Hozirgi kunlarda gimnastika musobaqlarida hakamlik qilish, har bir hakamdan shu soha bo'yicha yaxshi bilim, malaka va yetarli darsajada amaliy tajribani talab qituvchi murakkab jarayondir. Shuning uchun ham musobaqa hakamlariga faol va muvaqqiyatlari ishlash uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Hakamlar musobaqa qoidasi hamda dasturimi, qo'shimcha maxsus talablarini va bajarish murakkab bo'lgan mashqlar texnikasini mukammal bilitshi shart. Hatto quyidagi gimnastlar ishtirok etayotgan kichik (umumta qo'shimcha maktablari, kollej, litsey, tuman va boshq.) tashkilotlarda «Alponish va Barchinoy» sog'iomlashshtirishdagi amaliy tajribani aniqlaydigan testlar mezonlarini topshirish osonlashtirilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqlarda hakamlik qilish uchun ham muayyan malakaga ega bo'lish zarurdir.

Adolitli baholashga mas'uliyatlari yondashish (hakamlik qilish) uchun, hakamlar musobaqaga oldindan tayyorgarlik ko'rishi zarur. Shu maqadda hakamlar guruhi uchun maxsus seminarlar uyuştiriladi.

Sinash uchun hakamlik qilib ko'riladi (guruuhlar bilan). Hakam nimani baholaydi? U mashq (majburiy dastur) mazmunini, sportchiarning mashqlarni bajarish mahoratini va bosh hakamning qo'shimcha ko'rsatmalarini yaxshni bilishi shart.

Hakamlar, sportchilar bajaradigan mashqlar musobaqa qoidasida yozilganga mos kelishimi, mashqlarni xatosiz, elementlarning tuzilishini buzmadsan, qomatni to'g'ri tutib, katta ko'lamdag'i harakattar bilan aniq, ishonchli hamda nafis bajarilishini talab qiladi va uni oqilona baholaydi.

Bajarilgan mashqlar 10 ball bilan baholanib, kichik xato uchun, (ahamiyatsiz) 0,1 ball; o'rtacha xato uchun (muhimroq xato uchun) 0,2 ball, qo'pol xato (buzib bajarish) uchun esa, 0,3 ball, jihozlardan qulashda 0,5 ga kamaytiriladi.

Hakam gimnastlar yo'l qo'ygan hamma xatolarni ko'rishi shart. Hakam (ayniqsa, hakamlik faoliyatining boshida) xatolarni mayda, o'rta va qo'pol xatolarga mos keladigan shartli belgilardan foydalantib ifodalashi, agar element birikmasi tushirib qoldirilgani yoki buzib bajarilganini sezib qolganda, uni qaydnomada yozib, belgilab borishi kerak. Bularning hammasi butun mashqning bajarilishini yodda yaxshiroq tiklash va uning qaysi qismalarida qanday xatoga yo'l qo'yilganligini aniqlash imkonini beradi; to'g'ri baholash, ayniqsa, hakanmlar bergen baholar orasida katta farq yuz berganda muhimdir. Yuqoridaq ma'lumotlarga asoslanib, hakam ballarda yakuniy bahoni qo'yadi va uni ko'rgazma kitobcha yordamida katta hakamga ko'rsatadi. 1997-yilda xalqaro musobaqalar qoidasiga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, bu qoida asosida musobaqalarda xizmat qiladigan hakamlar ikki guruhga bo'linadi (tayanib sakrashjardan tashqari); «A» va «V». «A» guruhda ikki hakam, «V» guruhda to'rtolti. Har ikki guruuh, hay'at raisi rahbarligida ish olib boradi.

«A» guruh hakamlari bajarilgan mashqlarning murakkabligini, maxsus talablargacha javob berganimi aniqlab, ularni qo'shimcha ballar bilan baholaydi.

«V» guruh hakamlari bajarilgan mashqlarning murakkabligini, jozibadorligining estetik bajarilishi, sportching qaddi-qomatini tutishini o'rtacha ballar bilan baholaydi. Sportchi chiqishining jami ballari o'rachasi quyidagicha baholanaadi. Masalan, «A» guruh hakamlarini qo'ygan balli 9,2, «V» guruh hakamlarini 0,55 (0,5; 0,6; 0,7; 0,4; 0,6; 0,5).

Honda yakuniy ballar 8,65 (9,2—0,55) ball.

Hox bir mashqning bajarilishini baholashda mumkin qadar oqilona bajarilish uchun amalda quyidagilar qo'llaniladi:

1) hor bir turga 4-6 (6-8) hakamdan iborat guruh tuziladi;

2) hor bir hakam mustaqil ball chiqaradi;

3) hokomlar gurushi teng huquqlik asosida tuziladi;

4) hokamlar orasidagi kelishilmovchiliklarni joylardagi (jihoz-laridagi) katta hakam bartaraf etadi.

Musobaqalarda hakamlar faoliyati bajarilgan mashqlarni oqilona bajarilishdan tashqari sportchi va tamoshabinlarga tarbiyaviy ta'sir etadi, shuning uchun ulardan maksimum diqqat va odililik talab qilinadi. 2006-yildan boshlab, gymnastlarning dasturdagi mashqlarni bajarish usulli va murakkabligi yuqori darajaga ko'tarishni rag'batlantirish qo'shibdi.

«A» guruh hakamlarini bajarilgan mashqlar to'plamlarini turli sliddagi murakkabligini aniqlaydi. Natijada eng mukammal bajarilgan elementlarga baho beriladi.

«V» guruh hakamlarining har biri 10 ball tizimida, gymnastlar tomonidan qo'yilgan xatolar uchun, ballami kamaytirib borishadi. Bajarilash qoidasiga ko'ra, 2 va 6 hakam o'rtacha ballni, «A» va «V» hakamlar gurubi ballar yig'indisini chiqaradi. Masalan, «A» va «V» hakamdarilari 6,2 ball, «V» gumb hakamlari 9,15 (9,1; 9,2; 9,3; 9,1; 9,2; 9,1). Bu holatda yakuniy natija 15,35 (6,2+9,15) ballni tashkil etadi.

Hakamlik qilish sifati hakam (nufuzli musobaqalarda) va uning o'rmosarlari ishi, kuzatuvchi hay'at a'zolari tomonidan nazorat qilib boriladi. Nazorat qiluvchi hay'at a'zolari o'z faoliyati jarayonida hakamlik qilish qoidasida kamchiliklar aniqlasa, uni o'z vaqtida bosh hukamning o'rmosariga ma'lum qiladi.

Gimnastika musobaqalari hakami gymnastika mashqlari texnika-ning bajarilishini yaxshni bilishi, musobaqa qoidalalarining barcha ikirkiliklarini bilishi, yetarli darajada odil, tartibili, intizomli, xotirjam bo'lishi va uning ko'rish xotirasi yaxshni bo'lishi shart.

Hukamlik asoslarini faqat o'qituvchi, murabbiy bilib qolmasdan hukmchilarini bilishi kerak, chunki bu bilimlar uning sport mahoratining oshishiga ko'maklashadi va musobaqada yuqori natijaga erishishiga zamin yaratadi.

## **Nazorat savollari:**

1. Musobaqalar dasturini izohlang.
2. Gimnastikada hakamlik qilishning qoidalari.
3. Musobaqalar nizomini tuzing.
4. Musobaqalarning ahamiyati borasida qanday ma'lumotga egasiz.
5. Musobaqalarning turlarini sanab bering.
6. Ommaviy musobaqalarni o'tkazish tartibini ta'riflang.

## **IX BO'R. TALABALAR BILAN GIMNASTIKAGA DOIR MASHQ'ULOTLARINI O'TKAZISH METODIKASI**

### **9.1. Mashq'ulotlarni o'tkazish usullari**

Mashq'ulotning tayyorgarlik qismiga tananing barcha qismlari uchun (xarakteri, ko'lami, sur'ati bo'yicha) turli-tuman mashqlar kiritish lozim. Ulonga oyoqlarni oldinga bukish, orqaga uzatish, yon tomonga ko'tarish, oyoqlar bilan doiraviy harakatqilish, sonni ichkariga va tashqariga burish, shuningdek, gavdaniburish, oldinga va yon tomonga engashish mashqlari hevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri qomatni shakkallantirish mashqlariga atohida e'tibor berish kerak. Dinamik xarakterdagi va bo'shashish mashqlarini ko'proq qo'llash lozim. Egiluvchanlikni rivojlantirish va gavda qismlar mushaklarini mustahkamlash mashqlarini parallel qo'llashni tavsiya qilamiz. Orqaga engashishdan (ko'prikcha, umbaloq oshishdan) keyin, bachadonning orqaga siijishining oldimi olish uchun oldinga engashish mashqlarini bajarish kerak.

Shuningdek, oyoq mushaklarining kuchini va egiluvchanligini rivojlantradigan mashqlarini ham unutmayslik lozim. Shu maqsadda mashq'ulotning tayyorgarlik va yakunlovchi qismlariga o'tirish, sakrash va raqs mashqlarini qo'shmoq zarur. Harakat xususiyatiga ko'ra, tuyollar bir tekis xarakterdagi mashqlar (turli raqslar, mayin harakatlar va boshq.)ni bajarishga moyil bo'lishadi. Bu ixlosni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim.

Tanuning ayrim qismlarida aniq harakatlar bajarish bilan birga, qo'llar uchun mayin, egiluvchan harakatlar qo'llash zarur. Qo'llaniadiagan mashqlarining mazmuni va ularning maromini o'zgartirish orqali jismoniy yuklamani asta-sekin oshirib borishga erishiladi.

Gimnastika jihozlarida mashq bajarish uchun xotin-qizlar oldindan tuyorlangan bo'lislari kerak. Mashq'ulotlar jarayonida ularni oson mashqlarini o'regatishdan qiyin mashqlarni o'regatishga o'tkazish asta-sekin, tabiy bo'lishi uchun tayyorlovchi va yordamlashuvchi mashqlarini ko'proq qo'llash lozim. Gimnastika jihozlaridagi mashqlarning me'yorini aniq belgilash kerak, chunki ular qo'l, yelka kamari va qorin pressi mushaklarining katta ish bajarishi bilan bog'iqdirlar. Hatto oddiy osilish va ayniqsa, tayanish mashqlari yelka kamari va qo'l mushaklaridan ancha zo'riqishni talab qiladi. Shuning uchun xotin-

qizlar bilan mashg'ulotlar o'tkazganda turli balandlikdagi qo'shpoyada ko'proq mashq bajarishlariga e'tibor berish kerak. Bunday qo'shpoyada aralash osilishlar, tayanishlar va o'tirisilar singari turli mashqlarni birga qo'shib bajarish ancha yengil bo'ladi.

Mashg'ulotlarning tayyorgarlik va asosiy qismlariga jihozlarsiz handa turli jihozlar bilan bajariladigan (gimnastika tayoqchasi, arg'amchi, to'idirma to'p, tennis va boshqa to'plar bilan) umum-rivojlantriruvchi mashqlarni gymnastika devorida, o'rindig'ida, past-baland qo'shpoyada, xodada xotin-qizlarning har tomonlama rivojlaniini, ularning mushaklarini mustahkamlanishini ta'minlaydigan mashqlarni kiritish lozim. Yuqorida keltilrilgan vosittalar mashg'ulotni qiziqrarli va zavqli taskkil qilishga yordam beradi.

Mashqlarni tanlash va ulami o'tishda xotin-qizlar organizmning biologik xususiyatlardan tashqari, ayolning ish qobiliyati va uning ruhiy xususiyatlarni ham hisobga olish muhimdir. O'quvchi qizlarning ruhiy turg'un emasliklarini hisobga olish kerak, zero, yetarli harakat tajribasiga ega bo'lmagan va o'z kuchiga ishomnagan ayollar ba'zan darrov ranjib qolishadi. O'zining chaqqon emasligini bildirib qo'yishdan xijolat chekiib, ular ayrım paytlarda mashqni bajarishdan bosh tortishib, norozi bo'lishadi. Bunday hollarda o'qituvchidan pedagogik mahorat bilan muomalada bo'llishi, shug'ullanuvchilarning u yoki bu xattiharakatiga to'g'ri yondasha biliishi talab etiladi.

Yordam ko'rsatganda yoki muhofaza paytida o'qituvchi mashqlar texnikasini aniq tasavvur qilishi, mashqlarni bajarishda ularning eng qiyin qismalarini aniqlay olishi, o'z vaqtida va zarur bo'lган darajada yordam ko'rsatish uchun o'quvchi qizlar qobiliyatini yaxshi biliishi kerak. Jihozlardan sakrab tushish va sakrashlarda aytigelan so'zlamning ahamiyati muhim, chunki bularda yiqiliish, jarohatlanish yoki latyeyish mumkin.

Ayollar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotharni yakunlovchi qisimi muhim ahamiyatga ega. Qo'llaniladigan mashqlar qizlarning ruhiy holatiga kuchli ta'sir qilgani uchun, yakunlovchi qisnda, talaba qizlar organizmmini tinchlantriradigan mashqlarga yetarlichha ahamiyat berish kerak. Shu maqsadda tinch va mayin raqs harakatlari bir tekis xarakterdagи mashqlarga mos keladi. Qizlarda tetik kayfiyatni saqlashga va hozirgina tugallagan mashg'ulot to'g'risida yaxshi ta'surot qoldirishga harakat qilmoq dairor.

1. Mashg'ulotlar usulini ta'rifhang.
2. Mashg'ulotning tayyorgarlik qismiga tananing barcha qismlari uchun mashqlarni so'zlab bering.

#### Nazorat savollari:

X BOB. GIMNASTIKADAN AMALIV MASHQ'ULOTLAR  
DAVOMIDA SPORT MAHORATINI OSHIRISH

### 10.1. Umumrivojlantruvchi mashqlarning tasnifi

Umumrivojlantruvchi mashqlar deb, turlicha tezlik va ko'londa maksimal hamda o'rtacha mushak ishlashi orqali tananing ayrim qismlari bilan bajariladiigan harakattar yoki ularning birikmalariga aytildi. Bundan maqsad – jismoniy sifatlarni rivojlantrish, qaddiqomatni to'g'ri shakllantirish, talabalarini murakkab harakat mifikalarini egallashga tayyorlashdir.

Umumrivojlantruvchi mashqlar jihozlarsiz va jihozlar (gantellar, to'ldirma to'plar, toshlar, shtangalar, rezina amortizatorlar, tayoqlar va h.k.) bilan har xil gimnastika jihozlarida va shuningdek, talabalarining bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishlari orqali bajarilishi mumkin.

Umumrivojlantruvchi mashqlar o'z tarkibiga ko'ra, oddiy bo'lib, u bilan barcha yoshdag'i kishilar shug'ullanishlari mumkin. Ularni o'rgatish juda oddiydir: mashqni o'rganib olish uchun, talaba uni bir necha marta takrorlashi kerak, xolos.

Shuni inobatga olish kerakki, mukammal o'zlashtirilgan mashqlarni bajargandagina maksimal foyda olish mumkin. Mashqlarni o'rgatish jarayonida esa, barcha mushaklarni qisqarish imkoniyati bir xil jaib qilinadi. Demak, biron-bir jismoniy sifatni rivojlantrish uchun u yoki bu mashqdan foydalananishdan oldin uni yaxshi o'rganib olishga zaruriat tug'iladi.

Umumrivojlantruvchi mashqlar yordamida tana a'zolari va mushaklarning guruuhlariga alohida ta'sir ko'rsatish ham mumkin. Bu xususiyat talabalar organizmiga, ayniqsa, harakat-tayanch apparatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish va butun tana mushaklarini har tomonlama rivojlantrish imkonini beradi.

Umumrivojlantruvchi mashqlarni bajarayotganda jismoniy yuklamani boshqarish oson. Organizmga jismoniy yuklama berish uchun mashqlar tanlashga va bir mashq'ulotda ularning soni qancha bo'lishiga bog'liq. Bir xil mashqlar (mushakni ishga solish) berish darajasi va ishda qatnashadigan mushak guruuhlarining soniga ko'ra, osontoq, boshqalari murakkab bo'ladi.

Mashq bajarilganda mushakdan foydalananish darajasiga ko'ra

o'zgaradi. Mushak zo'riqish berish darajasini quyidagi usullar (ayni bir mashqning davom etishini) takrorlash sonini ko'paytirish, mashqlarni bajarish tezligini o'zgartirish, og'irlikni oshirish yoki o'zaro qarshilik dorjasini ko'paytirish, dastlabki holatni yoki bajarish usulini boshqacharoq qilish orqali o'zgartirish mumkin.

Tasnifga anatomik belgi asos qilib olingan. Mashqlar insomning ayrim tana qismlariga ta'sir ko'rsatishiga qarab bo'linadi:

1. Qo'llar bilan tirmashib chiqish, kuch bilan ko'tarilish;
2. Qo'llar bilan aylamma harakatlar qilish;
3. Oyoq mushaklari uchun mashqlar.

4. Buttun tana mushaklari uchun mashqlar.

Hamma mashqlarning ta'siri, o'z navbatida, uslubiy yo'naiishiha ko'ra kuchni, egiluvchanlikni, yakka harakat tezligini, ayrim mushak loruqlarining taranglashishi va bo'shashish qobiliyatini tarbiyalovchi mashqlarga bo'linadi, to'rtinchchi guruh mashqlariga esa, qomatni to'g'ri rivojlantruvchi va nafas olish mashqlari kiradi.

### 10.2. Qo'llar mushaklari va yelka kamari uchun mashqlar

Qo'llni oldmga, yuqoriga va yon tomonlarga navbatma-navbat va birin-ketin ko'tarish; shu mashqning o'zini gantellar, gimnastika tayoqchalar, to'ldirma to'plar, toshlar, shtangalar bilan bajarish; shu mashqni sheringning qarshiliqini, rezina bint, amortizatorlar yoki blok uzilimali maxsus asbobda osilgan og'irlik qarshiliqini yengish bilan bojarish.

1. Qo'llarni bukish va yozish:
  - a) tik turganda, o'tirgan va yotgan holatlarda qo'llarni tez va sekin bukish va yozish;
  - b) gantellar, to'ldirma to'plar, toshlar, shtangalar bilan qo'llarni bukish va yozish; shu mashqni shering qarshiliqini;
  - c) yotib tayanish va tayanish; yotib osilish va osilish holatlariда qo'llarni bukish va yozish;
2. Qo'llar bilan tirmashib chiqish, kuch bilan ko'tarilish.
3. Old yoki yon tekislikda (birin-ketin, birkaiida, navbatma-navbat); gantellar, to'qmoqlar, toshlar yoki amortizatorlar bilan.
4. To'g'ri qo'llar bilan siltanish va keskin siltanish harakatlari bir

qo'l oldinga, ikkinchisi orqaga; shuning o'zini gantellar bilan; shuning o'zi, lekin har ikki qo'l bilan orqaga va yuqorida; qo'llarni ko'krak oldida bo'lgan holatdan (bukilgan qo'llar bilan) orqaga keskin siltanish harakatlari; qo'llar yuqorida va yon tomonda, bir qo'l yuqorida, ikkinchisi pasida turgan holatda keskin siltanish harakatlari.

4. Muvozanat saqlab bajariladigan mashqlar:

- qo'llarni gantellar, to'ldirma to'plar; toshlar bilan amortizator yoki blok moslamali asbobdagi og'irlik qarshiligidini yengib yon tomonda, oldinda, orqada 10-20 sek davomida saqlab turish;
- 10-20 sek davomida yotib osilish va  $30^\circ$ ,  $60^\circ$ ,  $90^\circ$  va  $150^\circ$  bukilgan qo'llarda osilib turish;
- 10-20 sek davomida tayanib yotish va  $30^\circ$ ,  $60^\circ$ ,  $90^\circ$  va  $150^\circ$  bukilgan qo'llarda tayanib turish.

5. Qo'l mushaklari va yelka kuraklari uchun bo'shashtiruvchi mashqlar:

- qo'llarni bo'shashtirrib turib, qo'llarni erkin siltash;
- bilak va butun qo'l mushaklарini navbatma-navbat bo'shashtirrib, qo'llarni pastga tushirish;
- dastlab qo'l mushaklari va yelka kuragini holatga keltirib olgach, oldinga engashib mushaklami bo'shashtirish.

### 10.3. Bo'yin va gavda mushaklari uchun mashqlar

Bosh va gavdani (qomatni bukib va to'g'ri tutib) orqaga, yon tomonga engashtirish. Engashtirish tik turgan holatdan boshlab: qo'llarni yuqorida, yon tomonda, bosh orqasida tutib, oyoqlarni kerib tik turish, polda va gymnastika o'rindig'ida o'tirib, shuning o'zi, lekin gymnastika tayoqchasi, gantellar, to'ldirma to'plar bilan, shtangani yelkaga qo'yib sherik va amortizatorning qarshiligidini yengib bajariladi. Bosh va gavdani o'ng-chap tomonqa burish. Bunda oyoqlarni kerib tik turish va oyoqlarni kerib o'tirish holatlarida bajarish qulay bo'jadi. Qo'llarning dastlabki eng qulay holati: gymnastika tayoqchalar bilan qo'llarni yon tomonda yuqorida tutish, shtangani yelkaga, kuraklarga yoki belga qo'yib turish qo'llarning dastlabki qulay holati hisoblanadi. Bosh va gavda bilan o'ng hamda chap tomonlarga aylama harakatlari qilish:

- oyoqlarni kerib tik turgan holatda, qo'llarni belda, bosh orqasida, yuqorida tutib bajarish;
- shuning o'zini gymnastika o'rindig'i yoki polda o'tirib bajarish, oy/oq uchlarni gymnastika devoriga tirab turriadi yoki shergi ushlab toradi;

d) shitangani yelkaga qo'yib yo to'ldirma to'pni yoki gantellarini yuqorida ko'tarib, butun gavda bilan aylanma harakat qilish.

- Tayanib yotib va orqada tayanib yotib, tizzalarga tik tayanib turib, gavdani bukish va to'g'rillash;
- oyoqlarni yotgan, o'tirgan, osilish va tayanish holatidan ko'tarish;

2. Muvozanatda bajariladigan mashqlar:

- osilish va tayanish holatlaridan oyoqlarni  $90$ - $60^\circ$  ga ko'tarib,  $5$ - $15$  daqiqa davomida ushlab turish;
- osilish va tayanish holatida oyoq bilan yuklами (to'ldirma to'p, gantellar, qum to'ldirilgan qopchalarni) ushlab turish;

3. Gavda va bo'yin mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar:

- oyoqlarni yelka kengligida kergan holda tik turib, oldinga engashib gavda va bo'yin mushaklarni bo'shashtirish;
- oldinga engashgan holatdan gavda va bo'yin mushaklarni  $90$ - $10^\circ$  tifqirish va uni asta-sekin kamaytirib, butunlay bo'shashtirish;
- o'tirgan, tizzalarda turgan va yotgan holatdan tana hamda bo'yin mushaklarni bo'shashtirish.

### 10.4. Oyoq mushaklari uchun mashqlar

- Oyoqlarni ko'tarish va tushirish:
  - tik turgan, o'tirgan va yotgan holatdan oyoqlarni oldinga, orqaga yon tomonlarga (sekin va tez) ko'tarish;
  - shuning o'zini amortizator qarshiligidini yengib bajarish yoki oyoq bilan biror og'irlikni, masalan, qum to'ldirilgan qopchani ko'tarish;
- Oyoqlarni bukish va to'g'rillash:
  - tik tuigan, o'tiigan, yotgan holatdan oyoqlarni oldinga, orqaga va yon tomonga bukish va to'g'rillash;
  - o'tirgan, yotgan, osilgan va tayangan holatda oyoqlarni bukish va to'g'rillash;
  - shuning o'zini oyoqlar bilan to'ldirma to'pni, qum to'ldirilgan qopchani ko'tarib turib bajarish;

- e) ikki va bir oyoqda, qo'llar bilan tayanim, tayammasdan yarinchcho'qqayish va cho'qayish (oyoq uchida va butun tovonda);
- f) shuning o'zini yuklar bilan (shtangani yelkaga qo'yib) bajarish;
- g) oldinga, orqaga, yon tomonga bir oyoqni bukib, keng qadam tashlash;
- h) shuning o'zini yuklar (to'idirma to'plar, shtanga, qum to Idi-rilgan qopchalar) bitan sakrash; cho'qqaygan, bir oyoqni bukib keng qadam tashlab turib, oyoqlarni keng kerib turgan holatda prujinasimon harakkatlar qilish;
- i) ikki oyoqda, so'ng bir oyoqda turgan joyda hamda oldinga silkib turib sakrashlar;
- j) shuning o'zini yuklar (to'idirma to'plar, shtanga, toshlar) bilan bajarish.
3. Tik turgan, o'tirgan va yotgan holatda tovon va oyoqlar bilan aylanna harakkattar qilish.
4. Tik turgan, o'tirgan, yotgan holatda oyoqlarni oldinga, orqaga, yon tomonlarga siltash. Siltashlar tayanchiga (gimnastika devorchasiga, qandaydir gimnastika jihoziga, stulga) suyanib va suyanmasdan qo'lda bajariladi.
5. Muvozanatda bajariladigan mashqlar:
- a) yarim shpagat va shpagatlarda (5,10,15, 20 daqqa) muallaq turish;
- b) oyoqlarni oldinga, orqaga, yon tomonga, bel balandligida ko'targan holatda 5-15 daqqa ushlab turish, shuning o'zini yuk (qum to'ldirilgan 0,5-2 kg og'irlidagi qopcha) bilan bajarish.
6. Oyoq mushaklarini bo'shashtirish mashqlari:
- a) tik turib, o'tirib yoki yorgan holatda oyoqlarni ko'tarish, mu-shakkarni bo'shashtirib siltash va yana tushirish;
- b) o'tirgan va yotgan holatda oyoqlarni bo'shashtirish;
- c) o'tirgan va yotgan holatda oyoq mushaklarini maksimal tarang tortib, keyinchalik ularni bo'shashtirish.
1. Qo'l harakkatlarini gavdaning oldinga (orqaga, yon tomonga) engashbirish va bir oyoqni oldinga (yon tomonga, orqaga bukib), keng qadam tashlash bilan bir vaqda bajarish.
2. Oldinga engashib, cho'qqayib qo'llarni oldinga (yuqoriga, orqaga) uzatish.
3. Qo'llarni yuqoriga ko'targan holda oyoqlarni navbatma-navbat

bukib va to'g'rilab gavdani aylanna harakatlantirish (gavda o'ng tomonga engashganda chap oyoq, chapga engashganda o'ng oyoq boshkiladi).

4. Tayanib yotish holatida qo'llarni bukib-yozish bilan bir vaqtda oyoqlarni ko'tarish va tushirish.

5. Tana bilan to'lqinsimon harakkatlar (harakat qo'llardan boshlanadi, keyin gavda va oyoqtar bilan davom ettiladi) qilish.

6. Chalqancha yotgan holatdan va orqaga engashib gymnastika devorchasiga orqa bilan turgan holatda sheriklari yordamida va mustaqil uko'prikocha mashqini bajarish.

7. Gimnastika devorchasida orqa bilan osilib turgan holatda oyoqlarni ko'tarib, oyoq uchini unga tekkizish. Shuning o'zimi oyoqlar bilan yuklar (to'idirma to'p, qum to'la qopcha) ko'tarib bajarish.

8. Tik turgancha bukilib orqa tomon bilan osilish holatidan (gimnastika devorchasida) oyoqlarni bukib va to'g'ri tutib, kerilib osilish holatiga o'tish; shuning o'zimi oyoqlar bilan yuklar (to'idirma to'p, qumili qopcha) ko'tarib bajarish.

9. Butun tana mushaklarini bo'shashtirish mashqlari:

a) yotgan holatdan butun tana mushaklarini bo'shashtirish;

b) yotgan holatda tana mushaklarini maksimal taranglatish, keyin-chulik bo'shashtirish;

d) bir guruh mushaklarini asta-sekin bo'shashtira borib, ayni vaqtda ikkinchilarini taranglatish.

10. Qomatni shakkantiruvchi mashqlar (navbatdag'i bo'limda yontiligan).

Jismoniy tarbiyaning umumrivojlantiruvchi mashqlari yordamida yechiladigan ayrim vazifalar mashqlarga xos xususiyatlarni va ularning tasnimini o'rGANIB, bu mashqlarning ta'sirini va umumlashtiruvchi mashqlar orqali jismoniy tarbiyaning qanday vazifalari hal qilinishini aniqlab olmoq zarur.

## **10.5. Sport mahoratini shakkantirish va rivojlantirishda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalananish**

- Kuchni umumrivojlantiruvchi mashqlar yordamida tarbiyalash har usullar orqali amalga oshiriladi:
- Takrorlash usuli.* Mashqlar odadagi tezlikda yukiarsiz yoki

gantellar (1-3 kg), to'ldirma to'plar (2-3 kg) yoki sherigi (rezinka amortizator) qarshiligi yengish bilan asosiy ish bajaruvchi mushaklar yaqqol charchagan holatigacha takrorlanadi. Ana shunday charchagan holatda mashqni yana 1-2 marta bajarish juda muhimdir. Chunki ayni shu oxirgi takrorlashlar kuchni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlarni 8-10 martadan ortiq takrorlamaslik zarur. Agar mashqni qutay bajarish mumkin bo'lsa, uni murakkablashirmoq zarur. o'n martadan ortiq bajariladigan mashqlar kuchni emas, balki tana chidamliligini rivojlantiradi.

Bir mashqning o'zini ko'plab takrorlash usuli boshlovchilar mashg'ulotida qo'llaniladi, chunki unda mushaklarning ko'p ishga solishi talab qilinmaydi, bundan tashqari, mashqning to'g'ri bajarilishini kuzatish uchun imkon bo'ladi.

*2. O'ta zo'r berish usuli.* O'ta zo'r berish bilan 3-4 martadan, ayrim vaqtida esa, faqat bir martadan ortiq takrorlab bo'lmaydigan murakkab mashqlar bajariladi. Mushaklarning o'ta zo'r qishti natijasida bosh miyaning katta yarimsharlariga boradigan impulslar oqimi hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvcining kuchi qanchalik katta bo'lsa, javob ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi, shunga ko'ra mushak to'qimasing funksional darajasi ham yuqori bo'ladi. Bu usul dastlab maxsus tayyorlarlikdan o'lgan shug'ullanuvchilarda qo'llaniladi.

*3. Izometrik usul.* Izometrik rejimda ishlashda egallangan holatni 5-6 daqiqa davomida ushlab turish lozim bo'lgan muvozanatlari mashqlarni bajarishda hosil qilinadi.

Izometrik rejimda ishslash, mushaklar zo'riqayotgan va bo'shashayotgan vaqdida sodir bo'ladi. Bunday rejim harakat jarayonida to'xtab-to'xtab ohista bajariladigan kuch mashqlari: tavanish va osiish holatida 3-4 marta to'xtab-to'xtab qo'llarni bukish va to'g'rilash, ayni shu hoi boshqa mashqlarni bajarishda ham qo'llaniladi. Bu usul yaxshi jismoniy tayyorlangan sportchilar uchun tavsiya qilinadi.

*4. Dinamik zo'riqish usuli.* Mashqlar yukiarsiz yoki kichik qarshilik bilan, lekin maksimal tezlikda bajariladi.

Dinamik zo'riqish usuli mashqlarning eng yuqori tezlikda va to'liq ko'landa bajarilishi hisobiga katta va maksimal mushak zo'riqishini talab qiladi. Bu mashqlar talabalarning jismoniy kuch sifatini rivojlantiribgina qolmay, balki tezkorlik sifati (tezlik kuchi)ni ham rivojlanitiradi. Shuni hisobga olish kerakki, kichiklashqi qarshiliklarni

yengib mashq bajarganda, maksimal kuch harakat tezligiga ta'sir qilmaydi. Bu usul yosh sportchilar uchun maqsadga muvofiq bo'ladi.

*5. Aralash usul.* Bir mashqning o'zi muayyan izchilikda: dastavval, dinamik, keyin izometrik rejim, undan keyin katta mushak zo'riqishi bilan va nihoyat ko'plab takrorlash usuli bilan bajariladi. Har bir takrorlashdan keyin 1-2 daqiqa tanaffus qilinadi. Hamma takrorlashlar 3-4 martadan qaytariladi.

Har xil sur'ada turlicha zo'riqish va mushaklar ish rejimini almashitirib bajariladigan umumirivojlantiruvchi mashqlar, kuch siflatlarini rivojlantirish uchun juda samarali ta'sir ko'rsatish mashqlari bo'lgan egiluvchanlikni muvaffaqiyatlari rivojlanishiga, bo'g'inlarda faol harakatchanalikni talab qiladigan harakatlarni bajarishda mushaklarni taranglashish va bo'shashtirishni to'g'ri taqsimlash zarur, bu esa, miya katta yarimsharlar qobig'ining muvoqilaqshirish faoliyatiga bog'liq.

Faol va sust egiluvchanlik mavjud. Egiluvchanlikni tarbyiyalash uchun turli uslublardan foydalananish zarur:

*1. Faol harakatlar usubi* – mashqlar qarama-qarshi mushaklarni cho'zish maqsadida harakatni katta ko'larda bajarishni ta'minlaydigan talablar qo'yiladi:

- a) mashqlarni borgan sari katta ko'lama bajarish;
- b) dastavval, qarama-qarshi mushaklarni taranglatish (mushaklar faol taranglashgandan keyin yaxshi bo'slashadi, demak, yaxshi cho'ziladi ham).

*2. Sust harakatlar usubi* – mashqlar sportchilarni sherkilari yordamida yoki harakat ko'lamini oshirish uchun yuklar bilan bajariladi va qo'llar bilan oyqqlarni gavda (gavdani oyooqlar)ga torish. Bunga quyidagi talablar qo'yiladi:

- a) biror mushakning og'rib qolishiga yo'l qo'ymaslik;
  - b) dastavval, mushaklarni faol harakatlar bilan ishlashiga erishish.
- Statik holatlar usubi* 10-20 daqiqa davomida tinch holatda ushlab turiladigan harakatlar (yotgan, o'tirganda tanani bukish, shpagat, ko'prik).

Aralash uslubida bajariladigan mashqlar bir necha bor qaytarib bajariladi, avvalo, faol harakatlar, keyin sust harakatlar va ulardan keyin statik holatlar bajariladi. Eng muhim mashqlarni birin-ketin bajarilishini o'zgartirmaslikdir. Tananing har bir qismi uchun harakat

soni esa, 15-20 tadan oshmasligi kerak.

Shuni yodda saqlash kerakki, ishga yaxshi kirishgan va charchamagan mushaklar yaxshiroq cho'ziladi.

Ma'lumki, taranglashish va bo'shashtirishning birin-ketin bajarilishi mushaklarni uzoq vaqt ishga layoqatli bo'llishini ta'minlaydi va harakatlarni to'liq ko'lama bajarish imkonini beradi. Undan tashqari, skelet mushaklarni erkın taranglashish va bo'shashtirish harakat malakasini tezroq shakllanturishga yordam beradi hamda harakatlarni yengil va erkin bajarish imkonini beradi.

Mushaklarni ixtiyoriy taranglashish va bo'shashtirishga o'rgatishda turli umumrivojlanuvchi mashqlar qo'llamiladi: bo'shashtirib siltash harakatlari, silkinishlar, ayrim mushak guruuhlarini (tik turib, o'trib, yotganda) taranglashish va bo'shashtirishni ketma-ket bajarish, bir mushakni taranglashish bilan bir vaqtda boshqa mushaklarni bo'shashtirish, kaft, bilak, yelka, gavda, oyoq mushaklarni birin-ketin bo'shashtirish.

## 10.6. Umumrivojlanuvchi mashqlar qomatni tarbiyalash vositasi

Qaddi-qomatni shakkallantirish va uning nuqsonlarini yo'qotish uchun orqa, qorin pressi va yelka kamari mushaklarining statik kuchini, shuningdek, umurtqa pog'onasining harakatchaligiga ko'proq e'tibor berigan holda tananing barcha mushaklarni bir tekis rivojlanirish zarur. Bu vazifa umumrivojlanuvchi mashqlar yordamida muvaffaqiyatli hal etiladi. Qaddi-qomatni shakkallantirish uchun talabalarni o'z qomatin rosttay biliшга va uni uzoq vaqt saqlab turishga o'rnatish zarur. Talabalarni to'g'ri qomatga xos xislatlami tarbiyalashga o'rgatish qaddi-qomatni rostlash mashqlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

1. To'g'ri qomat holatini tarbiyalash.
2. Shu mashqning o'zini talabalar bir-birlariga yordamlashib bajarishda ularning biri to'g'ri qomat holatini saqlab turadi, ikkinchisi

ensa, bu holatni qanchalik to'g'ri ekanligini yaxshilab ko'zdan kechirib chiqadi.

3. D.h. ensa, kurak, qo'lni va tovnlarni devorga tekkizgan holatda orqa bilan turish. Tananing hamma qismari holatini eslab qolish. Devordan uzoqlashish va o'sha holatni saqlab turish.

4. D.h. shuning o'zi. Tana holatni eslab qolish. Bir qadam oldinga yurib burilishlar va bosh bilan aylanna harakatlar bajarish. Yana boshni to'g'ri holatda tutib turish hamda bir qadam orqaga yurish va devor oldida turib, gavda holatini tekshirib ko'rish.

5. D.h. shuning o'zi. Devor oldida turib, bosh va tosni uzoqlashtirmasdan belni bukish va d.h.ga qaytish.

6. D.h. shuning o'zi. Bosh, orqa va tosni devordan uzoqlashtirmasdan o'tirish va turish, oyoqlarni ko'tarish va bukish.

7. D.h. shuning o'zi, holatni eslab qolish. Devordan uzoqlashib bosh, gavda, oyoqlar bilan bir necha harakatlar bajarish; to'g'ri qomat holatini qabul qilib, uning to'g'riligini devor oldida tekshirib ko'rish.

8. D.h. shuning o'zi, holatni eslab olish. Devordan uzoqlashib, to'g'ri holatni saqlagancha 5-6 daqiqa aylanib yurish; yana devor oidiqa borib holatni tekshirish.

9. Oyna oldida turib, to'g'ri qomat holatini qabul qilish. Bosh, gavda, oyoqlar bilan bir necha harakatlar qilish. Yana to'g'ri qomat holatini qabul qilib, uni oyna oldida tekshirib ko'rish.

10. Dir-birining to'g'ri turishini tekshirish.

11. Bir-biriga orqa o'g'irib turib, to'g'ri qomat holatini qabul qilish (orqaga aylanib qarab), bir-birining holatini tekshirish.

12. D.h. gimnastika tayoqchasini orqa umurtqa pog'onasi bo'ylab tik ushab, tik turish. Belni tayoqcha ensa va umurtqa pog'onasiga tegadigan qilib to'g'rilaش.

13. Chalqancha yotib, devor oldida tik turgan holatga o'xshagan holat qabul qilish va qabul qilingan holatni saqlagan holda qoringa to'g'darilish yotish.

Qomatini to'g'ri rostlangancha tegmaslik sharti bilan «quvlash-machoq» o'ynash.

Qayd qilingan mashqlarni bajarishda talabalar bu mashqlarning vazfasi nimadan iborat ekanligini, albatta, yaxshi anglab yetishlariga erishish kerak. Umumrivojlanuvchi mashqlarni bajarayotib ayrim mushak guruuhlariga alohida ta'sir qilinganda, rivojlanishdan orqada

qolgan mushaklarni mustahkamiash va qomat nuqsonlarini yo'qotish imkonini yaratiladi.

To'g'ri qomatni shakkantirish uchun mushaklarning taranglik darajasini boshqara olish va tik turganda, o'tirganda va yurganda gavda qismalarning holatini his qilish muhimdir. Faqat gavda qismalarning o'zaro joylanishini his qilgandagina to'g'ri qaddi-qomatga xos holatni qabul qilishga o'r ganish va mashq qilish orqali, uni malaka sifatida mustahkamiash inumkin. To'g'ri qomatni his qilish mashqlarigina bu vazifani hal qilish imkonini beradi.

Qomatdagi nuqsonlarni faqat umumrivojlaniruvchi mashqlar yordamida bartaraf etish mumkin.

Qomat bukkhaygan bo'lsa, diqqatni ko'proq umurtqa pog'onasining to'g'rilanishiga, yelka kamari mushaklarning mustahkamlanishi va ularning statik kuchini rivojlanitirishga qaratib, ko'proq umurtqa pog'onasi yuqori qismining harakatchanligini oshirishga yordamlashadigan mashqlarni bajarish zarur.

Lordoz (kerilgan) qomatda oldinga engashish mashqlari va qorin presssi, umurtoqa, bel mushaklarini mustahkamiash uchun gavda, tos, son bo'g'imida bukish, gavdaning orqa tomonidagi mushaklarini cho'zish (bu umurtqanning bel qismida bukiishini kamaytiradi) mashqlarini tavsiya qilamiz.

## 10.7. Harakatlarni shakkantirish va rivojlanirishda umumrivojlaniruvchi mashqlardan foydalanish

Umumrivojlaniruvchi mashqlar yordamida o'z harakatlarni idora qila bilishga o'regatish mumkin. Umumrivojlaniruvchi mashqlarni sekin (har bir harakatni 3-4 sanoda), tez (har bir hisobda) va maksimal tezlikda (shaxsiy sur'at signali buyicha) bajarish mumkin. Shunday qilib, shu mashqlar yordamida tez harakatlarning sekin harakatlardan farqimi, ya'ni vaqt birligini his qilishga o'regatish mumkin.

Umumrivojlaniruvchi mashqlarni katta, o'rta va kichik ko'landa bajarish orqali harakat faoliyatini fazoda his qilish qobiliyatiga o'regatish mumkin.

Umumrivojlaniruvchi mashqlarni bajarganda mushak ishga solish darajasini o'zgartirish-mashqlarni maksimal yoki minimal, kuch berish, yarimkuch bilan bajarish mumkin. Bunday topshiridlar

ishmug' ulanuvchilarga mushakning ishlash darajasini bilib olishga imkon beradi.

Umumrivojlaniruvchi mashqlarning harakat vaqtini, ularning ko'lomini va mushak ishga solish darajasini farqlash topshirilari bilan bajarish harakatlarni boshqarishni o'regatish imkonini beradi.

Bir harakatning o'zi sekin yoki tez bajarilishi, kichik va katta ko'lomda, mushaklarni maksimal va minimal kuch bilan bajarilishi juda muhimdir. Qarama-qarshi usulda bajariladigan harakatlar ularni yillashtiroq farqlash imkonini beradi.

## 10.8. Umumrivojlaniruvchi mashqlar yordamida to'g'ri nafas olishni tarbiyalash

Insonning ichki organlari uning harakatlari bilan o'zaro aloqadordir. Harakat vaqtida oddamning yurak tomiri urishi oshadi, nafas olishi tozleshadi, bu esa, ovqat hazm bo'lishiga va qon aylanishi tarmog'iga qolby ta'sir qiladi. To'g'ri nafas olish qon aylanish va nafas olish organlarning rivojlanish jarayoni yaxshilanishiga yordam beradi va unch holada mushaklar ish bajargan vaqtida organizmning hayotiy holiyatini saqlab turish uchun kam quvvat sarflanishni ta'minlaydi.

To'g'ri nafas olishni o'r ganish uchun nafas olish turli va nafas olish qoidasini bilish lozim. Nafas olish uch xil bo'ladi: ko'krak qafasi yoki qovurg'a bilan qorin yoki diafragmali hamda aralash nafas olish. Ko'krak qafasi bilan nafas olishda, nafas olish ko'krak qafasining kengayishi hisobiga, nafas chiqarish esa, qovurg'alarning tushishi va ko'krak qafasi hajmining torayishi hisobiga sodir bo'ladi.

Qorin bilan nafas olishda, nafas olish diafragmasing ko'tarilishi va tushishi, shunga ko'ra esa, ko'krak qafasi hajmining yuqoridan pastga kengayishi, nafas chiqarish esa, ko'krak qafasi hajmining torayishi va diafragmaning ko'tarilishi hisobiga sodir bo'ladi. Diafragma ko'lamining 1 sm ga oshishi ko'krak qafasining hajmini 250 sm<sup>3</sup> ga oshiradi.

Aralash nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish ko'krak qafasini oldinga, orqaga, yon tomonga va yuqoridan pastga kengayishi hamda tonayishi hisobiga sodir bo'ladi. Bu esa, chuqur va to'liqroq nafas olishga imkon beradi.

• nafas olish qoidasi:

- ortiqcha zo'riqmasdan sodir bo'lishi kerak;
- nafas chiqarish nafas olishga nisbatan uzoqroq davom etishi kerak;

• nafas olish hisobiga - nafas chiqarish;

• 3-sanoqda nafas olish, 3-sanoqda-nafas chiqarish;

- 4-sanoqda nafas olish, 4-sanoqda chiqarish, 6-sanoqqacha davom etadi.

Mushaklar ish bajarayotganda harakat fazalariga moslab nafas olinishi kerak: nafas olish – mushaklar kam ishga solinganda va ko'krak qafasi kengayganda, nafas chiqarish esa, mushaklar ancha tarang tortilgan vaqtida va ko'krak qafasini qisadigan harakat bajarilayotgan chog'da sodir bo'lishi kerak.

Harakat faoliyati davomida u yoki bu mushaklar guruhlarining ishga tushishi natijasida nafas olishning u yoki bu xili ko'proq sodir bo'lishi mumkin. Faqat qulay sharoitda emas, balki qiyinlashgan sharoitda ham chuqur nafas olishga o'reganish kerak, buning uchun maxsus mashqlar tavsya qilamiz:

D.h. tik turish. Ko'krak qafasini tortib cho'zibroq, 3-sanoqda nafas chiqarish. Ko'krak qafasini ko'tarib va kengaytirib, 2-sanoqda nafas olish. Mashqni takrorlab 4 martadan qaytarish, takrorlash orasida 30 daqiqqa dam olish (ko'krak qafasi), shuning o'zini o'tirib va chalqancha yotib bajarish.

Shuning o'zi, lekin 5-6-sanoqda nafas chiqarish va 4-sanoqda nafas olish.

D.h. chalqancha yotib, qo'llar bosh orqasida yoki pasida, ko'krak qafasini ichkariga tortib uzoq vaqt (4-6-sanoqda) nafas chiqarish.

Ko'krak qafasini ko'tarib, 3-4-sanoqda nafas olish. Shuning o'zini o'tirgan va tik turgan holatda bajarish (ko'krak qafasi).

D.h. chalqancha yotib, kaftlar qoringa qo'yijiadi. Qorin mushaklarini taranglashtirib va qorinni ichkariga tortib, 6-8-sanoqda uzoq nafas chiqarish. Qorinni tarang qilib, 3-4-sanoqda nafas olish. Barmoqlar bilan yengil bosib, qorinning taranglashishi kuzatiladi (qorin pardasi). Shuning o'zi, lekin nafas chiqarishda kaft bilan qorinni bositish. Shuning o'zini o'tirgan va tik turgan holatda bajarish.

D.h. oyoqlarni kergan holatda tik turib, qo'llar bosh orqasida Qorinni shishbirib, 2-sanoqda nafas olish. Oldinga engashganda qorinni

ichkariga tortib, 4-sanoqda nafas chiqarish.

D.h.chalqancha yotish. Qorin mushaklarini taranglashtirib, ko'krak qafasini ichkariga tortib, qo'llarni qorin ustida chalishashtirib, yelkalami bir biriga yaqinlashtirib uzoq vaqt (6-sanoqda) nafas chiqarish. Qorinni shishashtirib va ko'krak qafasini kengaytirib, 4-sanoqda nafas olish, bunda qo'llar bosh orqasida bo'ladi. Mashq o'tirgan holatiga kelish va d.h.ga qeytish bilan ketma-ket bajariladi. To'rt marta takrorlangandan keyin ikki marta o'turish holatiga o'tib, d.h.ga qaytish (aratash nafas). Shuning o'zini studia, o'rindiqda o'tirgan holatda va oyoqlarni kerib, tik turgan holatda bajarish.

Nafas olishni qadamlar bosish bilan moslab, sekin (2-3 min) yurish: to'rt qadamda – nafas chiqarish va ikki qadamda nafas olish (aratash nafas olish).

D.h. chatqancha yotish. Qorinni tarang qilib va ko'krak qafasini kengaytirib (2-3 hisobda) nafas olish; oldinga engashib o'tirgan holatda 4-6 hisobda nafas chiqarish. Mashq 4-6 marta takrorlanadi (aratash nafas).

Talabatamni turli gymnastika mashqlarini bajarganda nafas olish ritmini kuzatishga, qachon nafas olishning u yoki bu xildan foydalanish kerakligini aniqlashga o'regatish lozim. O'ratcha zo'r berib 10 bajarilganda va unda hamma mushaklar qatnashgan hollarda aralash nafas olishdan foydalanish tavsiya qilinadi. Agar qorin mushaklari turanglashtirib bo'lib, og'ir ish bajarilisa (burchak hosil qilib osilish va tuyanish) ko'krak bilan nafas olish, yelka kamari mushaklari o'ratcha turanglashtirganda (gorizontal osilish, tayanish, qo'llarda tik turish) esa, qorin bilan nafas olish maqsadga muvofiqdir.

## 10.9. Umumrivojlantruvchi mashqlardan foydalanish metodlari

Ginnastika mashq'ulotlarida umumrivojlantruvchi mashqlar takrorlab, maxsus tuzilgan mashqlar to'plamasi shaklida bajariladi. Alovida mashqlar yoki ularning takrorlanishi jismoniy sifatlarni tarbyyalash va rivojlantirish uchun bajariladi. Umumrivojlantruvchi mashqlar to'plami jismoniy tarbiya fanining turli xil vazifalariga mos qilib tuziladi. Bu mashqlar gigiyenik ginnastika mashq'ulotlarida eng lamdashtirish maqsadida qo'llaniladi, ginnastika darslarida esa,

ular shug'ullanuvchilarni kelgusidagi ishlarga va murakkab mashqlarni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Mashqlar to'plamini tuzishda mashq'ulotlar o'tkaziladigan joy, vaqt va shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligini hisobga olish kerak. Dastavval, to'planga kiritiladigan mashqlarning (maqsadiga qarab) hajmi va mazmunini, ya'ni zarus bo'lgan mashqlarni tanlab, ularning sonini belgilash zarus (to'plamda ularning soni 8 tadan 15 tagacha bo'lishi mumkin).

Mashqlarni tanlaganda mashqlar to'plamasining vazifasiga mos keiishimi nazarda tutish kerak. Mashqlarni shunday tanlash kerakki, avvalo, ular talabalar organizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatsin va ularning asosiy jismonti sifatlari rivojlanishini ta'minlasin. Mashqlar talaba qomatining shakllanishi va o'z harakatlarini boshqara olishini, o'zlashtirishni ta'minlashi kerak. Mashqlaryetari darajada oson bo'lishi, ya'ni shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligiga mos kelishi lozim.

Shuni yodda saqlash kerakki, umunrivojlantruvchi mashqlarni o'rgatishda «oddidiyan murakkabga» va «osondan mukammalga» tamoyiliiga qat'iy roya qilish darkor.

To'plamda mashqlarni bajarish navbatini belgilayotganda, quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- to'plamda birinchini to'g'ri qomatni his qilish mashqining (bu ayniqsa, bolalar va o'spirinlar uchun muhimdir) bo'lishi;
- ikkinchi va uchinchi mashqlar asosiy mushak guruhlari ishtirok etadigan (oyoqlarni baland ko'tarib turgan joyida yurish, oldinga engashib va qo'l harakkatlari bilan cho'qqayib o'tirishlar, engashib bir yoqiqi bukit qadam bosish va boshq.) oddiy maslqlar bo'lishi kerak. Bu umumiy ta'sir ko'rsatuvi mashqlar organizmning barcha organ va tizimlari faoliyatini faollashtiradi.
- To'plandagi navbatdagi mashqlar ko'proq turli mushak guruhlarini harakatga ketiradigan (qo'l va yelka kamari uchun, bel, qorin mushaklari, oyoq) mashqlardan iborat bo'lishi lozim. Bunda gavdaning turli qismlari navbatma-navbat ishga kirishishi kerak. Bu mashqlarning birinchi takrori quyidagi tartibda bajariladi: qo'l va yelka kamari, bel, qorin mushaklari va oyoq mashqlari. Ikkinci va uchinchi takrorlashda ham xuddi shu holatda, lekin murakkab va jadal bajariladi.
- Mashqlarning bunday takrorlanishi yuklamani asta-sekin oshirish

Va gavdaning har xil qismlari ishini takrorlash imkonini beradi. Bu ekin, mushak ishishi samarasini oshiradi va faoliyat ko'rsatayotgan mushaklarning faol dam olishi uchun sharoit yaratadi. Keyinchalik to'planga gavdaning barcha qismlari uchun mo'ljallangan 2-3 ta morakkab mashqlar qo'shiladi.

Odatda, kuchni tarbiyalovchi mashqlar, cho'zilish mashqlaridan oldin bujordishi kerak, chunki mushaklar dastavval qizdirilmasa, mushak tola va bo'g'inlarni ortiqcha cho'zib yuborib jarohatlash mumkin. Qattingishlashdan keyin bo'shashtirish mashqlarini bajarish maqsadga muvoqeqdir.

To'planni oxirida nafas olishga o'rgatadigan o'rtacha jadallikkagi mashqlar bajariladi. To'plam to'g'ri qomatni his qildiradigan mashqlar bilan yakuulanishi kerak.

To'planda mashqni 4-8 marta takrorlash, kuchni rivojlantruvchi mashqlarni asosiy ish bajaruvchi mushak guruhalrida charchash bezilgunga qadar, egiluvchanlikni rivojlantruvchi mashqlarni esa, yengil og'nq sezgunga qadar bajarish mumkin.

Umunrivojlantruvchi mashqlar har xil usullar bilan o'rgatiladi:

1. *Ko'rsatish usuli.* Mashq sportchilarga qarab turib, xuddi «oynatdигdeк» usulda ko'rsatiladi. Boshlash uchun «Dastlabki holatga (bujurish usuli aytiali-sakrab, qadamlab) TURING!» buyrug'i beriladi. Agar biror talaba xatoga yo'l qo'ysa, «Qaranglar, men qanday bajaraman» ko'rsatmasi beriladi.
2. *So'ngra* «Mashqni men bilan birga BOSHLANG!» buyrug'i beriladi. O'qituvchi mashqni guruh bilan birgalikda 2-3 marta bajaradi. Agar xatolarga yo'l qo'yilsa, «Diqqat bilan menga qaranglar va qo'l harakatiga (yoki gavdaning boshqa qismiga) e'tibor beringlar!» ko'rsatmasi beriladi.

3. Umunrivojlantruvchi mashqlarni 1-2-sinf o'quvchilari bilan o'tganda jami harakatlar buyruqqa binoan emas, balki topshiriq bo'yicha hujoriladi. O'qituvchi: «Mendek dastlabki holatni qabul qilingiar, diqqat bilan qo'l, gavda, oyoqlaringa qaranglar. Mashqlarni men bilan birga BOSHLANG!», «Diqqat bilan qarab, mendek bajarilgan», deb aytadi. Bu holda mashqni tugallash uchun «mashqni tugating» topshirig'i beriladi.
4. *Tushuntirish usuli.* O'qituvchi mashq boshlash uchun kerakli bo'lgan dastlabki holatni aytadi va birinchi, ikkinchi va h.k. sanoqlarda

nima qilish kerakligini tushuntiradi.

Keyin u «Dastlabki holatni qabul QILING!» buyrug'ini beradi. Bajarilishini tekshiradi va navbatdag'i: «Mashqni (qaysi tomonga bajarilishini aytadi) BOSHLADIK!» buyrug'ini beradi va harakat davomida har bir sanoqda nima qilish kerakligini quyidagicha aytib turadi: «Qo'llar yuqoriga, oldinga engashning, to'g'rilang».

Kichik sinflarda o'qituvchi tushuntirishda atamalar qo'llamaydi, balki faqatgina nima qilish kerakligini tushuntiradi. Masalan, «Oyoqlarni kerib, qo'llarni belga qo'yinglar. Oldinga engashninglar va kafslarni polga tekkizinglar, hamma bajarsin! Engashing, rostlaning, davom eting! Yana bir marta!».

Bir vaqtida ham ko'rsatish, ham tushuntirish usuli. O'qituvchi mashqni ko'rsatayotib, uni qanday bajarish kerakligini tushuntiradi va eng qiyin joylariga e'tiborni qaratadi. So'ngra tushuntirish orqali o'rnatishda mashqlarning bajarilishi davomida doimo talabalar harakatini to'g'rilab borib, uni to'g'ri bajarilish usulini aytil turadi.

3. *Mashqlarni qismrlarga ajratib ko'rsatish usuli*. O'qituvchi: «Dastlabki holatni QABUL QILING!» buyrug'ini beradi (uni ko'rsatadi yoki tushuntiradi) keyinchalik esa, «Cho'qqayib tayaning - BIR!» buyrug'mi berib, mashqlarni to'g'ri bajarilishini tekshiradi, agar talabalar xatoga yo'l qo'yishsa, uni to'g'ri bajarishni talab qiladi. «Tayanib yot! IKK!» (to'g'ri bajarish to'g'risida yana ko'rsatmaberadi). «Qo'llarni bukib - UCH!» va h.k. buyruqlarini beradi. Butun mashqni qismrlarga ajratib, tuzatishlar va aniqliklar kiritilib bajarilgandan so'ng, «Mashqlarning hammasini to'liq BAJAR!» topshirig'i berildi.

Bunday usulni qo'llash mashq'ulotlarning yuqori saviyada o'tishini ta'minlaydi. Talabalarning e'tborini oshiradi, harakkatlarni aniqlashtirib, ularni to'g'ri bajarishga imkon yaratadi.

4. *O'yin usuli*. Kichik makkab yoshidagi bolalar o'yinlarga va fantaziyaga moyil bo'lishadi. Ular turli harakkatlarni o'yin tarzida oson tasavvur qila olishadi, shuning uchun ko'pgina mashqlarni mazmunan o'yin singari o'tish mumkin. Mashg'ulotlarda o'z ifodasi va mazmuniga ko'ra, turli harakkatlarni bajarishni talab qiladigan: «Taqiqlangan harakat», «To'plarni doira bo'ylab uzatish», «Quvlashmachoq», «Kun va tun» kabi harakatlari o'yinlar qo'llaniladi.

Mashqlarni signal bo'yicha ham bajarish mumkin: o'qituvchi

qo'llarini yon tomoniga ko'taradi (bayroqcha bilan bo'lsa, yanada ma'qul). Bu belgi bo'yicha o'quvchilar cho'qqayib tayaniishlari va d.h.ga qaytishlari, qo'llarni belga qo'yish, signal bo'yicha esa, tizzalarda tik turib orqaga engashishlari kerak: qarsak chalib, zalda erkin yurishga va o'ynashga ruxsat etiladi, hushtak chalinganda esa, hamma tezda o'z joyiga turishi ketak. O'z joyimi kimki tezroq egallasa, shu g'olib chiqadi. 3-4-sinflarda: «Qarmoqcha», «Xo'rozlar jangi» (o'g'il bolalar uchun), «To'p bilan urish», «Doirada yoki chiziqdan bir-birini tortib olish», «Kun va tun» (murakkabroq mashqlarni kiritib), «Ketma-ketda to'dirma to'plarni uzarish» (turli usullarda), o'quvchilardan biri o'z jumoasi oldida poldan 10-20 sm balandlikda o'tkazadigan gymnastika tuyoqchasi ustidan (ketmeketda turib) «Sakrab o'tish» kabi o'yinlar qo'llaniladi.

#### Nazorat savollari:

1. Sport mahoratini shakllantirish va rivojlanantirishda umumri-vojlantiruvchi mashqlardan foydalanish.
2. Mashqlarni qismrlarga ajratib ko'rsatish usulini tushuntiriting.
3. Sust harakkatlar uslubini tushuntiriting.
4. Aralash usul borasidagi fikringiz.
5. Faol harakkattar uslubini tushuntiriting.
6. Nafas olish qoidasi qanday amalga oshiniladi.
7. Statik holatlar uslubini tushuntiriting.

## XI BOB. GIMNASTIKADAN SAFLANISH MASHQLARI

### 11.1. Saflanish mashqlarining tasnifi

Saflanish mashqlarining tasnifi bu – saf usullari, saflanish va qayta saflanish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish usullari, orani ochish va yaqinlashtirishlar kiradi. Saf mashqlari yordamida jamoa bo'llib harakat qilish, ritm va shiddat hissiyotini tarbiyalash masalalari muvaffaqiyatli bajariladi, intizomlilik va uyushxoqlik ortadi.

Saf mashqlarining muhim ahamiyati shundan iboratki, ular kishi qaddi-qomatini rostlashga yordam beradi. Bu narsa harbiylarning qaddi-qomatni to'g'ri tuzilishida yorqin ko'rinish turadi. Talabalarni zalda yoki maydonchada tez va maqsadga muvofiq joylashtirishga imkon beradigan saf mashqlariz gymnastika mashq'ulotlarini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'p sonli talabalar qatnasha oladigan saflanish turlarining ko'pligi tufayli saf mashqlari ommaviy gymnastika chiqishlarining tankibiy qismini tashkil qiladi.

Safdag'i harakatlар va buyruqlarning ko'pgina qismi O'zbekiston Qurolli Kuchlari Ustavining saf harakatlari direktivasiidan, ozroq qismi esa, gymnastika mashq'ulotlari jarayonida amaliyotda qo'llaniladigan atamalardan foydalaniligan.

Ushbu bobda gymnastika amaliy mashq'ulotlarida ko'proq uchray-digan va mashq'ulot o'tishda zarur bo'lgan saf mashqlari yoritilgan. Saf mashqlaridan foydalanish qulay bo'ishi uchun gymnastika zalida shartli nuqtalar belgilanadi – markazi, o'r talik va burchaklari.

Ular zalning o'ng chegara tomoniga nisbatan belgilanadi. Zalning o'ng tomoni nisbatan (eshiklar joylashgan) uzun tomonlaridan biri bo'lib, unda mashq'ulot oldidan guruhlar saflanadi (odatta, eshikdan kirishga qaramana-qarsili tomonda). Agar zalning uzun tomonida derazalar joylashgan bo'sa, guruh derazalarga orqasi bilan saflanadi.

Saf mashqlari quyidagi to'rt guruhga bo'linadi:

1. Saf usullari.
2. Saflanish va qayta saflanishlar.
3. Joydan joyga ko'chish.
4. Orani ochish va jipslashish.

Saf mashqlarini qo'llanishdagi asosiy tushunchalar o'rgailadi.

*Saf* – talabalarning darsda birgalikda harakatlanishi uchun belgilangan qoidaga ko'ra tiziladi.

*Qator* – shug'ullanuvchilarining bir chiziqa yonma-yon turishi.

*Ketma-ket qator* – shug'ullanuvchilarining bir-biri orqasida tizilishi.

*Boshlovchi* – ketma-ket qatoqda birinch – boshida turgan o'quvchi (talaba).

*Oxirgi* – ketma-ket qator oxirida turgan o'quvchi (talaba).

*Front* – shug'ullanuvchilar safining old tomoni (qatorda).

*Ichkari* – front teskarisi, ya'ni orqa tomoni, 2-, 3-, 4-qatorlar.

*Qator* – safning chap yoki o'ng tomoni.

*Saf chuquqtig'i* – ketma-ket qatordag'i boshlovchidan oxirgi o'quvchi (talaba) orasidagi masofa.

*Safkengligi* – o'ng qanotdan chap qanotgacha bo'lgan masofa (qatorda).

*Masofa* – yonma-yon turgan shug'ullanuvchilar orasidagi masofa (ketma-ket qatorda).

*Oraliq* – front bo'yicha shug'ullanuvchilar orasidagi masofa.

Mashq'ulotda safni o'qituvchi va talabalar (guruh sardori, o'quv bo'limlarining boshlqlari va navbatchilar) tovush yoki belgilangan signal bilan beriladigan buyruq, topshiriqlar berish orqali tuzadilar. *Zich saf* – talabalarning qatorda bir-biridan kaft kengligidagi (tirsaklar o'rtasi) oralig'ida yoki ketma-kettarda bir-biridan oldinga uzatilgan qo'l uzunligidagi masofadan iborat safdir.

*Orasi ochiq saf* – talabalarning qatorda bir qadam oraliqda yoki o'qituvchi belgilab bergen oraliqda joylanishidan iborat safdir.

### 11.2. Saflanish usullari

*Saf usullari* – turgan joyda ijro etiladigan saf harakatlaridan iborat. Bu mashqlarning ahamiyati, eng avvalo, shundan iboratki, ular yordamida intizom va uyushxoqlik tarbiyalanadi.

1. «SAFLAN!» Bu buyruqqa ko'ra, talabalar safda turadilar.
2. «TEKISLAN!» Bu buyruqqa ko'ra, talabalar bir chiziqa tekislanaadilar, chapga «tekislam», o'ngga «tekislam».
3. «ROSTLAN!» Bu buyruqqa ko'ra, talabalar safda tik turadilar.
4. «QAYTARILSIN!» Ushbu buyruqqa ko'ra, oldingi holatga

qaytiladi.

5. «ERKIN!» Bu buyruqqa ko'ra, talabalar turgan joylaridan jilmasdan, bir oyoqni tizzadan bo'shatib, erkin turadilar.

6. «O'NGGA!» (chapga) «ERKIN!» talaba o'ng (chap) oyoqni o'ng (chap)ga bir qadam qo'yib, gavda og'irigini har ikki oyoqqa taqsimlaydi va qo'llarini orqaga tutadi.

7. «GURUH TARQAL!» buyrug'i berilganda, talabalar safdan chiqib, zalda (maydonda) erkin joylashadilar.

«Guruh, oralarni o'nga (chapga, o'rta) ikki yoki uch qadanga kengaytiring!». Bu buyruq safdag'i talabalarni bir-birlaridan oralari ochiq bo'lgan safga aytildi.

Guruhni yig'ish uchun turgan joyda «Guruh, o'ng (chap, o'rta)ga JIPSLAN» buyrug'i beriladi.

8. «GURUH tartib bilan SANA!», «Bo'llin, birva ikkiga, uchga (to'rt, besh va h.k.) SANA!» va boshqalar, hisob o'ng qanotdan boshlanadi. O'z tartib raqamlarini aytayotgan talaba ayni vaqtida boshini tez chap tomondagi talabaga qaratib buradi va keyin dastlabki holatga qaytadi.

9. Turgan joyda burilishlar (buyruqlar «O'ng-ga!», «Chap-ga!», «Ort-ga!», «Yarim chap-ga!»). Ayrim hollarda buyruqlarni topshiriqlar bilan almashtirish mumkin, biroq qayd etilgan mashqlar (turgan joyda burilishlardan tashqari) buyruqqa ko'ra bajarilishi lozim.

### 11.3. Saflanish va qayta saflanish

*Saflanish* – talabalarning o'qituvchi buyrug'idan so'ng bironbir safda turish uchun bajariladigan harakatdir. Saflanishlarda, o'qituvchi barcha talabalar ko'ra oladigan joyda turishi shart. Mashg'ulot oldidan guruh qoida bo'yicha bir qator bo'lib, ayrim hollarda esa, ikki qatorda saflanadi.

Saflanish uchun: «Bir, ikki, uch qatorga SAF-LAN!» buyrug'i beriladi. Buyruq berilishi bilan guruh sardori yoki navbatchi safning oldi moniga qarab «ROST-LAN!» holatida turadi, guruh uning chap tomonida saflanadi.

Guruhning mashg'ulotga tayyorligi to'g'risida report berishdan oldin sardor (navbatchi) guruh safini tekislaydi, uni sanatib chiqadi so'ng, «ROST-LAN!», «O'NG-GA TEKIS-LAN!», ((CHAP-GA!», «O'RTA-GA») buyrug'ini beradi.

Guruh sardori (navbatchi) o'qituvchiga 2-3 qadam yetmasdan (shuxdam qadam bilan) to'xtaydi va rapport beradi: «O'rtoq o'qituvchi!

fakultetining ... kurs ... guruhi mashg'ulot o'tish uchun saf-landi. Ko'yxat bo'yicha ... kishi, safda ... kishi. Sardor (navbatchi)...». Keyin eng qisqa yo'l bilan o'qituvchi turgan tekislikka borib, safga qarab turadi. O'qituvchi salomlashib, guruh javob qaytargandan so'ng guruh mardori (navbatchi) o'qituvchining «ERKIN!» buyrug'ini takrorlaydi va hafning o'ng qanotiga turadi.

Saflanish va rapport berishni tantanali ruhda o'tkazish lozim. Mashg'ulot bosланishidan oldin rapport berilishiga o'qituvchining jiddiy munosabatda bo'tishi, uning tashti qiyofasi va qaddi-qomati bu an'anuning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatishi lozim.

*Ketma-ket qatorga saflanish* – «Ketma-ket qatorga (bir, ikki, uch va h.k.) SAF-LAN!» buyrug'iga binoan bajariladi. Guruh o'qituvchi (navbatchi)ning qo'li bilan ko'rsatgan tomonda bajariladi.

Buyruq bo'yicha qator, ketma-ket, doira va h.k. bo'lib saflanadi. Masalan, «Doiraga ...!», «Ikki qatorga ...!»

*Bir qatorдан ikki qatorga qayta saflanish*. Dastlab «birinchisi» va «ikkinchiga» sanab chiqilgandan so'ng, «Ikki qatorga SAF-LAN!» buyrug'i beriladi. Bu buyruqqa ko'ra, ikkinchi raqamdagilar chap oyoqni bir qadam orqaga qo'yadiilar (hisob «bir»), o'ng oyoqni juftiamasdan orqasiga o'tgan holda chap oyoqni juftlaydilar (hisob «uch»).

*Bir qatordan uch qatorga qayta saflanish*. Dastlab sanab chiqilgandan so'ng quyidagi buyruq beriladi: «Uch qatorga SAF-LAN!» Bu buyruqqa ko'ra, ikkinchi raqamdagilar joyida turadilar, birinchi raqamdagilar o'ng oyoq bilan bir qadam orqaga, chap oyoqni juftlamasdan turib, oldinga bir qadam qo'yadilar va o'ng oyoqni juftlab, ikkinchi raqamdagilarni orqasiga o'tadilar. Uchinchi raqamdagilar chap oyoq bilan bir qadam oldinga, o'ng oyoqni juftlamasdan yonga qadam tashlaydilar va chup oyoqni juftlab, ikkinchi raqamdagilarning oldiga o'tib turadilar. Ayvalgildek, saflanish uchun quyidagi buyruq beriladi: «Bir qatorga SAF-LAN!» Qayta saflanish, saflanishga teskarri tartibda o'tkaziladi.

*Qatordan qirra bo'lib qayta saflanish*. Guruhda dastlabki samoq, o'tkazilgandan keyin buyruq beriladi («6-3 joyida», «6-4-2 joyida» va h.k.), so'ng quyidagi buyruq beriladi: «Samoqlar bilan QADAM BO'SI!» Talabalar samoq, bo'yicha zarur bo'lgan qadamni tashlab, so'ng

yoqlarini jiftlashadi. O'qituvchi birinchi qator to'xtagunga qadar sanab turadi. Samoq, 6-3-joyida deb sanalganda 7 gacha; 9-6-3-joyida deb sanalganda 10 gacha olib boriladi.

Qayta saflanish uchun quyidagi buyruq beriladi: «loyda QADAM BOS!», safdan chiqqanlaming hammasi orqaga burilib, o'zjoyalarga qaytadilar, joylariga yetgach, yana orqaga burladilar.

O'qituvchi safni oxiridagi talaba turib, orqaga burilgunga qadar («bir» «ikkii» deb) sanab turadi.

Qator guruhlarning qamotini aylanib o'tib, ketma-ket qatorga qayta saflanishi. Dastlab uchtdidan, to'rttadan va h.k. deb sanalgandan keyin quyidagi buyruq beriladi: «Guruh, ketma-ket qatorga (3-4 va h.k.), oldinga chap (o'ng) yelka bilan QADAM BOS!» Bu buyruqqa ko'ra, sanab chiqilgan guruhlar front bo'ylab tekislikni saqlagan holda ketma-ketlik hosil bo'lgunga qadar, qanot bilan oldinga yuradilar. Ikkinchisi buyruq: «Guruh, TO'XTA!» Yana qayta saflanish uchun quyidagi buyruqlar beriladi:

1. «ORTGA!»

2. «O'ng (chap) yelka bilan oldinga. Bo'lin bilan bir qatorga QADAM BOS!»

3. «GURUH TO'XTA!»

So'nngi buyruq talabalar qatordagi o'z joylariga yetgan vaqtda beriladi.

*Uch «qirra bo'lib», bir-ketma-ket qatordan qayta saflanish.* Uchgacha sanab chiqigandan keyin quyidagi buyruq beriladi: «Birinchi raqam ikki (uch, to'rt va h.k.) qadam o'ngga, uchinchi raqam ikki (uch to'rt va h.k.) qadam chapga QADAM BOS!» Yana avvalgi holatga qayta saflanish uchun quyidagi buyumq beriladi: «Joyda QADAM BOS!» Qayta saflanish juft qadam bilan bajariladi (113-rasm).

*Yurib ketayotganda bir-ketma-ket qatordan ikki, uch va h.k. ketma-ket qatorlarga burilib, qayta saflanish. Guruh, chapga aylanib- yurib ketayotganida quyidagicha buyruq beriladi: «Bir ketma-ket qatordan ikkiaga (uch, to'rt va h.k.) tiziishga QADAM BOS!» (qoida bo'yicha, buyruq gurunga zal yoki maydonning yuqori yoki pastida bo'lgan chog'da beriladi). Birinchi ikki talaba (uch, to'rt va h.k.) burilgandan oldindagilar o'z saflarining oxiridagi talabaning buyrug'i bilan, ochib o'tirmaslik uchun shu yemding o'zida oraliqva masofa to'g'risida*


ko'rsatma berish mumkin (7-(a,b,c,d,e,f,g,h,i,j,k,l,m) rasm).

Yana avvalgilidek saflanish uchun buyruqlar beriladi:

• «O'NGGA!»

• «O'ng (chap)ga bir ketma-ket qator bo'lib, bittadan avlanib QADAM BOS!»

O'rgatayotgan paytda, guruhdan bir necha talabani olib, buyruqlar berladigan joylarda to'xtatib, qayta saflanishi ko'rsatish maqsadga muvofiqdır.



7-rasm

Bir ketma-ket qatomni ikki, to'rt, sakkiz ketma-ket qatorga bo'lish va birkirish orqali qayta saflanish. Qayta saflanish harakat davomida bujuriadigan buyruqlar:

«Markaz orqali QADAM BOS!» (odatda, bu buyruq zalning o'rjasida beriladi).

«Ketma-ket qator bilan bittadan o'ngga va chapga aylanib QADAM BOS!».

Buyruq ro'paradan beriladi. Bu buyruq bo'yicha bininchı raqamdagilar o'ngga, ikkinchi raqamdagilar chapga aylanib yuradilar.

«Markaz orqali ketma-ket qator bilan ikkitadan QADAM BOS!»

Bu buyruq ketma-ket qator zalni qayta saflanish boshlangan joyida uchrashtgan paytda beriladi.

Bo'lish va biriktirish davom ettiliganda, to'rt, sakkiz va h.k. ketma-ketlikda saflanish mumkin.

Talabalarni avvalgi holiga qayta saflash, ajratish va qo'shilish deyiladi, masalan, ikki ketma-ketdan bir ketma-ketga qayta saflash. Buyruq: «O'ngga va chapga aylanib, bittadan ketma-ketga QADAM BOS!». Bu buyruq bo'yicha o'ng tomondagi ketma-ket o'ngga, chap tomondagi ketma-ket chapga yuradi. Qarama-qarshi harakatda o'tada ketma-ketlar uchrashtib qolganda, quyidagi buyruq beriladi: «Ketma-ketga bittadan markazdan QADAM BOS!»

#### 11.4. Joydan joyga ko'chishlar

Bu guruuhga turli harakatdagi joydan joyga ko'chish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar kiradi.

Saf qadam – oyoqni poldan 15-20 sm baland ko'tarib oldinga qo'yialiadi (tovonni gorizontal tutish va polga tovonnинг butun vuzasini qattiq qo'yish zarur), qo'llar oldinga harakatlantirilganda ularni beldan bir qarich balandga (tanadan har bir qarich uzoqlikka) ko'tarib, tirsaklarda bukiladi; qo'llar orqaga yo'naltirilganda ularni to'ppa-to'g'ri tutib yelka bo'g'inidan oxirigacha uzatiladi, panjalar mushit qilib tugiladi. Buyruq «Shahdam QADAM BOS!»

Saf qadamining quyidagi turlari ham borki, unda qo'l harakati katta ko'lamda bajariladi (oldingga yelka balandligigacha, orqaga oxirigacha va tanadan chetroqda), oyoqlar bilan harakat xuddi saf qadamdek bo'ladi. Saf qadamining bu turi ommaviy gimnastika chiqishlari va sportchilarning tantanali o'tishlarda keng qo'llaniladi.

Oddiy qadam saf qadamidan erkinoq harakat qilish bilan farq qiladi. Buyruqlar:

- «QADAM BOS!» Har qanday qadam bilan harakat qilishda (hatto bir qadamga ham) beriladigan buyruq;
- «Oddiy qadam bilan (yugurib) QADAM BOS!» Yurishning va yugurishning bir turidan boshqa turiga o'tishda va harakat chog'ida

bajariladigan mashq tugagandan so'ng oddiy yurishga o'tish uchun beriladi. Bajarilishi kerak bo'lgan buyruq chap oyoqqa mo'ljallab beriladi.

Turgan joyda harakathanish. Buyruqlar:

- «Joyda (yugurib) QADAM BOS!»;
- «Yetakchi, JOYIDA!», buyrug'i yurib (yugurib) borayotgan guruhni bir qadamli masofaga yig'ish zarur bo'lganda beriladi, chunki mashq bajarganda, odatda, masofa uzoqlashadi.

Joya turib harkattanishdan yurishga o'tish. Buyruqlar:  
a) «TO'G'RIGA!» Chap oyoqdan beriladi. O'ng oyoq bilan turgan joyda qadam bosib, chap oyoq bilan oldinga harakat boshlanadi;

b) «Ikki (ikki, uch va to'rt h.k.) qadam oldinga (ortga, younga) QADAM BOS!».

Harakatni to'xtatish uchun «Guruh TO'XTA!» buyrug'i (chap oyoqdan) beriladi. O'ng oyoq bilan bir qadam bosiladi va chap oyoqni o'ngga juft birashtiriladi.

Joydan joyga ko'chishning ifodasini o'zgartirish uchun quyidagi buyruqlar beriladi: «Bir-birini QADAMIGA MOS kelmagan!», «Bir-birini QADAMIGA MOS!» Bu buyruqni bergandan keyin, butun guruh bajargunga qadar sanab borish zarur.

Qadam kengligi va harakat tezligini o'zgartirish uchun bunday buyruqlar beriladi: «Shaxdam QADAM bilan!», «Kichik QADAM bilan!», «Tez, to'liq QADAM bilan!», «Yarim QADAM bilan!»

Yugurish harakatidagi buyruqlar: «YUGURIB!» Agar yurishdan yugurishga o'tilsa (musiqa bilan), bajariladigan buyruqlar chap oyoqdan beriladi, o'ng oyoq bilan qadam tashlab, chap oyoqdan yugurish boshlanadi. Musiqa jo'rliqida yugurishdan yurishga o'tishda bajariladigan harakat ham xuddi shunday «QADAM BOS!» buyrug'i beriladi. Agar musiqa jo'r bo'lmasa, «QADAM BOS!» buyrug'i o'ng oyoqdan beriladi.

Harakat chog'ida burilish. Turgan joyda burilishda qanday buyruqlar berilsa (orqaga burilishda beriladigan buyaiqlar bundan mustasno), harakat chog'ida burilishda ham shunday buyruqlar beriladi. O'ngga burilish uchun bajariladigan buyruq o'ng oyoq qo'yilgan paytda beriladi, shundan so'ng talaba chap oyoqni bir qadam oldinga tashlab, chap oyoqning uchida buriladi va o'ng oyoq bilan yangi yo'nalihsida harakat qilishni davom ettiladi.

Chap tomonga burilish uchun bajariladigan buyruq chap oyoq qo'yilgan paytda beriliadi; burilish o'ng oyoqning uchida amalga oshiriladi.

Orqaga burilish uchun ushb'u buyruq beriladi: «ORTGA!» Ijro buyrug'i o'ng oyoq qo'yilgan chog'da beriliadi, shundan so'ng talaba chap oyoq bilan bir qadam oldinga tashlab turib, shu oyoq uchida buriladi hamda chap oyoq bilan yangi yo'naliishda harakat qilishni davom ettiradi. Harakat chog'ida burilishiga (ayniqsa, orqaga burilishga) bajarish buyrug'i berilgandan so'ng, harakat ritmini saqlash uchun sanoq olib borish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar o'ngga va chapga burilishni yaxshi o'rganib olganlaridan so'ng, orqaga burilishni o'rgatish uchun, ularni bo'limgarga bo'lib o'rgatgan ma'qul.


Qanot bilan oldinga yurib front yo'naliishini o'zgartirish. Buyruqlar: a) (boshanishi) «Oldinga o'ng (chap) yelka bilan QADAM BOS!» (harakatlanish vaqtida «QADAM» so'zi aytilmaydi). Bu buyruq bo'yicha guruh qatordag'i safini buzmadsan, chap qanotdag'i talabani atrofida yuradi, chap qanotdag'i talaba esa, turgan joyida odimlab, qatordag'i tekislikni saqlagan holda butun qator bilan birgalikda buriladi; b) (tugashi) «TO'G'RIGA!» yoki «JOYDA!» yoki guruh «TO'XTA!», «JOYDA!» yoki guruh «TO'XTA!». Aylanib yurish. Buyruq: «CHAPGA (o'ngga) aylanib o'tisha QADAM BOS!» Agar buyruq talabalar harakat qilayotgan payda berilsa, bu holda «QADAM BOS!» ijro buyrug'i zalning burchagidan beriishi kerak (16-rasm).

Diagonal bo'ylab harakat qilish. Buyruq «Diagonal bo'ylab QADAM BOS!» (17-rasm).

Teskari yo'naliishda harakatlanish. Butun ketma-ket safning yetak-chisi orqasidan teskari yo'naliishda harakat qilishdir. Buyruq «O'ng (chap)ga qarama-qarsi QADAM BOS!» (18-rasm).

«Ilonizi» bo 'lib yurish. Birin-ketin bajarilgan bir nechta teskari yo'naliishlardan iborat yurishdir. Buyruqlar: «O'ng (chap)ga QARAMA-QARSHI QADAM BOS!», «Ilonizi yo'naliish bo'yicha QADAM BOS!» (19-rasm).

*Doira yasab yurish.* Buyruq «Doira bo'ylab QADAM BOS!» ijro buyrug'i zalning yoki maydonning o'rtasidan beriladi. Doiraning hajmini belgilash uchun oraliq masofa aytildi.



## 11.5. Orani ochish va yaqinlashish

Orani ochish – safdagilar oralig'i yoki masofasini uzoqlashtirish usullari.

*Jipslashish (yaqinlashish)* – orasi ochilgan safni zichlashtirish usullari:

1. Orani ochish. (Saf mashqlarining buyruqlari O'zbekiston Qurolli Kuchlari Ustavi bo'yicha olingan.) Buyruqlar: «O'NGGA (chapga, o'rtadan) shuncha qadamga TARQAL!» Agar bosiladigan qadamlar soni aytilmasa, oraliq bir qadamga ochiladi.

Orani ochish safdag'i yetakchi talabadan tashqari hamma o'ng tomonga (chapga, o'ngga va chapga) burilib, yonida turuvchi bilan uning orasida talab qilingan masofa hosil bo'lgunga qadar yuzini frontga qaratib yuradi. Buyruq berilgandan so'ng o'qituvchi hamma talabalar safda o'z joyiga turguniga qadar bir-ikkilab sanoqni olib boradi. Orani yuqinlashirish uchun quyidagi buyumqlar beriladi: «CHAPGA (o'ngga, o'rtaga) JPSLAN!» hamma harakatlar teskari tartibda bajariladi. Juftlama qadamlar bilan orani ochish front bo'ylab o'kkaziladi. Buyruq «O'rtadan (o'ngga, chapga) ikki (uch) qadam bilan TARQAL!» Buyruq berilgandan so'ng, o'qituvchi orani ochish tugagunga qadar «bir-ikki» deb sanoqni olib boradi. Orani ochishni ketma-ketning chetidagi (yoki ketma-ketda turgan) boshlaydi. Keyinchalik navbatmanavbat har ikki sanoqdan so'ng, qolgan ketma-ketdagilar orani ochadilar. Orani yaqinlashtirish uchun quyidagi buyruqlar beriladi: «O'RTAGA (chapdan, o'ngdan) qadamlab JPSLAN!» ketma-ketdagilar baravariga

yaqinlasha boshlashadi. O'qituvchi yaqinlashish tugagunga qadar «bir-ikki» deb sanoqni olib boradi.

2. Topshiriq bo'yicha orani ochish. «Bir-biringizdan ikki QADAM masofada turing!», «Qo'llarni yozib ORANI OCHING!» va h.k.

3. O'qituvchi ketma-ket qatorda turganlarni zarur bo'igan oraliqqa qo'ygan yetakchilarga qarab, orani ochishi mumkin.

## 11.6. Uslubiy ko'rsatmalar

Buymqlar, odatta, ogohlantiruvchi va ijo etuvchi buyruqlarga bo'linadi: «QADAM BOS!», «ORTGA!» va h.k. Ijironing o'zidan iborat buyruqlar ham bor «TEKISLAN!», «ROSTLAN!» va boshqalar. Biroq, bu buyruqlar berilishdan oldin o'qituvchi ba'zi hollarda talabalarning diqqatini ijo buyrug'iغا qaratish uchun «bo'llim», «guruh», «diqqat», «ketma-ket» va h.k. so'zlarini ishlataladi. Masalan, «Guruh, ROSTLAN!», «Ketma-ket TO'XTA!»

Ogohlantiruvchi buyruq tushunarli, baland ovoz bilan va talar balar qanday harakat qilishlari lozimligini tushunib yetib, shunga shaylanishlari uchun biroz cho'zibroq aytildi. Ijo buyrug'i lahzalik tanaaffusdan keyin qisqa va qat'iy beriladi.

Buyruqlarni berish chog'ida ovoz hamda ogohlantiruvchi va ijo buyruqlari o'rtaсидаги uzilish safning katta-kichikligiga mos bo'lishi lozim: saf qanchalik katta bo'lsa, ogohlantiruvchi buyruq shunchalik cho'zib aytildi, ogohlantiruvchi va ijo buyruqlari orasiдаги uzilish kattaroq bo'ladi, ijo buyrug'i balandroq ovoz bilan aytildi.

Harakatni boshlash uchun xizmat qiladigan ijo buyrug'i bo'lajak harakattlar ifodasiga mos ravishda talaffuz etilishi kerak. Masalan, tez sur'atlari yugurishdan oldin buyruqni baland ovoz bilan va qisqaroq berish zarur bo'lsa, barcha talabalar buyruqni birdaniga bajara olmaydigan sekin sur'atlari harakatini boshlash uchun esa, buyruqni baland ovoz bilan va biroz cho'zib aytish zarur. Shuni esda tutish kerakki, buyruq baland ohangda berilishi shart. Tovush kuchini ham to'g'ri o'zgartirib turish lozim. Buyruq zaruratga mos ravishda baland yoki past berilishi mumkin. O'rinsiz past va shuningdek, juda baland ovoz orqali buyruqlar qo'llanilmasligi darkor.

O'qituvchi tik holatda buyruq berishi kerak.

2. Har bir ogohlantiruvchi buyruqda talabalar «QOMATNI

ROSTLA!» holatini qabul qiladilar, shuning uchun bu buyruqni tez-tez beravermaslik kerak (ayniqsa, umumrivojantiruvchi mashqlarni o'tayolganda). Agarda «ROSTLAN!» buyrug'i berilgan bo'lsa, u o'rnatib bajarilishi kerak.

3. Ayrim hollarda buyruqlarning o'miga topshiriq bermoq maqсадга muvofiqdir. Agar talabalar buyruqqa ko'ra, ma'lum dastlabki korak bo'lsa, topshiriq bo'yicha esa, hisobga kirmagan harakatlarni bir qancha boshqa usullar bilan bajarishga ruxsat etiladi. Masalan, polda o'tirgan guruh uchun «CHAP-GA!» buyrug'i ni berish o'miga «CHAP-GA buriling» deb topshiriq berish ma'qliroq.

4. Qayta saflanish uchun buyruqlar berishda uning qismlari izchilligiga rioya qilish zarur:

- a) safning nomi;
- b) harakat yo'nalishi;
- c) bajarish usuli aytildi. Masalan, bir ketma-ket qatorдан to'rt ketma-ketga qayta saflanish uchun buyruq quyidagicha beriladi: «Chap (o'ng)ga ketma-ketga to'rtadan QADAM BOS!». Yurib ketayotganda, agar harakat yo'nalishi o'zgarmasa, buyruq aytilmaydi. Agar yurib ketayotgan guruh uchun qayta saflanish buyruq'i beriladigan bo'lsa, u holda «QADAM BOS!» so'zi tushirib qoldiriladi.

5. Orani ochishda buyruqning ayrim qismlari quyidagicha takrorlanadi:

- a) yo'nalishi;
- b) oraliqning katta-kichikligi;
- c) bajarish usuli aytildi. Masalan, «Chapga ikki qadam bilan JIPS LAN!»
- d) bajarish usuli aytildi. Masalan, «Ortga chap oyoq bilan, BIR!»

6. Saf mashqlarining turli harakatlarini o'rgatayotganda ko'rsatish, tushunirish talabaiarni oldin guruhchalarga bo'lib o'rgatiladi. Ushbu harakatlarни bajarish, ko'rsatish, tushuntirish usuli birga qo'shib olib beriladi va keyinchalik bu harakatlar butun guruh bilan bajariladi.

Murak'cab saf mashqlarini bo'laklarga bo'lib o'rgatish kerak. Bunda bir harakatni bajarish uchun alohida buyruq beriladi. Masalan, bir qutordan ikki qatorga qayta saflanish uchun ikkinchi tartib raqamiga quyidagi buyruqlar beriladi:

- a) «Ortga chap oyoq bilan, BIR!»
- b) «Yonga o'ng oyoq bilan, IKKI!»

d) «Chap oyoqni qo'yib UCH!»

Ushbu harakatlarni bo'laklarga bo'lib o'rgatganda talaba o'z harakatlarni ongli ravishda bajarsa, uni uzoq esda saqlab qoladi.

O'qituvchi esa, navbatdagi buyruqni berishdan oldin talabalar yo'l qo'ygan xatolami ko'rsatib o'tadi. Turgan joyda va yurib ketayotganda burilishlarni, bir ketma-ketdan yoki qatordan ikki ketma-ket yoki qatoiga qayta saflanish, shaxdam qadam va joydan joyga ko'chishning boshqa turlari, juftlama qadam bilan orani ochishni bo'laklarga bo'lib o'rgatishni tavsiya qilamiz.

7. O'rgatishni mashg'ulotga eng zarur bo'lgan saf mashqlaridan boshlash kerak. Avvalo saflanishlar, saf usullari, joydan joyga ko chish usullari va nihoyat, orani ochish va yaqinlashtirish o'rganiladi. Ayrim saf usullarini talabalar bilan juft-juft bo'lib o'tkazish mumkin, bunda talabaning biri buyruq beradi, ikkinchisi uni bajaradi.

*Yurish.* Yurish turlariga: oddiy qadamlab, oyoq ichuda va oyoq uchida; juftlama va ketma-ket qadamlar bilan (oldinga, orqaga, yon tomonga); navbatma-navbat oyoqni oldinga bukib, shu vaqtning o'zida boshni engashtririb yurishlar; shuning o'zini oyoqni oldinga baland ko'tarib bajarish kabilar kiradi.

*Yugurish va uning turlari*

*Rags qadamlari.* Ularga polka, vals tarzida qadamlash, raqs qadami va boshqalar kiradi.

*Sakrashlar:* Sakrashlar turgan joyda va oldinga silib bajariladi. Ular yakka yoki navbatma-navbat, qo'shib bajarilishi mumkin. Uchish fazasida burilib bajariladigan sakrashlar murakkab sakrashlar hisob-

lanadi. Sakraganda qo'llar har xil holatda bo'lishi yoki har xil harakat qilishi mumkin.

*Sakrab-sakrab qadam bosish* bir oyoqni orqaga (oldinga) tutib,

ikkinci tayanch oyoqda bajariladi.

*Qadam bosib sakrash.* Chap oyoq bilan qadam qo'yandan keyin o'ng oyoq bilan oldinga siltanib, shu oyoqda sakrab yerga tushish. Biroz cho'qqayib, oyoq uchidan toyonga tushish.

*Ikki oyoq bilan depsimib, oyoqlarni almashtirib sakrash.* Oyoq uchlarida tik turgan holatdan biroz cho'qqayib, oyoqlarni to'g'rilaganacha

oyaq holatlari almashtiriladi va ularni tarang holatga keltirib, yerga biroz bukilib, oyoqlarga tushiladi.

*O'rgatish:*

a) polda va xodada yarimcho'qqayib (bir oyoq oldinga uzaqigan)

5-10 daqiqa davomida muvozanat saqlab turish;

b) polda va xodada ikki oyoqda depsimib, oyoqlar o'mini

almashtirmasdan sakrash;

c) shuning o'zini xodada oyoqlar o'mini almashtirib sakrash.

*Ikki oyoqda depsimib, bir oyoqda sakrash.* Bu sakrash oldingi

sakrashga o'xshash boiib, oldinga sirpanib, bir oyoqqa tushgan holda

bajariladi. Bir oyoqda sakrash, ikkinchisi oldinda bukiladi. Qadam

*Sonda o'tirgan holatdan sakrab tushish.* Oldinda va orqada tayanib, bukilib yoki burilmasdan bajariladi.

*Kerishib sakrab, yerga tushish.*

Uzunasiga va ko'ndalangiga turgan holatdan tez-tez tashlangan

qudamlardan keyin (oyoqni oldinga siltab past va odatdag'i xodada)

tizzada tayanish holatidan (erkin oyoqni orqaga siltab, ikkinchisi

bilan xodadan depsingancha ikki oyoq birlashtiriladi, bosh va yerga

tushish tononidagi qo'ini ko'tarib, kerishib yerga tushish); bir oyoqda

cho'qqayib o'tirgan holatda bajariladi.

*Burchak hosil qilib o'tirish holatidan sakrab yerga tushish.* O'ng

oyoqni bukib xodaga qo'yish bilan bir vaqtda, qo'llar bilan orqaga

tayanish (panjalami orqaga qilib) holatidan depsimib va oyoqlarni

birlashtirgancha orqaga burilib, sakrab yerga tushish.

## XV BOB. JISMONIY SIFATLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH

Tarixan mayjud bo'lgan jismoniy tarbiya tizimlariga insonning jismoniy (harakkat) sifatlarini tarbiyalay olishiga qarab baho berilgan. Insонning organizmida turli darajada shakllangan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, tana bog'lnari harakatchanligi va muskullar egiluvchanligini jismoniy sifatlar deb atash qabul qilingan. Inson organizminning shu sifatlarini qanday namoyon qila olishiga qarab individga kuchli, chaqqon, tezkor va h.k. deb baho bergenlar.

Bu sifatlar o'tchovga ega, uning ko'rsatkichlari jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari deb ataladi va ko'rsatkichlar orqali individning ijodiy mehnatga va vatan mudofasiga tayyorligi aniqlanadi.

Masalan: individ 100 kg og'irlikdagi shtangani yelkaga olib faqat 3 marotaba o'trib tura olsa, boshqasi shu vazn bilan 5 marotabadan ortiq o'trib tura olishi mumkin. Shu mashqni ikki marta ortiq bajarganligi uchun ikkinchi o'rtoqning kuch sifati rivojlangan deb baholanadi. Bu sifat organizminning suyak, muskul va boshqa a'zolarining to'qimalari, hujayralari va hokazolarning rivojlanganligigagina bog'liq bo'lmay, ma'naviy-ruhiy fazilatlariga ham bog'liq.

Shuning uchun harakat sifatlarini tarbiyalash ma'naviy-ruhiy fazilatarni tarbiyalash ishi bilan chambarchas bog'liq va tarbiyaning shu yo'naltishiga vosita bo'lib xizmat qiladi.

Harakat sifatlarini tarbiyalashga intilish insoniyatning azalij orzusi. Mehnat qurollari, xarbiy anjom va aslaxa bilan muomala qilishning samaradorligi tabiat insonga inom etgan va uni tarbiya jarayonida rivojlanadirish mumkin bo'lgan jismoniy fazilatlarga bog'liq tarbiyalash lozimligi masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Jismonan bakkamol, axloqan pok, estetik didli, e'tiqodli, sadoqatli, texnika ilmining zamona viy asoslarini puxta egallagan, har taraflama ma'naviy yetuk, jismonan garmonik rivojlangan kishini tarbiyalash hozirgi kungacha davrimiz-ning assosiy vazifalaridan biri deb hisoblanib kelindi. Hozir ham bu dastur o'z ahamiyyatini yo'qtgani yo'q. U mamlakatimizda amalga oshiralayotgan "Sog'lom avlod uchun" dasturining o'zagini tashkil etadi.

Xulosa qilganda jismoniy tarbiyani, xususan, jismoniy sifatlarni rivojlanadirishni mohiyatining yuqoriligi va salmoqligini ko'zga

yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, jismoniy sifatlarni rivojlanantirishda ularning (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va lokazolarning) barchasini o'zaro uzviy bog'lab olib borishni tarbiya jarayoni taqazo qiladi. Lekin sportning ma'lum bir turida muayyan fazilat kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati turzida nomoyon bo'лади. Boshqa sifatlar ham nisbatan rivojlanadi, lekin ular yordamchi, ko'makchi harakat sifati tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Masalan, sport o'yinlaridan basketbolda asosan chaqqonlik sifatini rivojlanantiradi deb hisoblansa, tezlik yordamchi sifati tariqasida rivojlanadi. Lekin basketbol chidamlilikni ham tarbiyalashda asosiy vositadir. O'g'ir atletikachilarda kuch jismoniy sifati yetakchi fazilat sanaladi. "Sitet ko'tarish (rivoq)"ni ko'p mashq qilish esa tezkorlikni rivojlanantiradi. Amaliyotda bu mashqlar orqali chidamlilik va egiluvchanlik ham ko'makchi jismoniy sifat tarzida rivojlanishini guvohimiz. Umuman, chaqqonlikni rivojlanantirish uchun ko'proq o'yintardan: voleybol, basketbol, futbol, tennis, stol tenmisi, gandbol, kokkey, regbi va boshqalardan foydalananish maqsadga muvoqidir. Aslida bu o'yinlar uchun tezlikning ahamiyati ham ikkinchi darajali emas. Chaqqonlikni rivojlanantirish esa tez o'zgaruvchan o'yin sharoitiga moslasha bishini, kuzatuvchanlikni, mo'ljalga to'ri olishni, qisqa fursat ichida turli murakkab vaziyatda aniq, to'xtamga kelish, uni his qilish va o'z harakatlarini shu vaziyatga moslay olishdek hayotiy-zaruriy ham chaqqonlikni rivojlanantiradi. Velosiped, harakatli o'yinlar

Har qanday harakat biror-bir konkrett harakat vazifasi deb ataladigan vazifani hal qilishga qaratiladi. Masalan, iloji boricha balandoq sakrash, to'pni ilib olish, raqibni aldab o'tish, shtangani ko'tarish va sokazo. Harakat vazifasining murakkabligi, bir vaqtida va ketma-ket bajarildigan harakattarning uyg'unligiga bo'lgan talablar, harakatlar koordinasiyasini tarbiyalaydi.

### 15.1. Kuch va uni rivojlanantirish usuliyati

Har qaysi individ tashqi ta'sir yoki qarshilikni yengish uchun o'z jisnidagi ma'lum sifatni namoyon qiladi.

Tashqi ta'sirga qarshi muskul zo'riishi orqali harakat faoliyati

- shaxsning kuchi, uning *kuch qobiliyati* deb atash qabul qilingan. Shug'ullanuvchi mashg'ulot paytida o'z tanasi tinch turgan holdan sport snaryadiga (uloqturishda), o'z tanasini harakatlantirish maqsadida (gimnastika mashqlari va boshqalar), aylantirish, siljitiш, ko'tarishga intisa, ayrim hollarda uning teskarisi, tananing o'zi, yoki uni bilagiga tashqi kuch ta'sir etishi bilan uning statik holatini buzib o'z gavdasini oldingi (dastlabki) holatini ushlab turishga urinadi. Bokschinin raqibi mushting zarbi, kurashchimi raqibi tomonidan kuch ishlatib uni tanasini ayrim bo'laklarini egishga dosh berishi tana holatini o'zgartirmaslik orqali ro'y beradi. Bunda shug'ullanuvchi va uning raqibi ma'lum darajada qarshiikkarni, og'irliliklarni yengish va ko'tarishda ma'lum darajada kuch sifatini namoyon qiladi.

Ilmiy tushuncha tarzida kuch imkoniyati boricha o'zining aniq ta'rifiga ega bo'lishi va farqlanishi lozim:

1) harakatning mexanik xarakteristikasi sifatidagi kuch ("tanaga «m» massasidagi «F» kuchining ta'siri...");

2) inson jismidagi jismoniy sifat tarzidagi kuch (masalan, "yoshning ulg'ayishi bilan kuchning rivojlanishi; sportchi kuchini sport bilan shug'ullanmaydiganlarga nisbatan ko'p bo'lishi..." va h.k.).

Bu sifatning psixofizik mexanizmi muskul zo'riqishining boshqarilishi (regulyatsiyasi) va ularning ish tartibi (rejimi) bilan aloqador. Muskulning taranglashishi insomning kuchini namoyon bo'lishiga olib keladi.

Ruhiy ozuqa olishi va harakatni ma'lum tizimda bajarish markaziy hamda pereferik nerv sistemasi, xususan, nerv markazlaridan muskullarga kelayotgan signallarg va muskullarning o'z xizmati holatiga bog'liq. Umuman, muskul tarangligi – zo'riqishi (kuch namoyon qila olishi) quyidagiarga qarab aniqlanadi;

1) markazzdan muskullarga kelayotgan qo'zg'alishlarning chastotasiga (chastota qancha katta bo'lsa, muskul shunchalik zo'r darajada o'zining tarangligini oshiradi) ko'ra;

2) zo'riqishga qo'shilgan harakat birligining soni bilan;

3) muskulning qo'zg'aluvchanligi va undagi quvvatning manbai miqdoriga qarab.

Muskul kuch namoyon qilishi uch xil rejimda zo'riqadi:

a) o'zining uzunligimi o'zgartirmay (statik, izometrik rejimda). Tananing turlicha holatlarda (pozalar) da ushish va h.k.lar bilan;

b) muskul uzunligini kamayishiga hisobiga, bardosh berish bilan (oniometrik). Zo'riqish birday – o'zgarmay turadi, bunday rejim siklik va balastik harakkatlardagi muskul qisqarishi fazlari evaziga sodir bo'лади;

v) muskulni cho'zish vaqtida uning uzayishi hisobiga (yon berish, depsinisida muskul qisqarishi orqali shu kuch namoyon bo'лади). Bardosh berish bilan, yon berish, bo'shashtirish bilan kuch namoyon qilishni *dinamik rejimdag'i kuch* deb atash qabul qilingan. Shunday qilib bunday sharotlarda maksimal kuchni ko'lami turlicha qayd qilingan kuch namoyon qilishning asosiy xillari kuch qobiliyatining klassifikatsiyasi sifatida qabul qilingan.

Kuch qobiliyatlarining turlari muskul zo'riqishi taribining kombinatsiyalashtira olish xarakteriga qarab farqlanadi. Statik rejimda qobiliyatlari va tezlik-kuchi hisobiga sodir bo'ladigan kuch (dinamik kuch), tez bajariladigan harakkatlarda qo'llaniladi. Boshqachasiga buni *shiddat* (portlash) *kuchi* deb ham ataladi. Bunga qisqa vaqt ichida eng ko'p darajada kuch namoyon qila olish qobiliyati deb qaratadi. Portlash kuchi sakrashlarda depsinish orqali sakrovchanlik tarzida namoyon bo'лади.

***Muskulning o'ta zo'riqishini optimal yo'nalishi.*** Muskul kuchi belgilangan faoliyatning yo'nalishiga iloji boricha yaqinlashtirilishi, moslashtirilishi lozim. Masalan, nayza uloqturishda zo'r berib tanaga tezlik berishimiz mumkin, lekin bu tezlik nayzani uloqturishdagi zarbga moslanmasa, sarflangan kuch samarasiz bo'лади, nayza mo'ljallangan traektoriyada uchmasligi mumkin. Past start olishda tananing og'ishi 54 va 72 gradusli burchak hosil qilgandan so'ng startdan chiqishning samarasini turlicha bo'лади. Hisoblashlar ko'rsatmoqdaki, ikkala oyoqdan 180 kg kuch bilan depsimish 72 gradusdan start olganda, kuchning horizontal yo'nalishi samaradorligi 55,62 dan oshmas ekan. Agar start 54 gradusda bajarilsa, depsimish kuchi Samaradorli 105,80 kg bo'lishi mumkin. Harakat tezligini oshirish, gavdaga tezlanish berish uchun unga anchagina kuch ta'sir etilishi lozim. U qanchalik kuchli bo'lsa, unani fazoda tezlanishi shunchalik qisqa vaqt ichida tez vujudga keladi. Lekin tezlik bordaniga oshmaydi. Buning uchun kuch anchagina vaqt ichida ta'sir etib turishi zarur. Maksimal tezlik olish uchun esa

uzoqroq masofa lozim va katta kuch bilan ta'sir etish foydalidir. Oyoqning to'pga tegadigan uski qismimi qanchalik orqaga cho'zib to'p oralig'idagi masofa uzaytirilib oyoq kaftining to'pga tegish tezligi oshnirlsa, to'ping zarbi kuchayadi. Yo'ning chegaralanishi tezlikni kuchayishini susaytiради.

Kuchning ta'sir etish vaqt qanchalik oz bo'lsa, harakat tezligi shuncha yuqori bo'ladi. Gavda qiya chiziq bo'ylab tezlik oladigan bo'lsa shuncha ko'p ta'sir kuchi kerak bo'ladi.

To'g'ri chiziq bo'ylab harakat tezligi uchun qiya chiziq bo'ylab harakat tezligiga nisbatan ta'sir kuchi oz talab qilinadi.

**Kuch oshirilishining uzlitsizligi va birin-ketimligi.** Bu qoida Nyutonning ikkita (inersiya va tezlanish) qonunidan kelib chiqadi. Eng katta kuch harakatni boshlash uchun, tinch (turun) inersiyani yengish uchun kerak bo'latdi.

Masalan, shtangani ko'krakka olishga harakat boshlash uchun oyoqning va yelkanning orqa muskullaridan, ularning kuchidan foydalanijadi. Chunki uni to'xatish yoki tinch turgan jism enerziyasini ozgina bo'lsa-da, o'zgartirish uchun yana qo'shimcha zo'riqish talab qilinadi. Aslida bu zo'riqishdan mashq tezligini yanada oshirishda samarali foydalansa bo'lar ekan.

Mabodo yadro tutishning qaysidir joyida harakatning ozgina sekimlashtirilishi yoki ushlanishiga yo'l qo'yilsa, oldingi harakatning foydali effektidan maxrum bo'lib qolish mumkin.

Harakatlarning uzluksizligi va davomiyligi texnik tayyorgarligi yuqori bo'lgan sportchilarda, ayniqsa uloqtirish, sakrash, suzishning barcha turlarida yaqqol ko'zga tashlanadi va harakat samarasiga ta'sir qiladi.

Insонning kuch namoyon qila olishdagi asosiy faktor – muskul zo'riqishi, lekin uning tanasining massasi (vazni) ham ma'lum darajada rol o'yaydi. Shunga ko'ra, **absolyut va nisbiy kuch** deb ham farqlanadi. Birinchisida insонning tanasi vaznni hisobiga olmay, qandaydir bir harakatda kuch namoyon qila olishi tushunilsa, ikkinchisida, uning tana vazninining har bir kilogrammiga to'g'ri keladigan qilib namoyon qilinadiigan kuchning me'yori tushuniladi.

**Kuchni o'tqash.** Absolyut kuch inson dinamometriyasiko'rsatkichlari va boshqalarga asoslanib, ko'tara oladigan yuk kuchini namoyon qila oladigan chegara tushuniladi. Vizbysi esa absolyut kuchning shaxsiy

vazniga (tana og'irligiga) nisbati bilan o'chanadi. Vazni turli xil, lekin bir xil darajada shug'ullanganlikka ega bo'lganlarda absolyut kuch tana vazning oshishi orqali ortadi, nisbiy kuch kamayadi. Buni shunday tushunish lozimki, tana vaznni qo'shilishi bilan uning og'irligi muskul kuchiga nisbatan ortib ketadi.

Qator sport turlarida (masalan, uloqtirishda) yutuq absolyut kuch hisobiga qo'nga kiritiladi. Qaysiki tana vazni chegaralanadigan, vazni hisobiga olinadigan turlarda yoki tananing ko'p marotabal o'mi almashtirilib turiladigan sport turlarida (masalan, gimnastikada) yutuq nisbiy kuch bilan qo'nga kiritiladi. Kuchning namoyon bo'ishi harakatning biomexanik sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri bog'tangan: yelka suyagining va boshqa gavda richagining uzunligi, muskullarning fizioligik yo'gon yoki ingichgaligi, cho'ziluvchanligi, chayir yoki mo'rligi va h.k. larida e'tiborga olinadi.

**Kuchni rivojlantirish metodikasi va vositalari.** Kuchni rivojlantirish uchun yuqori qarshiligidan bilan bajarijadigan mashqlardan foydalanijadi. Ular ikki gururdan iborat:

1. **Tashqi qarshililik** bilan bajarijadigan mashqlar. Qarshilistik sifatida jismilar vazni (girilar, toshlar, shtanga va boshqalar), raqibining qarshiligidan, o'ziga o'zining qarshiligi, boshqa jismilar qarshiliga (prujinali espanderlar, rezinali bint, maxsus moslama stanoklar) tashqi muhit qarshiligi (qumli yo'lkada, qalin qorda yugurish va boshqalar) dan foydalanijadi.

2. **Individuining o'z tanasi og'irligini yengish** bilan bajarijadigan mashqlar (tayanib yotib qo'llarni tirsakdan bukish). Kuch bilan bajarijadigan har qanday mashqlar o'zining ijobjiy va salbiy tomonlariga ega. O'g'irlik bilan bajarijadigan mashqlarning qulay guruhiga ta'sir etish oson va ularni do'zalash qulay. Salbiy tomoni shundaki, tezlik – kuch talab qiladigan xarakterdagи harakatlar tartibi tez buziladi (ayniqa og'irlashtirib, vazminiligin ortirib, malol kelishi tezlashadigan mashqlarda), dastlabki holatda muskul tarangligi bir xil (statik holat) ushlanadigan mashqlarda, mashqning tashkilanishi qiyinligi (maxsus jihozning kerakligi, metal jihozning shovqini va boshqalar) ko'zga tashlanadi. O'z-o'ziga qarshilik ko'rsatish bilan bajarijadigan mashqlarning qulayligi shundaki, qisqa vaqt ichida katta dozada nagruzka berish mumkin va maxsus jihoz va inventarni talab

qilmaydi, lekin muskullar elastikligining tezda yo'qolishiga olib keladi.

Bundan tashqari, bu mashqlar yuqori nerv tarangligi (zo'riqishi) da bajariladi, shuning uchun ularni sog'lom, jismoniy tayyorgarligi talab darajasida bo'lgan odamlarga, o'z-o'zini nazorat qilish tizimli olib boriliши тавсиya etiladi.

**Kuchni rivojlantrish metodlari.** Muskul kuchining ortishi, asosan uni rivojlantrish metodlariga bog'liqdir.

**Maksimal zo'riqish metodı.** ya'ni me'yordagi yoki me'yorga yaqin og'irliklarni ko'tarish (o'z vaznining 90-95%), nerv muskul apparatining maksimal safarbarligi va muskul kuchining ko'p bo'lnasada ortishini ta'minlaydi. Ammo bu yuqori darajadagi nerv-psixik zo'riqishi bilan bog'iqliq, ayniqsa, o'quvchilar kuchini rivojlantrishda noqulaylik tug'diradi. Oz miqdordagi qaytarishlar modda almashinuvni va boshqa plastik jarayonlarni yo'lga qo'yolmaydi, natijada muskul massasi ortmaydi. Bu metod mashq texnikasi ustida ishlash uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki me'yoridan ortiq nerv-muskul tarangligi nerv markazidagi qo'zg'alishni generalizatsiyalashishiga va ishga ortiqcha muskul guruuhlarining qo'shilib ketishiga olib keladi. Va niroyat, shuni hisobga olish kerakki, xatto yetarli darajadagi tayyorganlikka ega bo'lgan sportchilarning nerv sistemasi yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, me'yoriga yaqin bo'lgan nagruzkalardan foydalanimish metodi muskul kuchining ortishida me'yor bo'lmagan nagruzkalar bilan mashq qilish metodi bergen foydani ham bermaydi.

Me'yorga yaqin bo'lmagan (oz zo'riqish talab qilinadigan) nagruzka bilan mashq qilish metodida katta hajmda ish bajarish mumkin. Bu modda almashinuvida ma'lum o'zgarishlarga sabab bo'ladi va o'z navbatida, muskul massasining ortishiga olib keladi. Kuchli zo'riqishsiz yuklama bilan bajariladigan mashqlar harakat texnikasini amin qazorat qilish imkonini beradi, ayniqsa, bu yangi o'rganuvchi shug'ullanuvchilar uchun quay. O'rtacha nagruzka trenirova jarayonining bosholang ich etaplarida katta bo'lmagan yuqori tiklanishni va quvvat manbalarini qo'zg'otadi, qaysiki, ular hisobiga sifatning bir oz o'sganligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, yangi o'rganuvchilarning shikastlanishlari oldi olinadi. Shuning uchun me'yorga yaqin va o'rtacha nagruzka bilan kuch talab qiladigan mashqlarni bajarish kuchni rivojlantrishning asosiy metodi hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlikning ortishi bilan ko'proq, me'yordagi va

me'yorga yaqin og'irliklardan foydalaniлади.

Me'yorga yetmagan zo'riqishni qo'llash o'z kamchiliklarga ega.

Energiya sarflashda me'yordan ortiq – muskul butunlay bajara olmay qoldigani darajada ishlash samara bermaydi. Kuchni rivojlantrish nuqtai nuzaridan aytarli ahamiyatga ega bo'ladigani asosan oxirgi urinishlar bo'lib, toliqish hisobiga o'ta zo'riqish susayadi, ishga ko'proq harakat boshlaydi. Lekin bu urinishlar yarim sharlar po'stlog'i funksiyasining sonini ko'p marotabaliigi shug'ullanuvchilarда befargilikni uyg'otadi yoki faoliyatga munosabati salbiylashadi, albatta, ular mashq sumarasingin pasayishiga olib keladi.

O'quvchilarning yoshiga xos xususiyatlар o'zgarishi bilan bog'iqli kuch mashqlaridan mashq'ulotlarda, ayniqsa, darslarda foydalanan imkoniyati chegaralangan. Kichik va o'rta maktab yoshida shaxsий kuchini rivojlantrishga yo'naltirilsa mashqdagи statik komponentlar ushlab bo'lmaydi, chunki statik holatarni qo'llash, ayniqsa, qomatning tarbyyalashning yetakchi vositalari hisoblanadi va uni qo'llash sumaralidir. Yosh o'tishi bilan bu mashqlar kengroq qo'llaniladi. Lekin ulbatta nafas olishning nazorati kuchaytirilishi kerak. Chunki naftasini zo'riqish paytida uzroqroq ushish, ayniqsa, qizlarda salbiy ta'sirga olib kelishi, hatto ularning xushdan ketib qolishlaridек holatlar sodir qilishi numkin.

Maktabda kuch tayyorgarligini olib borishdagi asosiy vazifa tananing orqa va qorin tomonini yirik muskululari guruhini rivojlantrishga yo'naltirilishi, chunki qomatning shakllanishi shu muskularga bog'iqli. Rivojlanma maydigan muskul guruuhlari – tananing qiyshiq muskulari, harakat tayanch apparati muskulari, sonning orqa tomoni muskulari qo'zg'otadi, qaysiki, ular hisobiga sifatning bir oz o'sganligi ko'zga normalari tarkibiga kiritilganligi bejiz emas.

Kuchni rivojlantrishning tipik vositalari: 7-9 yoshda jismlar bilan umumiyy rivojlantruvchi mashqlar, qiyshiq o'matilgan gimnastika skameykalariga tirmashib chiqish, gimnastika devoridagi mashqlar, sikrashlar, uloqfirishlardi; 10-11 yoshdagilar uchun – katta muskul tarangligi talab qilinadigan jismlarni ko'tarish bilan umumiyy

rivojlantiruvchi mashqlar (to'ldirma to'plar, gimnastika tayoqlari vah.k.) da, uch usul bilan vertikal kanatga tirmashib, yengil jismlarni uloqtirish va boshqalar; 14-15 yoshda - to'ldirma to'plar, katta og'irlikka ega bo'lmagan gantellar, kanat (arg'anchi) tortishdek kuch talab qiladigan mashqlar, tortilislar, qo'ida tik turish va boshqalar. To'g'ri o'smirlarda og'irlashtirish maksimal vaznga nisbatan 60-70% ni tashkhillashi lozim, bundan tashqari, mashqlarni muskul to'la bajara olmay qolgungacha bajarish bu yosdagilarda qat'iyan taoqiqlanadi.

Qizlardan 13-14 yosdan bosholab talab qilinadigan nagruzka bolalar uchun talab qilinadigan nagruzka nisbatan o'z tanasing maksimal vazni atrofida bo'lishi, ko'proq lokal holda muskul guruuhlariga kuch mashqlari, tashqi og'irlashtiruvchi sifatida gymnastika predmetlari yoki og'ir bo'lmagan jihozlardan foydalanish tavsija etiladi.

Kuchni rivojlantirishda muskul zo'riqishi ko'lamni (tirk organizm sodir qitadigan) ikki faktorga bog'liq:

a) orqa miyaning oldingi shoxchalari motoneyronlaridan muskulga boradigan impulslar;

b) shartli ravishda - muskulni o'zining reaktivligi, ya'nini ma'lum qo'zg'alishlarda javob berish kuchi. Muskulni reaktivligi uni fiziologik ko'ndalangi, tolesi yo'g'onligi, uni qo'zg'ala olishi darajasi va boshqa tuzilishidagi bir qancha xususiyatlarga, markaziy nerv sistemasiga, trofik adrenalin-simpatik tizimi orqali analga oshiriladigan ta'siriga va shu daqiqadagi muskul uzunligi va boshqa holatlar, faktorlarga ham bog'liq. Muskul zo'riqishi darajasini zudlik bilan o'zgartirishda unga keladigan effektli impulslar xarakteri yetakchi mexanizmlardan biri hisoblanadi.

**Yuk** (og'irlilik) ko'tarish bilan mashqlanish o'zining universalligi bilan qulay bo'llib, ular yordamida faqat eng kichik muskullar guruhigagina emas, xatto eng yirik muskullar guruhiga ham ta'sir etish mumkin. Ularni dozalash oson. Lekin bir qator salbiy xususiyatlari ham mavjud. Og'irlilik bilan ishlash masqlarida dastlabki holat muhim rol o'yaydi. U albatta yukni statik holda ushlashni talab qildi. Agarda yukni massasi og'ir bo'lsa dastlabki holatda turish qiyinlashadi. Bu o'z navbatida harakatni hal qituvchi fazasida diqqatni konsentratsiyalashda qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari ahamiyatli massaga ega bo'lgan snaryadga birdaniga katta tezlik berish qiyin, xohlaysizmi yo'qimi harakatning birinchi qismi (boshaanishi) sek'in bajariadi. Harakat

timi majburiy astalik bilan ortib boruvchi bo'ladi. Bu o'z navbatida lozim bo'lgan muskullar guruhiga zo'riqish berishda qiyinchiliklarga sabab bo'jadi.

Egilib yana asli holatga qaytadigan jihozlardagi qarshiliklarni yengish bilan mashqlanish uchun harkatni oxiriga borib zo'riqishni ottiqlishi xarakterlidir.

**O'z tanasi og'irligini yengish bilan bajariladigan mashqlar** odadga evadaning tayanch apparatlari yordamida bajariladi. Bunda tananing muskul apparatini kuch namoyon qilishda yutqazadi, ya'nini bir oz tayanimish (proksimal)dan yuqori bo'lnagan kuch sarflaydi xolos. Oqibatda qundaydir harakatda tananing shaxsiv vazni yoki uning og'irligiga teng qarshilikni yengish kerak bo'lsa bu kuch namoyon qilish nuqtai nazardin anche yengil kechadi.

Masalan, devorga suyanib kaftga tayanib qo'ida turishda qo'llar tinsakda bukib turilanganda o'z vazni uchun sarflangan kuch shu vazdagagi shhangani ko'tarishdan yengilroq tuyuladi.

Jismoniy sifatlar insonni ma'lum yoshdan navbatdagi yosh kategoriyasiga o'tishi bilan tabiiy ravishda o'zgaradi. Bunday o'zgarish yosh bilan bog'liq bo'lgan *rivojlanishlar* yoki o'zgarishlar deb hishuniladi. Yosh bilan bog'liq jismoniy sifatlarni rivojlanishi nisbatan sekin va notejis boradi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishning asosida organizmning ish qobiliyatini boshlanich darajasini oshirish maqsadida oshirib berilgan yuklamalarga javob bera olishi xususiyati unga javoban reaksiyasi deb tushuniladi. Organizm jismoniy yukga o'zidagi mavjud zahiralarini jaib qilish orqali javob beradi. Mashq bajarish davomida energiya resurslari surflanadi, asta-sekinlik bilan charchoq his qila boshlanadi. Charchoq hosil bo'lgan mashq'ulotidan so'ng ish qobiliyatni pasaygan holda qoladi, so'ng u asta sekinlik bilan tiklana boshlaydi. Ish qobiliyatini tiklaniishi ish boshlangungacha bo'lgan holatga yetib uni orishi davom etaveradi (bu fiziologik qonun), shunday qilib organizm energiya resursini son jihatdan sarflanganini tiklab ulguradi. Bunday yuqori tiklaniishi ish qibiliyatini oshegan fazasi vujudga keladi. Bu faza bir oz vaqt ichida ushlanib turadi va so'ng dastlabki holatga pasayadi. Shunday qilib jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashq'ulotlaridan so'ng organizmni holatda uchta fazani kuzatish mumkin: charchash, dastlabki holat darajasi gacha tiklanish, ish qobiliyatini dastlabki

darajadan yuqoriqoq ortishi.

Agarda keyingi mashulot charchash fazasiga to'g'ri kelib qolsa charchoqni ustma-ust to'planishi sodir bo'lib u tolishga aylanadi.

Shug'ullanish organizmning energiya resurslarini tiklanish fazasiga to'g'ri kelsa ish qobiliyatini aytarli darajada oshmasligi, ish qobiliyatini yuqori darajadalgiga to'g'ri kelsa organizm jismoniy yukga tayyortigi,

katta hajmda mashq bajarishni uddalay olishligi amaliyotda va fanda isbotlangan. Shunga ko'ra trenirovkalar organizmni *yugori ischchanlikka* ega bo'lgan fazalarda o'tkazilsa shug'ullanish darajasi doim o'sishi kuzatilmoqda.

Masalan, kuch talab qiladigan mashqlar bilan shug'ullanish mashq'ulottarinig chaostotasi qator faktorlarga, xususan shug'ullanish nuvchilarning tayyorlanganligiga bog'liq. Tajribada isbotlanishicha shug'ullanishni endigina boshlaganlarda mashq'ulotlarni haftada uch marotaba o'tkazish, 1, 2 yoki 5 marotabalari mashq'ulotlar ham yuqori samara bergan, yuqori malakali sportchilarda esa mashq'ulotlar chastotasi ko'proq.

Shug'ullananganlik faqat tizimi mashulotlardagina ortadi va uni to'xtatish bilan shug'ullananganlikni keskin pasayishi kuzatiladi. Jismoniy tarbiya jarayonida tanaffuslarga yo'l qo'yilmaydi. Chunki mashq'ulomi ijobiy effekti yo'qoladi. *Ijobiy effekt soni* (soyasi) muhindir. Zararli o'zgarishlar tanaffusning 5-7 kunlaridayoq keskin namoyon bo'ladi. Muskul kuchi ozayadi, harakat tezligi susayadi, chidanililik yomonlashadi.

Jismoniy tarbiya jarayonining – jismoniy sifatlarni rivojlantirishning uzlksizligi jismoniy kamototga erishish uchun optimal sharoit yaratadi. Nagruzkani intensivligi va hajmi, dam olish bilan shug'ullanishni (nagruckani) to'g'ri navbatlashuvini tizimliliqi bo'zilishi, juda ham yuqori yoki past yuklama tanlash, mashq'ulottardan kutilgan natijaga olib kelmasligiga sabab bo'lishi mumkin va u amalda isbotlangan.

## 15.2. Chaqqonlik va uni tarbiyalash usuliyati

*Harakatlarning koordinatsiyaviy murakkabligi* chaqqonlikning birinchi o'chovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalarini harakat vazifasiga mos bo'lsa, harakat yetarli darajada aniq bo'ladi, harakat vazifalari *harakatning aniqligi* tushunchasini keltirib chiqaradi.

Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o'chovidir.

Hayotda va sportda duch kelishi mumkin bo'lgan barcha harakatlarni ikki guruhga ajratamiz.

1. Nisbatan stereotip harakatlar.

Yengil atletika yo'kkasida, tekis joyda yugurishlar, uloqtirish va sakashlar, gymnastika mashqlari, birinchi guruh harakatlariga, sport o'yinlari, yakkama-yakka olishuv, slalom, kross va shu kabilar ikkinchi guruhga kiritiladi.

Stereotip harakatlandagi aniqlik, kishi bu harakatlarni bajarishning quinchalik uzoz mashq qilganligiga, va uni texnikasini o'zlashtirganligiga bog'liq. Agar inson to'g'ridan-to'g'ri, tayyorlariksiz yangi harakatlarni birdaniga bajara boshhasa, harakatni o'zlashtirib olishi uchun vaqtini turlecha sarflanishiga qarab chaqqonlikka baho beriladi. Shuning uchun yangi harakatni o'zlashtirib olishga ketgan vaqt shuullanuvchida chaqqonlik sifatining ko'rsatkichlaridan biridir.

Yuqorida aytganlarni hisobga olib, birinchidan *chaqqonlikni yangi harakatlarni tezda o'zlashtirib olish qobiliyatini* (tez o'rganish qibiliyati), tatablariga muvofiq tezda qayta moslash deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Bu ta'rifimizdan ko'rinish turbdiki, *chaqqonlik – bu baholash uchun wagona o'chovga (kriteriyga) ega bo'lmagan murakkab kompleksi fuziladi*. Har bir muayyan holda, sharoitga qarab u yoki bu kriteriyni o'yinlarida chaqqon bo'lib, gymnastikada unchilik chaqqonlik ko'rsata olmaslik mungkin. Chaqqonlikning hayotiy muhim harakat sifati tarzida namoyon bo'lishi gavdanding nisbatan kam harakatda bo'lgani holda, qo'llar bilan mohirona harakat qilishda qo'l chaqqonligini namoyon bo'lishi (ajratuvchi, slesarlilik, o'ymakorlik, duradgorlik, stanokda ishish, kosiblik va boshqalarda) ko'za tashlanadi. Har qanday harakat qanchalar yangi bo'lib tuyulmasin, doimo koordinatsiyaviy bog'lanishlar asosida bajariladi.

Sxema tarzida har qanday individ yangidan-yangi harakatlarning burchasini oldindan o'zashtirgan tajribalari zahirasi asosida o'zlashtiradi va mustahkamlangan, g'oyat ko'p elementlar koordinatsiyaviy bo'lakchilarning yig'ini tuzadi. Kishida harakatlar koordinatsiyalarining zahirasi, harakat ko'nikmalarini zamini qanchalik ko'p bo'lsa,

u yangi harakatlarni shuncha tez o'zlashtirib oladi. Unda chaqqonlik darajasi aytarli yuqori bo'ladi.

Chaqqonlikning namoyonlik darajasi analizatorlar faoliyatiga, junladan, harakat analizatorlarning faoliyatiga boliqdir. Individuning harakattarni aniq ta'il etish qobiliyati qanchalik rivojlangan bo'lsa, yangi harakattarni tez egallab, ularni qayta o'zlashtirish, yangilash imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi. Sport bilan endigina shug'ullana boshlagan kishilardi harakat tuyg'usi (kinesteziya) ko'rsatkichlari zahirasiga tayanib o'rigatish (o'qitish) jarayoni yo'lga qo'yildi. Boshqacha qilib aystsak, shug'ullanayotganlarda o'z harakatlarni aniq sezish va idrok qilib qobiliyatlari qanchalik yaxshi bo'lsa, yangi harakatlarni ular shunchalik tez o'zlashtiradilar. Chaqqonlik markaziy nerv sistemmasining plastiki-giga ham bog'liq va uning darajasi shu bilan aniqlanadi. Chaqqonlik, psixologiya nughtai nazzaridan, o'z harakattarini va tevarak-atrofida harakatni ijro etish, sharoitini idrok etish qobiliyati qanchalik ekanligiga, shuningdek, shug'ullanuv-chining tashabbuskorligiga bog'liq. Bu harakat sifati murakkab harakat reaksiyalarining tezligi va aniqligini namoyon qilish-da juda muhim ro'i o'yinaydi.

#### *Chaqqonlikni rivojlantirishi usuliyati bilan tanishib chiqsak.*

*Birinchidan*-chaqqonlikni rivojlantirish koordinatsiya jihatdan murakkab harakatlarni bajarishni,

*ikkinciidan*-harakat faoliyatini to'satdan o'zgargan sharoit tabalablariga muvofiq ravishda qayta tuza olish qibiliyatini tarbiyalashdan iboratdir. Bunda chaqqonlik uchun zarus bo'lgan o'z harakatlarni fazo va vaqtda aniq idrok, lozim bo'lsa, stabil harakattar qila bilish, muvozanat saqlay olish, galma-gal zo'r berish va muskullarni bo'shattrish yoki, aksincha, muskullarni taranglashtirish qobiliyati va shunga o'xshash boshqa xususiyatlarni tanlab takomillashtirish muhim ahamiyatiga ega. Demak "chaqqonlik" deganda, *harakatlar koordinatsiyalarining umumiyyatini* to'plami-yig' indisi tushuniadi.

Chaqqonlikni rivojlantirish va tarbiyalashning asosiy yo'lli yangi xilma-xilharakat malakkalarini vakonikmalarini shakillantirish demakdir. Bu esa harakat malakkalarining zahirasi ortib borishiga sabab bo'ladi va harakat analizator-larining funksional imkoniyatlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Yangi harakatlarni o'zlashtirish uzlusiz bo'lgani yaxshi. Agar uzoq vaqt oraliq ida yangi harakatlarni o'reganish rejalashtirilgan

bo'lsa ham, o'quvchilarga vaqtiga vaqt bilan o'zlariga ma'lum bo'lмаган mashqlarni bajarib turish tavsya etiladi. Chunki yangi harakatlar (mashqlar) o'zlashtirib turilmasa shug'ullanuvchini harakatga o'rgatish qiyinlashadi. Bunday mashqlarni to'la o'zlashtirib olish shart emas, chunki u shug'ullanuvchilarning qandaydir yangi harakatlarni his qilib turishlari uchun zatur. Bu kabi mayda-chuyda harakatlarni, odatda, aktiv dum olish uchun ajratilgan kunlardagi trenirovka jarayonida tarkibiga kiritiladi. Chaqqonlikni rivojlantirishda yangi harakatlarni o'zlashtirib olish qobiliyati sifatida har qanday ijitiyoriy harakatdan foydalananish mumkin, lekin ular faqat mashq tarkibidagi yangi elementlar bo'lgani uchungina o'rganiladi. Malaka avtomatashib borgan sari shu jismoni yavobning berilishi chaqqonlikning rivojlantirish vositalari tarzidagi ahamiyati kamayib boradi. Harakat faoliyatini tez va maqsadga muvofiq qayta tuzish qobiliyati to'satdan o'zgargan sharoitidagi ta'sirlarga dathol lavobning berilishi chaqqonlikni rivojlantirishdan dalolat beradi. Bunda yuklamamaning o'zgarishi sodir bo'ladi, chaqqonlikni rivojlantirishga yo'naltirilish yuklamani oshirish shug'ullanuvchilarga koordinatsiyaviy qiyinchiliklarni oshiradi. Ular yengishi lozim bo'lgan koordinatsiyaviy qiyinchiliklar uch guruhga bo'llinadi:

1. Harakatlarning aniqligiga erishishdagi qiyinchiliklar;
2. Ularning o'zaro moslasha olishidagi qiyinchiliklar;
3. Birdaniga, qisqa, o'zgargan sharoitda duch kelinadigan qiyinchiliklar.

Amaliyotda qayd qilingan qiyinchiliklarni oson hal qilish uchun, asosan, L.P. Matveyevning chaqqonlikni tarbiyalash uslubiyatidan ko'proq foydalananiladi:

1. *Ayrinability, ayri oddiy dastlabki holatdan foydalanish* (zurur bo'lgan tomonga orqa bilan turib uzunlikka sakrashlar va x.k.).
2. *Mashqni oyngaga qarab bajarish* (diskani chap qo'lib bilan uloqitirish yoki bokschimi chap tomonlama turib zarba berishi).
3. *Harakatlar tezligi va surʼuning o'zgartirish* (masalan, tezlashtirilgan usulda yoki seklinlashtirib mashqlar bajarish).
4. *Fazoda mashqlar bajarilayotgan chegaralarni o'zgartirish* (masalan, uloqitirishda snaryadlarni kichiklashtirilgan aylanadan uloqitirish yoki maydoni sathi kichiklashtirilgan sport o'yinlaridan foydalanihanish, chunki keng maydon tor maydonga nisbattan chaqqonlikni namoyon qilish uchun quaylik tug'dirmaydi; balandlikka turli usul bilan:

orqamachasiga, oldi, yonlama, aylanib yugurib sakrash va h.k.

5. *Qo'shimcha harakatlar kiritib mashqlarni murakkablashirish* (masalan, yerga tushish oldidan qo'shimcha burilishlar qo'shib, tayanib sakrash va boshqalar).

6. *Tanish mashqlarni oldindan rejalashirmay, ma'lum bo'Imagan tarzda qo'shib bajarish* (masalan, gimnastik kombinatsiyalarini ko'rjan va o'qitgan zahoti bajarish musobaqasi va shunga o'xshaslar).

7. *Juft va grupper bo'lib bajariladigan mashqlarda shug'ullanuv-chilarning bir-biriga ko'rsatadigan qarshiliklарни o'zgartirish* (masalan, o'yinlarda turli taktik kombinatsiyalarini qo'llash, mashqlarni bajarishda tez-tez sheriklarni o'zgartirish).

Chaqqonlikni nisbatan xususiy bo'lgan sifatlaridan biri *muskullarni rassional bo'shashitura bilishi o'rganish* va uni takomillashtirishdir.

Har qanday harakat ma'lum ma'noda muskullarni qo'zg'atishi va bo'shashtitirilishining natijasidir. Qo'zg'atishdek, bo'shashtirishni (lozim bo'lgan muskulni, lozim bo'lgan paytda) bilish har qanday harakatni samarali bajarishda muhim rol o'yaydi. Harakatni qoyimaqom qilib bajarish uchun vaqtinchalik harakatni bajarish uchun lozim bo'lgan muskullar guruhining tarangligi harakatni bajarishni yo'qqa chiqaradi.

(bo'g'iqliq) ni, harakatni erkin bajarishni yo'qqa chiqaradi. Harakatni bo'g'iq, emin-erkin bajara olmasak ruhiy va muskul tarangligi orqali sodir bo'ladi deb uni ikki guruhga ajratiladi. Ruhiy taranglik asosan his hayajonga sabab bo'ladigan faktorlar (kuchli raqibni ko'rish, musobaqalashadigan muhit, tomoshabinlar va h.k.) orqali sodir bo'ladi va chaqqonlikkagina emas, organizmning boshqa funksional hamda jismoniy sifatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu diqqatni to'play olmaslik, faoliyat tarkibidagi o'zgartirish qilisida kechikish, harakattlar ketma-ketligini buzilishi va boshqalar tarzida namoyon bo'ladi. Bu noqulayliklar bilan kurashish yo'llari haqida "Sport psixiologiyasi" fanida lozim bo'lgan ma'lumotlarni olish mumkin. *Ruhiy taranglik* albatta *muskul tarangligini* sodir bo'lishi bilan kuzatiladi.

Muskul tarangligi turli sabablar orqali vujudga kelib quyidagi qayd qilinigan uch shakilda namoyon bo'ladi:

a) muskul tonusini ortishi (gipermiotoniya) orqali muskul taranglashishi;

b) o'ta tez bajarish oqibatida muskulini taranglikdan tushishga, bo'shashishga ulgurmashigidan sodir bo'ladigan taranglik;

v) koordinatsiyaviy, (takomillashmagan koordinatsiya sababli muskul bo'shashishi fazasida bir oz qo'zg'aluvchanlikni mavjudligi orqali sodir bo'ladigan) taranglik.

Qayd qilinagan chaqqonlikni namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muskul tarangligini yengish usullari sport fiziologiyasi va jismoniy tarbiya nazariyasi fanlari orqali o'rganiladi.

Chaqqonlikni rivojlantriruvchi mashqlar tez charchatadi. Bunday mashqlarni bajarishda muskullarni nihoyatda aniq va yuqori darajadagi sezgi talabiga muhitoj bo'lib, charchash sodir bo'lganda, mashqni bajarish kam samara beradi. Shunga ko'ra organizm sarflangan energiyani nisbatan to'liq tiklanishi uchun yetarli bo'lganda dam olish *oraliqlaridan* (*intervaldan*) foydalaniadi. Yuqori darajada energiya sarflash bilan bajarilgan mashqlardan so'ng chaqqonlikni turbiyalaydigan mashqlarni bajarish biz kutmagan natijani beradi.

### 15.3. Chidamlilikni rivojlantrish usuliyati

Muskul ishi faoliyatida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish davomida charchoqqa qarshilik ko'rsatish darajasi *chidamlilik sifati* deb ataladi.

Jismoniy mehnat (sport faoliyati) ni bajarayotgan kishi sekin asta o'z faoliyatini davom ettirishi qiyynlashayotganligini sezadi. Ter quyulib oqa boshlaydi, yuzida qizilik kuchayadi, rangi o'zgaradi, muskullarida xorg'inlik sezadi, harakat koordinatsiyasi, harakat texnikasi tarkibidagi elementlarning bajarish ketma-ketligi buziladi, nafas olishi ritmi chuqurligi o'zgaradi. Bajarayotgan harakati tarkibida qo'shimcha keraksiz harakatlar paydo bo'ladi, qo'shilib qoladi. Bunga asosan, organizmda kechayotgan fiziologik, biooximiaviy va biomexanik o'zgarishlar sabab bo'ladi. Faoliyatni davom ettirish esa ruhiy, irodaviy va boshqa sifatlar evaziga bajariladi. Bunday holatni *kompensatsiyali charchoq fazasi* deylaldi.

Agarda iroda namoyon qilish darajasini ortgaligiga qaramay, ish intensivligi pasaya borsa, *kompensatsiyasiz charchoq fazasi* boshlanganligini kuzatamiz.

Charchoq o'zi nima? Mehnat (mashq qilish) davomida ish qobiliya-

ting vaqtinchalik susayishi *charchaq* deyiladi. Bir xil ish faoliyati davomida charchoq turli kishilarda turlicha bo'lishi amaliyotda isbotlangan. Chunki, har bir individning chidamliliqini rivojlanganligi turlichadir.

Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan charchash mavzusiga katta e'tibor berilgan. Bir minginchi yili yozishni boshlab, bir ming yigirma to'rtinchchi yili mukammal tarixiy ilmiy asarga aylangan «Kitob ul qonun fit Tib» da surunkali jismoniy mashq bajarish charchoqni vujudga keltirishiga to'xtalib uni to'rt xilga ajratib izoh bergan:

1. *Yarali charchash* – unda terini yuzida yoki tagida yara kabi narsa seziladi.

2. *Qotib charchash* – unda kishi go'yo gawdasini ezilgan yoki mayag'langandek gumon qilib tanasida issiqlik va bo'shashishni sezadi.

3. *Shishli charchash* – bunda tana odatdagidan qizarganoq bo'lib, g'ovlaganga o'xshash xissiyot sezadi.

4. *Ozib charchash* – unga uchragan kishi gawdasini qurigan va qovjiuganoq sezadi.

Jismoniy tarbiya amaliyotida *aqliy, jismoniy, emotional, sensor* charchoqlarni farqlashimizga to'g'ri kelmoqda.

Chidamlilik vositalar va vositalarsiz o'ichanadi. Chidamlilikni vositali o'ichash uchun ma'lum tezlik bilan yugurish tavsiya qilinadi, hamda o'sha intensivlikni bo'shashtirmay ushlay olish vaqt (tezlikni susayishi boshlangunga qadar) hisoblanadi. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri chidamlilikni o'ichash juda noqulay. Ko'proq vositasiz o'ichashdan foydalaniadi. Sport amaliyotida, uzoq masofaga (10.000 m; 20.000 m) yugurish uchun sarflangan vaqtiga qarab chidamlilikga baho beriladi.

Kishining harakat faoliyati turlichadir. Charchoqning xarakteri va mexanizmiga qarab maxsus va umumiy chidamlilik farqlanadi. Tanlab olingan (ixtisoslik) sport turi yoki mehnat faoliyati uchun talab qilinadigan chidamlilikni maxsus chidamlilik, boshqa hayotiy sharoitdagi faoliyat uchun lozim bo'lgan chidamlilikni *umumiyl* chidamlilik deviyildi. Boksching maxsus chidamliliqi, futbolching umumiy chidamliliqi degan iborallardan amaliyotda foydalanimoqda. Yugurish, suzish, chanada yurish, qayiq haydash kabi sport turlarida deyarli barcha muskular harakat faoliyatida ishtirot etadi. Shuning

uchun charchoq ayrim muskullar guruhida hamda organizmning barcha muskullarida bo'lishi chidamlilikni maxsus va umumiyligini keltirib chiqaradi va shakl jihatdan bir xil bo'igan mashqlarni turli intensivlikda bajarish imkonini yaratadi. Bunda chidamlilik ham turlicha namoyon bo'radi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarishda organizmning churchoqqa nisbatan talabi turlicha bo'radi.

Chidamlilik talab qilinadigan mashqlarni bajarishda insonnинг funksional imkoniyatlari, bir tomonidan, lozim bo'lgan harakat minakalari va texnikani egallanganligi darajasiga bog'liq bo'lsa, bosqqa tonondan, organizmning aerob va anaerob (kislordli, kislordlsiz) imkoniyatlariiga bog'liq. Nafas imkoniyatlarining xususiyligi nisbatan yuqori emas, ular harakatni tashqi formasiga ham aytarli bog'liq bo'lmaydi. Shuning uchun yugurish mashqi yordamida o'zini aerob imkoniyatlarining darajasini oshirgan shug'ullanuvchi bosqqa harakatlarni, masalan, eshkak eshish, yurish, velosipeda yurish mashqlarni bajarishda ham o'zining chidamliligidan ijobiy naf oladi.

Misol, yurish va yugurishdagi harakatlarning koordinatsiyaviy tuzilishi va tezlik, kuch xarakteristikasi ko'p hollarda turlicha. Trenirovka orqali yugurishda erishilgan tezlikni yaxshilanganligi yurushni maksimal tezligiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Ya'ni "ko'chish" yo'q. Yugurish tezligi yurish tezligini o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmagan. Lekin uzun masofadagi shuultanganlik bir vaqtini o'zida yurish bilan yugurishda biri-biriga «ko'chishi» mumkinligi ilmiy-amaliy isbotlangan (V.M. Zatsiorskiy va boshqalar). Demak, koordinatsiyaviy biri-biriga yuqin bo'lgan harakatlarni bajarishda sportchi organizmning vegetativ sistemasini funksional imkoniyatini e'tiborga olsak umumlashtirilgan holat, shartli aytilganda, "vegetativ" shug'ullanlik chidamlilikning "ko'chishi" (o'tish) ga qulay imkoniyat ochiladi. Lekin har bir holada ko'chish ro'y bermasligi organizmning energiyasi imkoniyatlariga, harakatlarning barcha sifat xususiyatlariga talab qo'ymay, harakat malakatlarining o'zaro muvofiqlashuvni xarakteriga ham bog'liq bo'radi. Umumiy va maxsus chidamlilikning aniq vazifalarini hal qilish og'ir, ko'ngilga tegadigan darajadagi bir xil va eng katta hajmdagi og'ir ishni bajarishni taqazo qiladi. Charchoash *toliqishga* aylana boshlanganda ham mashqni to'xtatmaslik talab qilinadi. Bu esa ruhiy tayyorgarlikning namoyon bo'lishi uchun yuqori darajada katta talabni qo'yadi.

Chidamlilikni rivojlan Tirish melumatsevarlikni, katta nagruckalarga,

shuningdek, nihoyatda horg‘inlik hissiga bardosh berishga tayyor turishni tarbiyalash bilan olib boriladi. Sportchilar mashulotda ozmi-ko‘pmi charchoqni his qilsalargina, ularda chidamlilik ortib boradi. Bu esa tashiqi tomonidan chidamlilikning ortib borishida namoyon bo‘ladi. Moslashuv o‘zgarishlarning miqdori va qay maqsadga qaratilganligi, trenirovka nagruzkalarini natijasida organizmdagi javob reaksiyasi xarakteri darajasi bilan belgianadi.

***Chidamlilikni tarbiyalashda yuklamani kriteriyasi va komponentlari***  
muhim ahamiyat kasb etadi. Chidamlilik mashq‘ulotlar davomida sportchini bir oz bo‘lsada charchashni his qilishi orqali rivojlanishiga e’tibor bersak yuklamadan so‘ng tiklanish juda oz vaqt ichida sodir bo‘lsa chidamlilikni rivojlanmasligi ma’lum bo‘ladi. Ish hajmi katta bo‘lib charchoq his qilish bilan bajarilsa organizm yuklamaga moslasha boshlaydi va qator mashq‘ulotlardan so‘ng chidamlilikni ortib borayotganligi ko‘zga tashtanadi. Moslashuv organizmdagi o‘zgarishlar darajasi, yuklamaga javob reaksiyasi xarakteri, uni ko‘lami yo‘nalishi orqali sodir bo‘ladi. Har xil tipdag‘i nagruzkada charchoq bir xil bo‘lmaydi.

Siklik mashqlarni bajarishda chidamlilik uchun yuklamaning to‘la tavsifini quyidagi besh komponentda ko‘rishimiz mumkin;

- 1) mashqni absoljut intensivligi (harakatlansh tezligi);  
2) mashqni davomiyligi (uzunligi);  
3) dam olish intervalining katta kichikligi;  
4) dam olishning xarakteri (aktiv yoki passiv);  
5) mashqni takrorlashlar (qaytarishlar) soni;

Bu komponentlarni bir-biri bilan o‘zaro uzviy olib borish orqali berilgan yuklama organizmning faqat javob reaksiyasi ko‘lamigagina emas, hatto uning sifati xususiyatini ham turlicha bo‘lishiga olib kelishi amaliyotda isbotlandi.

Yuqorida qayd qilingan komponentlarni ta’sirini siklik mashqlar misolda ko‘rib chiqamiz:

